

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

AVAZ ERMETOV

**O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY
JARAYONLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ISHTIROKI
(1917-1945 yillar)**

Toshkent

“Universitet”

2020

A.A.Ermetov. O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ichki ishlar organlarining ishtiroki (1925-1945 yillar). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2020.

Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriatura ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan “O‘zbekiston tarixi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanmada 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) yo‘nalishi o‘quv rejasida asosiy fan sifatida o‘qitilayotgan O‘zbekiston tarixi fanining 3-kurs 6-semestrida o‘qitiladigan bo‘limi uchun belgilangan mavzularning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Xususan, O‘zbekistonda sovet hukumati o‘rnatilgandan so‘ng, hokimiyatni mustahkamlashda hamda sovet davlati tomonidan o‘lkada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlarining o‘rni va roli, bu jarayonda yuzaga kelgan murakkab va ziddiyatli holatlar 1925-1945 yillar oralig‘ida tahlil etilgan.

Mas’ul muxarrir:

R.H.Murtazaeva – tarix fanlar doktori, professor

Taqrizchilar:

X.E.Yunusova – tarix fanlar doktori, professor

B.M.Rasulov – tarix fanlar doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ma’us ta’lim vazirligining 2020 yil - sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (ro‘yxatga olish raqami)

SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallamoqda. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ham "jinoatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish"¹ borasida vazifalar belgilab berildi. Ichki ishlar idoralarining faoliyatini takomillashtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"²gi Qonunning qabul qilinishi bu tizimda o'tkazilayotgan islohotlarning uzviy davomi bo'ldi. Ichki ishlar organlarida olib borilayotgan o'zgarishlar jarayonida uning tarixini tadqiq etish, faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish ushbu tizimda olib borilayotgan islohotlarning uzviyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida o'lkada bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida sovet hokimiyati o'rnatilib, uning mustahkamlanishi jarayonida bir qator davlat boshqaruvi va nazorat organlari tashkil etildi. 1924 yilning oxirlarida Markaz tomonidan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosati amalga oshirilgandan so'ng, davlat boshqaruvi tizimidagi tashkilotlar bilan bir qatorda ichki ishlar organlari ham qayta tuzildi. Ichki ishlar idoralari inqilobiy tartibni himoya qilish va aholi xavfsizligini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq qonun, farmon va boshqa ko'rsatmalarni hayotga tatbiq etishda ham yuklatilgan vazifa va vakolatlari

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036.

² Ўзбекистон Республикасининг Қонуни: Ички ишлар органлари тўғрисида // Халқ сўзи. 2016 йил 17 сентябрь.

doirasida bevosita ishtirok etdi. Ta'kidlash joizki, bu davrda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar, mavjud siyosiy ahvol, jamiyatdagi ziddiyatlar va boshqa qator sabablarga ko'ra ichki ishlar organlarining faoliyatida doimiy ravishda o'zgarishlar bo'lib turgan. Ko'rsatib o'tilgan omillar sovet davridagi O'zbekiston ichki ishlar organlari faoliyati tarixini o'rganishni zaruriyatga aylantiradi.

I Mavzu. O‘zbekiston SSRda Ichki ishlar organlarining qayta tashkil etilishi va ularning sovet davlat boshqaruvini mustahkamlashdagi o‘rni

1.1-ma’ruza. O‘zbekiston hududida sovet hokimiyatining mustahkamlanishi va ichki ishlar organlari tashkil etilishining nazariy-huquqiy asoslari (1917-1924 yillar)

Reja

1. Sovet davlat boshqaruv tizimining mohiyati.
2. O‘lkada sovet hokimiyatining mustahkamlanishi va davlat boshqaruv organlarining tashkil etilishi.
3. Ichki ishlar organlari tashkil etilishining nazariy-huquqiy asoslari.

Asrlar davomida insonlar ilm-fan, texnika va boshqa sohalarda ko‘plab yutuqlarga erishishi barobarida, insoniyat tarixida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, davlatlarning paydo bo‘lishi, davlatchilik tarixi va boshqaruv shakli, jamiyatda sodir bo‘lgan voqea va hodisalar, ularning xususiyatlari haqida ko‘plab ta’limotlar tarqalgan bo‘lib, tarixning ma’lum bir pallasida ayrim ta’limotlar ta’sirida bir qator inqiloblar amalga oshirilgani ham kuzatiladi.

Xususan, XIX asrda dunyoga tarqalgan marksizm ta’limotida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar asosan iqtisodiy formatsiyalar va sinflar o‘rtasidagi kurashlar sifatida baholandi. Unda sinfsiz jamiyat qurish g‘oyasiga e’tibor qaratilib, davlat boshqaruv tizimida proletariat diktaturasini o‘rnatish muhimligi asoslandi. Ta’limotda jamiyatning asosini ishlab chiqaruvchi kuchlar tashkil etsada, mulkdorlar ularning majburiy mehnatidan foydalanib, boyliklarini doimiy ravishda ko‘paytirib borganligiga urg‘u beriladi. Jumladan, K.Marksning asarlarida “kapitalistlar va yirik ishlab chiqarish korxonalarini egalari o‘zlarining mahsulot ishlab chiqarish yoki mahsulot oldi-sotdisini amalga oshirish jarayonida ularni qimmatroq sotishga imkoni bor, lekin ishchi kapitalistga nisbatan noqulay ahvolda bo‘lishi tufayli o‘z mehnatini zarur tirikchilik evaziga sotishga majbur...” deya ko‘rsatilib, buning natijasi o‘laroq , “kapitalistik ishlab chiqarish usuli qullikka asoslangan ishlab chiqarish usulidan, jumladan, shu bilan farq qiladiki, ishchi kuchining qiymati, shunga muvofiq,

mehnatning o‘zining bahosi bo‘lib, yoki ish haqi bo‘lib maydonga chiqadi”³ – deb ta’kidlanadi.

Umuman olganda K.Marks va F.Engels asarlarida “kapitalist yoki yirik mulkdorlar kapitali (boyligi, mablag‘i)ni ko‘paytirishda asosan ishchi kuchidan foydalanilgani, natijada ularga to‘lanadigan haq evaziga doimiy ravishda mablag‘i orttirib borilgani, oqibatda jamiyatda mulkiy tengsizlik va tafovutlar ko‘payib ketganligi”ni asoslash kuzatiladi.

Ular tomonidan ilgari surilgan ta’limotning davomchisi bo‘lgan V.I.Lenin sinfiy kurashning mohiyati, jamiyatni boshqarish va uni “proletariat qo‘lida bo‘lishini ta’minlash” haqidagi g‘oyalarni ilgari surib, hokimiyat xalqni qo‘liga o‘tganidan so‘ng, uni saqlab qolish va mustahkamlash uchun maxsus nazorat organlarini tashkil etish zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Uning asarlarida dunyoning turli joylarida bo‘lib o‘tgan inqiloblar samarasiz yakun topishining asosiy sabablaridan biri, hokimiyat qo‘lga olinganidan so‘ng uni mustahkam ushlab turishga qodir mexanizmlar ishlab chiqilmaganligining oqibati ekanligi ta’kidlanadi.

K.Marksning fikri asosida ish yuritgan V.Lenin kapitalistik davlatlarning boshqaruv tizimiga baho berib, xalq tomonidan amalga oshirilgan inqilobdan so‘ng: “erkinlikni istagan xalq bu “tayyor” davlat mashinasini “parchalab tashlamog‘i”, uning o‘rniga yangi davlat mashinasini o‘rnatmog‘i, politsiya, armiya va byurokratiya o‘rniga xalqni yoppasiga qurollantirmog‘i kerak”⁴ligi haqidagi g‘oyasini isbotlashga harakat qiladi. Bu jarayonda “... aholining barcha kambag‘al qatlamlarining, ya’ni aholining g‘oyat ko‘pchiligini tashkil etgan bu qatlamlarning ishonchiga sazovor bo‘ladigan, ularga uyushishda yordam beradigan, ularga non uchun, sulh uchun, erkinlik uchun kurashda yordam beradigan haqiqiy sinfiy va revolyusion kuch, proletar militsiyasini barpo etish” g‘oyasini ilgari suradi. Qanday militsiya kerak? – degan savolga: “xalq militsiyasi,

³ Карл Маркс. Капитал. Учинчи том. Сиёсий иқтисод танқиди. Фридрих Энгельс таҳрири остида нашр этилган. - Тошкент: Ўзбекистон, 1985. - Б.10, 30-31.

⁴ Ленин В.И. Ўйроқдан хатлар. 3-хат. Пролетар милиция тўғрисида // Тўла асарлар тўплами. Т.31. - Тошкент: Ўзбекистон, 1977. - Б. 48.

birinchidan, yoppasiga butun aholidan, balogʻatga etgan har ikkala jinsga mansub barcha grajdanlardan tuzilgan, ikkinchidan esa, xalq armiyasi vazifalarini bajarish bilan birga politsiya vazifalarini ham, davlatda tartib oʻrnatadigan va davlatni idora qiladigan bosh va asosiy organ vazifalarini ham bajaradigan militsiya kerak⁵” – degan javobni beradi.

SHu oʻrinda taʼkidlash kerakki, “xalq militsiyasi” haqida keltirilgan bu fikrlar Rossiyada Oktyabr toʻntarishi amalga oshirilishidan bir necha oy oldin bayon etilgan boʻlib, V.Lenin proletariat diktaturasini oʻrnatish, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash jarayonida ishchi va dehqonlarning sinfiy tashkiloti sifatida tuziladigan va faoliyat yuritadigan militsiya organlariga juda katta ishonch bildirib, unga katta vakolatlar berishni rejalashtirgan edi.

Oʻsha davrdagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi boʻlgan L.D.Trotsky oʻzining “Rus inqilobi tarixi” nomli kitobida 1917 yil iyun oyida ishchi militsiyasini tuzish haqidagi urinishlar va uning faoliyati haqida fikrini bildirib: “Ommaviy axborot vositalari militsiyani zoʻravonlikda va noqonuniy hibslarga olishda aybladi. SHubhasiz, militsiya organlari faoliyati davomida zoʻravonlikni qoʻllagan, chunki ular shu vazifani bajarish uchun tashkil etilgan edi. Ularning jinoyati shunda ediki, militsiya xodimlari zoʻravonlik obʻekti boʻlishga oʻrganmagan sinfga nisbatan zoʻrlik qilganligidadir⁶” – deb yozgan edi.

1917 yil 25 oktyabrda Petrograd da oktyabr toʻntarishi amalga oshirilib, bolsheviklar hokimiyatni egallaganidan keyin, bu voqealarning uzviy davomi sifatida 1 noyabrda Toshkent Soveti Turkistonda sovet hokimiyati oʻrnatilganini eʼlon qildi. Sovetlar oʻzlarining boshqaruv doirasini kegaytirish maqsadida YAngi Termiz va Kattaqoʻrgʻonda, YAngi Buxoroda (Kogon), Samarqandda, Namanganda hokimiyatni oʻz qoʻliga oldi. Turkiston oʻlkasida hokimiyat bolsheviklar qoʻliga oʻtishi bilan Muvaqqat hukumatning barcha boʻgʻinlari

⁵ Ленин В.И. Ёйроқдан хатлар. 3-хат. Пролетар милиция тўғрисида // Тўла асарлар тўплами. Т.31. - Тошкент: Ўзбекистон, 1977. - Б. 42-43, 50.

⁶ http://ru.wikipedia.org/wiki/милиция#cite_note21. Троцкий Л.Д. История русской революции. В 2 т. Т.1. Февральская революция. - Москва: Терра, 1997. -С. 406.

tugatilib, o'rniga davlat hokimiyati va jazo organlari tashkil etilib⁷, sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi.

1917 yil 28 oktyabrda sovet hukumatining vakolatiga binoan, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi qabul qilgan «Ishchi militsiyasi to'g'risida»gi qaror yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma edi⁸.

Qarorda barcha ishchi va soldat deputatlari Sovetlariga inqilobiy intizom o'rnatish va tartibni saqlash uchun ishchi militsiyalari ta'sis etish to'g'risida ko'rsatma berilib, bu organ faqat sovetlar ixtiyorida bo'lishi ta'kidlangan edi. Harbiy va fuqaro hokimiyatlari zimmalariga ishchi militsiyasini qurollantirish, uni zarur texnika vositalari va qurol-yarog' bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi. RSFSR IIXKning "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qarori butun mamlakatda sovetlar hukmronligini to'la-to'kis bo'lishini ta'minlash va proletariat diktaturasini mustahkamlashga qaratilgan edi⁹.

Ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish vazifasini sovetlar zimmasiga yuklar ekan, IIXKning qarori jamoat tartibini muhofaza qilish idorasi va sovet tuzumining himoyachisi bo'lmish sovet militsiyasi tashkil etilganligini huquqiy jihatdan mustahkamlar edi¹⁰.

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan sovetlarning III o'lka s'ezdida o'lkada boshqaruv tizimini yuzaga keltirish, joylarda hokimiyat tuzish va eng asosiysi, o'lka hokimiyatini tashkil etish masalalari muhokama etildi. Natijada Turkistondagi oliy hokimiyat organi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tashkil etilib, u axborot yo'llari, pochta va telegraf, xalq maorifi, adliya, oziq-ovqat, suvdan foydalanish, ma'muriy-fuqarolik bo'limi, moliya, tashqi ishlar, harbiy ishlar, sanoat va savdo-sotiq, mehnat, er ishlari, xalq sog'lig'ini saqlash, maxsus topshiriqlar komissarligi kabi 15 ta komissarlikdan iborat bo'ldi. XKS prezidiumi tarkibiy jihatdan: birinchi rais, ikkinchi rais va kotibdan tashkil topdi¹¹.

⁷ Пасилов Б. Идеология и практика становления тоталитарной государственности в Туркестане. // O'zbekiston tarixi. №3. 1999. - Б. 46.

⁸ Джалилов Т. Верные отчизне. (1917-1924 гг.). - Ташкент: Узбекистан, 1968. - С.19.

⁹ ЎзРМДА, 25-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 65-варақ.

¹⁰ Джалилов. Из истории рабоче – дехканской милиции Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 1969. - С. 36-38.

¹¹ ЎзР МДА, 25-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 1-варақ.

1917 yil 26-28 noyabrda Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan o‘lka musulmonlarning IV qurultoyida tuzilgan Turkiston Muhtoriyati 1918 yil fevral oyida bolsheviklar tomonidan tugatilganidan so‘ng¹², shu yil 20 aprel – 1 may kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, soldat, musulmon va dehqon deputatlari sovetlarining V o‘lka s‘ezdi bo‘lib o‘tdi va 30 aprelda “Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilindi. Unga ko‘ra, Turkiston o‘lkasining hududi “Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi” deb e‘lon qilinib, uning tarkibiga Xiva va Buxorodan tashqari, Turkistonning barcha hududi kiritildi. Turkiston muxtoriyat tarzida boshqarilib, uning barcha faoliyati RSFSR hukumati bilan muvofiq xolda olib borilardi. Turkiston Sovetlarining VI s‘ezdida (1918 yil 5-14 oktyabr) RSFSR Konstitutsiyasi asosida “Turkiston ASSR Konstitutsiyasi” qabul qilindi. Konstitutsiyada mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishlari, temiryo‘l, bojxona, savdo, sanoat va moliya masalalari Federal hukumat ixtiyorida qoldirildi, ya‘ni davlat boshqaruvining barcha tarmoqlari qonuniy ravishda markazga bo‘ysundirildi.

“O‘z taqdirini o‘zi belgilash”ning sovetlarga xos varianti amalda avvalboshdanoq bir imperiyani uning mutlaq markazlashganini saqlagan holda boshqa bir imperiyaga aylantirishga, unitar davlat yaratishga qaratilgan edi¹³.

Shu tariqa markazdagi bolsheviklar chekka o‘lkalar, shu jumladan, Turkistonda ham o‘z hukumatini mustahkamlashga kirishdi. O‘lkada sovet hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bolsheviklar sovet davlat boshqaruvining ajralmas qismini tashkil etuvchi davlat apparatini shakllantirishga astoydil kirishdi.

O‘lkada Adliya komissarligi Turkiston XKSning birinchi qarori asosida 1917 yil 23 noyabrda tashkil etildi va XKS tarkibiga kiritildi¹⁴. RSFSR XKS tomonidan ishlab chiqilgan dekretga asosan 1917 yil 12 dekabrda Turkiston XKSning sud to‘g‘risida qarori e‘lon qilindi. Unda “...o‘lkada mavjud sud tashkilotlari, jumladan, okrugdagi sudlar, turli nomlardagi palata va harbiy sudlar

¹² Бу ҳақда батафсил қаранг. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. - Тошкент: Маънавият, 2000.

¹³ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) \ Масъул муҳаррирлар Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.203.

¹⁴ Сборник декретов и постановлений СНК ТАССР от 23.XI.1917 по 1.VII.1918 г.

faoliyati to‘xtatiladi” – deb ko‘rsatildi. Lekin mazkur qarorda mahalliy sudlarning qaysi qonun asosida faoliyat yuritishi kerakligi, shuningdek, unda harbiy tribunallar hamda tergov komissiyalari haqida ko‘rsatma berilmadi. Turkistonda sud-huquq tizimini tashkil etish masalasi Butunturkiston Sovetlarining 1918 yil aprel oyidagi yig‘ilishida ham muhokama etilsa-da, ijobiy echimini topmadi. Ma’lumotlarda keltirilishicha, eski adliya tizimi, Turkiston okrug harbiy sudi va uning tarkibidagi harbiy prokuratura nazorati 1918 yilning ikkinchi yarmigacha, Toshkent sud palatasi va uning huzuridagi prokuratura esa 1919 yilgacha faoliyat yuritgan¹⁵. 1919 yil 17 iyun kuni Turkiston XKS tomonidan chiqarilgan buyruqda “...o‘lkadagi qozi va biy sudlari faoliyatini to‘xtatib, ularning o‘rnida xalq sudlari faoliyatini takomillashtirish zarurligi”¹⁶ ko‘rsatildi. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, o‘lkada eski sud tizimi, qozi va biy sudlarining faoliyati 1923 yanvargacha, ya’ni Butunrossiya MIKning RSFSR Oliy sudining Turkiston bo‘limi tashkil etilgunga qadar davom etgan (chekka o‘lkalarda undan keyin ham)¹⁷. Turkiston Markaziy ijroiya komiteti tomonidan 1923 yil 14 aprelda e‘lon qilingan qarorda sud organlarini tashkil etish yuzasidan tegishli ko‘rsatma berildi. Unga asosan o‘lkada tarkibiy jihatdan xalq sudlari, viloyat sudlari va RSFSR Oliy sudining Turkiston ASSRdagi bo‘limidan iborat bo‘lgan sud tizimi joriy etildi.

O‘lkada prokuratura tizimining joriy etilishi jarayoni Turkiston MIKning 1922 yil aprel oyidagi qarori bilan huquqiy tasdig‘ini topib, qarorga asosan “Adliya xalq komissarligi huzurida davlat prokuraturasi bo‘limi, viloyatlarda esa xalq sudlari qoshida viloyat davlat prokurori lavozimi ta’ sis etildi”¹⁸.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘lkada adliya tizimining takomillashtirilishi barobarida, bir qator jazo va nazorat organlari ham tuzila boshladi. Jumladan, 1918 yil sentyabrda Turkistonda (sovet davlatining boshqa hududlarida bo‘lgani singari) Butunrossiya favqulodda komissiyasining bo‘limlari tashkil etildi¹⁹. Davlat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan mazkur tashkilot o‘z faoliyati

¹⁵ ЎзР МДА, 25-фонд, 1-руйхат, 38-иш, 40-варақ.

¹⁶ ЎзР МДА, 38-фонд, 2-руйхат, 53, 54, 117, 117, 176, 202 - ишларда бу ҳақда маълумотлар келтирилган.

¹⁷ ЎзР МДА, 343-фонд, 1-руйхат, 26-иш, 28-варақ.

¹⁸ ЎзР МДА, 38-фонд, 2-руйхат, 222-иш, 7-варақ.

¹⁹ ЎзР МДА, 17-фонд, 1-руйхат, 7-иш, 109-варақ.

davomida jamiyatda yuzaga kelgan turli ko‘rinishdagi ziddiyatli holatlar, boshqaruvga²⁰, inqilobiy qarashlarga qarshi bo‘lgan harakatlarni kuch ishlatib terror²¹ yo‘li bilan bostirib, boshqaruvning o‘ziga xos usulini ta’minlagan. Masalan, Butunrossiya favqulodda komissiyasining faqatgina 1918 yilning ikkinchi yarmidagi faoliyati davomida mamlakat bo‘yicha 50.000 ta odam ta’qib ostiga olinib, otib tashlangan edi²².

Bu davrda Sovet Rossiyasi shaharlarida bo‘lgani kabi, Turkistonda ham Ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish ishlari yanada jadallashtirildi. Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Sovetining 1917 yil 18 noyabrdagi qarorida barcha ishchi va soldat deputatlari sovetlariga qizil gvardiyachilar otryadlarini tuzishga kirishish ta’kidlandi. Sababi bu paytda Qizil gvardiya otryadlariga fuqarolarning shaxsi va mol mulkini muhofaza qilish vazifasi ham topshirilgan edi.

1918 yil 8 yanvarda Fuqaro–ma’muriy qism xalq komissari Petrovskiy ishchi va dehqon Sovetlariga «Toshkent xalq militsiyasiga kirishni istovchilar uchun ro‘yxat tuzish»ni taklif etdi. Uning maktubida shunday deyiladi: “Asosiy xizmatga faqat o‘tmishi benuqson bo‘lgan kishilar qabul qilinadi. Har bir nomzod haqida qisqacha tarjimai xol bo‘lishi kerak”²³.

1918 yil 29 yanvarda Turkiston o‘lkasi XKSning 17–sonli «Zahira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to‘g‘risida»gi buyrug‘i e’lon qilindi. Buyruqni bajarish fuqaro–ma’muriy qism komissari zimmasiga yuklatilgan edi.

Bu paytga kelib Muvaqqat hukumat davrida (1917 yil mart-oktyabr) tuzilgan eski harbiy va fuqaro militsiyasi uzil–kesil bekor qilindi. Buyruqda ma’muriyat va temir yo‘ldagi qo‘mitalar zarur hollarda yordam so‘rab, qizil gvardiya otryadlariga murojaat qilishlari ko‘zda tutilgan edi.

Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918 yil 30 yanvarda “Turkiston o‘lkasi shahar va tumanlari militsiya

²⁰ Шамбаров В. Государство и революция. - Москва: Алгоритм, 2001. - С.80.

²¹ Бжезинский З. Большой провал. «Агония коммунизма». Квинтэссенция. Философский альманах. - Москва: Изд-во полит. литературы. 1990. - С. 258.

²² Шамбаров В. Окультизмные корни Октябрьской революции. - Москва: Алгоритм; Эксмо, 2006. - С.373.

²³ Джалилов Т. Верные Отчизне (1917-1924). - Ташкент: Узбекистан, 1968. - С.22.

inspektori boshqarmasining bo‘limi” tashkil etildi²⁴. Militsiya inspektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi qilib A.Baranovskiy tayinlandi.

Boshqarmani ish yuritish bo‘limi (kanselyariya)ni tashkil etish va qisqa muddatda militsiyaning oddiy xodimlari va komandirlarini tayyorlaydigan kurslar ochish ham unga topshirildi.

Inspektor o‘lka xududi doirasida militsiyaga umumiy rahbarlikni amalga oshirar, militsiya muassasalarini tekshirar va taftish qilar, militsiya xodimlarining bir viloyatdan ikkinchisiga o‘tishlarini boshqarar edi²⁵.

1918 yilning fevral oyida barcha uezd, shahar hamda volostlarda militsiya idoralari tashkil etila boshlandi²⁶. Butun mamlakatdagi kabi Turkistonda ham sovet militsiyasi yangicha huquq-tartibotni himoya qilishga da’vat etilgan ishchi va dehqonlarning sinfiy tashkiloti sifatida bunyod etildi. Eski mutaxassislardan foydalanishga yo‘l qo‘yilgan harbiy, moliyaviy va boshqa idoralardan farqli o‘laroq, militsiya shaxsiy tarkibiga avval boshidanoq yakka tartibda ishga qabul qilish usuli joriy qilingan edi.

Sovet militsiyasining tuzilishida RSFSR Guberniya ijroiya komitetlarining Moskvada bo‘lib o‘tgan I sessiyasi (1918 y. 30 iyun-1 avgust) katta rol o‘ynadi. Sessiyada sovet davlat apparati qurilishi yuzasidan qabul qilingan qarorlar ichida “sovet davlatining barcha hududlarida sinfiy kurash avj olayotgan hozirgi sharoitda hamda shahar, qishloq va chekka o‘lkalarda inqilobiy diktaturani mustahkamlash uchun, ishchi-dehqon militsiyasini tuzish bilan bog‘liq masalalarni tezda tugatish zarurligi”²⁷ alohida ko‘rsatildi.

1918 yil 13 dekabrda «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to‘g‘risidagi Nizomi» ishlab chiqildi hamda Turkiston ASSR MIK tomonidan tasdiqlandi²⁸.

Bu paytda huquqiy jihatdan hamda vakolatlari doirasida Turkiston ASSR Ichki ishlar va Tashqi ishlar xalq komissarliklari hamda uning qoshidagi hay‘at

²⁴ ЎзР МДА, 39-фонд, 1-руйхат, 72-иш, 1-варақ.

²⁵ ЎзР МДА, 39-фонд, 1-руйхат, 72-иш, 1-2-варақлар.

²⁶ ЎзР МДА, 25-фонд, 1-руйхат, 35-иш, 66-варақ.

²⁷ Вестник НКВД, 1918, №20. - С.11.

²⁸ ЎзР МДА, 39-фонд, 1-руйхат, 644-иш, 39-40-варақлар.

Respublika militsiyasiga umumiy rahbarlik qilardi. Respublika militsiyasining bosh instruktori militsiya ishlari bilan bevosita shug'ullanardi. U o'z mahkamasi bilan Ichki ishlar va Tashqi ishlar xalq komissarligi tarkibiga kiritilgan edi.

Joylarda tashkil qilingan militsiyaga shahar va uездlar muhofazasi boshliqlari rahbarlik qilishardi. Ular va yordamchilarini Tashqi ishlar xalq komissarining roziligi bilan sovetlar tayinlardi. SHaharlar va uездlar rayon militsiyasini tuzishardi. Rayon militsiyasi tarkibini sovetlarning roziligi bilan shahar yoki uезд muhofazasi boshlig'i tayinlardi.

Turkiston ASSRda militsiya organlarini tashkil etish RSFSRdagiga nisbatan ma'lum darajada farq qilardi²⁹. Turkistonda sovet militsiyasini tashkil qilishda amalda sinovdan o'tgan Rossiya militsiyasining tashkiliy jihatlari asos qilib olindi, shuningdek, o'lkadagi siyosiy vaziyat hisobga olinib, militsiya organlariga sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat va norozilik chiqishlarini bostirishda qatnashish vazifasi ham yuklatildi.

1919 yil 26 aprelda (boshqa bir hujjatda yozilishicha 1919 yil iyulda) Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida respublika militsiyasi ishiga rahbarlik qiladigan Ishchi-dehqon militsiyasi Bosh boshqarmasi ta'sis etildi va 1920 yil 21 yanvarda unga bolshevik Ya.Sirul boshliq etib tayinlandi³⁰. Bu haqda Turkiston ASSR Sovetlarining IX s'ezdi (1920 yil 19-24 sentyabr)da Ishchi-dehqon militsiyasi Bosh boshqarmasi faoliyati to'g'risida qilingan ma'ruzada so'z boradi³¹.

1919 yil 26 iyunda Turkiston ASSR IIXK "Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizom"ni qabul qildi³².

Nizom asosida shahar, uезд, shuningdek, jinoiy qidiruv va temir yo'l militsiyasi Militsiya Bosh boshqarmasiga bo'ysundirilib, uning roli

²⁹ ЎзР МДА, 339-фонд, 1-рўйхат, 365-иш, 208-варақ.

³⁰ ЎзР МДА, 39-фонд, 1-рўйхат, 106-иш, 6-варақ; 17-фонд, 1-рўйхат, 40-иш, 7-варақнинг орқаси.

³¹ ЎзР МДА, 17-фонд, 1-рўйхат, 40-иш, 7-9-варақлар.

³² ЎзР МДА, 39-фонд, 1-рўйхат, 103-иш, 1-варақ; Положение о Советской Рабоче-Крестьянской милиции Туркестанской Республики Российской Советской Федерации. (Нашр этилган жойи ва вақти кўрсатилмаган). - С.1-13.

mustahkamlangan edi. Nizomda sovet militsiyasining burchi va asosiy vazifasi ishchilar sinfi va kambag'al mehnatkash xalq manfaatlarini hamda inqilobiy tartib, yangi tuzumni muhofaza qilishdan iborat, deb belgiladi³³. SHu tariqa o'lkada faoliyatini boshlagan ishchi-dehqon militsiyasi sovet tuzumini himoya qiluvchi sinfiy tashkilot sifatida tuzildi³⁴.

Turkistonda o'rnatilgan bolsheviklar hukumati o'zining davlat hokimiyat organlari va boshqaruv apparatini har tomonlama mustahkamlash jarayonida, bu davrda O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat yuritayotgan Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida ham sovet hukumatini o'rnatish ishlarini jadallashtiridi.

1920 yil 2 fevralda Xiva xonligi hukumati ag'darilgach uning o'rniga majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat muvaqqat inqilobiy hukumat qo'liga o'tganligi e'lon qilindi³⁵. SHu yil 9 aprel kuni muvaqqat inqilobiy hukumat ishini yaxshilash maqsadida uning tarkibida nozirliklar tashkil qilindi. Bir nechta nozirlikdan iborat bo'lgan mazkur hukumatda Boboovun Salimov – adliya noziri³⁶ etib tayinlandi.

Xiva shahri va mamlakatda tartib-intizomni ta'minlash maqsadida adliya nozirligi qoshida militsiya boshqarmasini tashkil qilish ishlari yo'lga qo'yildi. Natijada Xorazm Respublikasida "Mamlakatda militsiya boshqarmasini tasis etish va Xiva shahrini himoya qilish to'g'risida"³⁷ qaror qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra adliya nozirligi qoshida militsiya boshqarmasi tasis etildi³⁸. Uning boshqaruvchisi qilib "Yosh xivaliklar" partiyasi a'zosi Nazir Sholikorov tayinlandi (ma'lumotlarda keltirilishicha u ishini 30 apreldan boshlagan).

1920 yil 27-30 aprel kunlari bo'lib o'tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyida XXSRning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. XXSR markazi Xiva shahri bo'lib, markaziy boshqaruv apparati shu erda joylashtirildi.

³³ ЎЗР МДА, 39-фонд, 1-руйхат, 6-иш, 72-варак.

³⁴ Петров Г. Қизил милициямизнинг 8 йиллиги. / Қизил Ўзбекистон, 1926 йил 28 февраль, 49-сон.

³⁵ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. Тошкент: Абу матбот консалт, 2007. - Б.316.

³⁶ Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). Тошкент: Академнашр, 2011. - Б. 79.

³⁷ Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987. - С.141.

³⁸ Халқ хизматида 75 йил. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.29.

Etiborli tomoni shundaki, mustaqil Xorazm respublikasida davlat nazorat va boshqaruv organlari, jumladan, ichki ishlar organlarini tuzishda ham xuddi TASSRdagi kabi bir xil “andoza” asosida, mahalliy shart-sharoitlar, aholining tarixan shakllangan turmush tarzi va qarashlari hisobga olinmadi. Oqibatda, militsiya idoralaridagi ish jarayonida dastlabki kunlardanoq, qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga to‘la bo‘ldi.

1921 yil 6 mart kuni RSFSRning XXSRdagi muxtor vakili M.Safanovning buyrug‘iga ko‘ra Sh.Hasanov, H.Musaevlarning ishtirokida qurollangan askarlar hukumat uyini o‘rab oldi³⁹. Xalq Nozirlar Kengashining raisi P.Yusupov, Dohiliya noziri Nazir Sholikorov va boshqa hukumat rahbarlari qochib yashirinishga ulgurdilar⁴⁰. Shu kuni Muvaqqat inqilobiy komitet tuzildi. Muvaqqat inqilobiy komitet hibsga olingan nozirlar o‘rniga yangi nozirlarni tayinladi. Jumladan, Nurullaev-moliya noziri, X.Divanov-maorif va madaniyat noziri, B.Asqarov-xalq xo‘jaligi noziri, B.Yoqubov-ijtimoiy ta‘minot noziri, A.Qutlimurodov-adliya noziri, B.Muhammadjonov-xalq militsiyasi rahbari, X.Divanov-davlat nazorati noziri, SH.Hasanov-harbiy nozir, H.Bobojonov-er ishlari noziri, O‘.Xo‘jamuhamedov-tashqi ishlar noziri qilib belgilandi.

Bolsheviklar tomonidan jamiyatda tartib-intizomni o‘rnatish, davlat va jamoat mulkini qo‘riqlash ishlarini jadallashtirishi jarayonida, huquqiy jihatdan muhim bo‘lgan hujjat “Ichki Ishlar Xalq nozirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Ijroiya komiteti tomonidan 1921 yil 26 mayda e‘lon qilindi⁴¹.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, Ichki Ishlar Xalq Nozirligi bir necha bo‘limlardan, ya‘ni Ma‘muriy boshqaruv, Pochta-telegraf, Sog‘liqni saqlash, Ijtimoiy-ta‘minot, Kommunal va Militsiya bo‘limlaridan iborat bo‘lgan.

Mazkur qarorning ijrosini ta‘minlash jarayonida Xorazm respublikasining barcha hududlarida muhofaza bo‘limlari tashkil etila boshladi. Ayrim ma‘lumotlarda keltirilishicha, uning tarkibida mingga yaqin xalq militsionerlari

³⁹ Матниёзов М, Олимов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. - Урганч: Хоразм, 2008. - Б.214.

⁴⁰ Ахангаров М. Хоразм тарихи материаллари. - Урганч, 1964. - Б.62.

⁴¹ ЎЗР МДА 71-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 161-варак.

faoliyat yuritgan. Bu davrda bo‘limning ish faoliyati tartibsiz yuritilib, aniq reja asosida olib borilmagan.

1923 yilda bo‘lib o‘tgan xalq vakillarining IV Butunxorazm qurultoyida Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasining konstitutsiyasi qabul qilinadi⁴². Konstitutsiya 12 bo‘lim, 46 moddadan iborat bo‘lib, 15 moddasida XSSRning umumiy boshqaruvi quyidagi 6 ta nozirlik: a) Ichki ishlar, b) Tashqi ishlar, v) Maorif, g) Harbiy, d) Huquqiy, e) Ishchi-dehqon inspeksiyasi va Iqtisodiy Kengash tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan⁴³. SHu tariqa Xorazm hududlarida tashkil etilgan ichki ishlar idoralarining huquqiy maqomi va davlat boshqaruv tizimidagi o‘rni konstitutsiya asosida belgilab berildi.

1920 yil 2 sentyabrda sovetlar tomonidan Buxoro shahri bosib olinganidan so‘ng, shu yil 14 sentyabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Inqilobiy Qo‘mita va Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi-Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati-11 kishidan iborat bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi-Fayzulla Xo‘jaev) tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar SHO‘rosi tarkibiy jihatdan quyidagicha bo‘lingan edi: rais va horijiy-tashqi ishlar (nozir-Fayzulla Xo‘jaev), maorif (Qori Yo‘ldosh Po‘latov), doxiliya-ichki ishlar (Muxtor Sayidjonov), moliya (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev), davlat nazorati (Najib Husayinov), favqulodda komissiya (cheka raisi-Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin Shihobuddinov), er-suv ishlari-dehqonchilik (Abdulqodir Muhitdinov), savdo va sanoat (Mirzo Muhitdin Mansurov) nozirliklari.

1920 yil 6-8 oktyabrda amirning yozgi saroyi - Sitorai Mohixosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi e‘lon qilindi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi.

⁴² ЎзР МДА 71-фонд, 1-рўйхат, 64-иш, 25-29-варақлар (орка варақлари билан).

⁴³ ЎзР МДА 71-фонд, 1-рўйхат, 64-иш, 26-варақнинг орқаси

1920 yil oktyabr-noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921 yil 4 martda har ikki davlat o'rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini "qonuniy" asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi⁴⁴.

BXSRda 1921 yilda qabul qilingan konstitutsiya⁴⁵, 17 bob, 79 moddadan iborat bo'lib, Buxoro Xalq SHO'rolar jumhuriyatida, "Xalq nazoratlari 10 ta nozirlikdan tuzilgani ko'rsatildi. Nozirliklar tarkibiga Dohiliya nazorati ham kiritildi"⁴⁶. Natijada Dohiliya (ichki ishlar) nazorati davlat boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etgan hujjatda qonuniy va huquqiy asosini topdi.

Nozirlik markaziy va mahalliy hokimiyatlarning barcha qarorlari va farmoyishlarini bajarilishini nazorat qilar, markaziy va mahalliy ma'muriy boshqarish organlari faoliyatini, militsiya tuzilishini, qamoqxonalarni boshqarardi. SHuningdek, nozirlik tarkibida qo'riqlash bo'limi ham ta'sis etilgan bo'lib, uning zimmasiga fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va respublikada o'rnatilgan davlat tuzumiga qarshi ayrim shaxslar yoki uyushmalar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan suiqasdlarning oldini olish uchun militsiya mahkamalarini yaratish vazifasi ham yuklatilgan edi. Uning tarkibida siyosiy qidiruv (aksilinqilobchilarga qarshi kurash), jinoiy qidiruv (jinoiyatchilikka qarshi kurash) va militsiya (fuqarolarning shaxsi va huquqlarini himoya qilish) bo'linmalari faoliyat yuritgan⁴⁷.

Bu davrda ichki ishlar shaxsiy tarkibida xodimlarning etishmasligi natijasida Buxoro respublikasida aholi o'rtasida militsiya ishini majburiy o'tash joriy qilindi.

⁴⁴ Ўзбекистон тарихи II жилд. (XIX аср II ярми – 1991 йил август). Масъул муҳаррир. Р.Х.Муртазаева. Тошкент, Маънавият, 2015. - Б.250.

⁴⁵ "Бухоро Шўроларнинг Жумҳурияти қонуни асосий" Конституция. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 1-14-варақлар.

⁴⁶ ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 8-варақ.

⁴⁷ Халқ хизматида 75 йил. Масул муҳаррир Ғ.Рахимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.29.

Aholi yashaydigan har bir mavzeda oqsoqollarning kuzatuvini ostida bir yoki ikki kishi tanlab olinib, tartibni saqlash ular zimmasiga yuklanar edi. Mavzelardan saylab qo'yilgan kishilarning faoliyati militsiya organlari nazorati va yordami bilan olib borilardi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, bu davrda jamoat tartibini saqlashning xuddi shunday usuli Xorazm respublikasida ham kuzatilgan bo'lib, mahalla va mavzeleri qo'riqlash uchun (asosan kechasi) xalq orasidan ko'ngillilar tanlab olinib, ular yordamida aholining tinchligi va xavfsizligi ta'minlangan.

1924 yil oxirlarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanishdan so'ng, bu hududlarda faoliyat yuritgan uchta davlat tugatilib, O'zbekiston SSR tashkil etildi. Natijada Turkiston ASSR, XSSR va BSSRlarda ichki ishlar idoralari huquqiy va hududiy jihatdan O'zbekiston SSR IIXK tasarrufiga o'tkazildi.

1932 yilda O'zbekiston SSR militsiya xodimlarining faoliyati bilan bog'liq ikkita hujjat qabul qilindi. Ular "Ishchi-dehqon militsiyasining intizom nizomnomasi"⁴⁸ va "Ishchi-dehqon militsiyasi ichki xizmatining muvaqqat nizomnoma"lari⁴⁹ bo'lib, ushbu hujjatlarda Ishchi-dehqon militsiyasi xodimlarining burchi, vazifasi, xizmat turlari, ishga qabul qilinishi, boshqa xizmatga o'tishi, ishdan bo'shatilishi holatlari, rag'batlantirilishi va umuman bu tizimdagi faoliyati bilan bog'liq muhim jihatlar belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, o'lkada oktyabr to'ntarishi amalga oshirilgandan so'ng Turkistonda o'rnatilgan sovet hukumati o'zining hokimiyatini har tomonlama mustahkamlay boshladi. Asosiy mazmuni mexnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb tartib o'rnatgan tuzum o'lkada inqilob qununlariga huquq-tartibotga qat'iy amal qilishini ta'minlovchi maxsus organlarni tashkil eta boshladi.

Sovet hukumati o'rnatilgan barcha hududlarda RSFSR IIXKning ko'rsatmasiga binoan militsiya organlarini tashkil etish ishlari jadallashtirilib, jumladan, Turkistonda ham sovetlar tomonidan bunday tadbirlar amalga oshirildi.

⁴⁸ Дисциплинарный устав Рабоче-крестьянской милиции. Ташкент, 1932.

⁴⁹ Временный устав внутренней службы Рабоче-крестьянской милиции. Ташкент, 1932.

O'lkani boshqarish va sovet hukumatini mustahkamlash jarayonida oliy organ hisoblangan – Turkiston Xalq komissarlari soveti tashkil etilib, u 15 ta komissarlikdan tashkil topdi.

O'lkada Adliya xalq komissarligi Turkiston Xalq komissarlari sovetining birinchi qarori asosida tashkil etilib, mazkur hujjat asosida Adliya xalq komissarligi huzurida sud organlari, prokuratura tizimi joriy etildi. SHu o'rinda qayd etish lozimki, shu paytgacha o'lkada mavjud bo'lgan eski sud-huquq tizimi, an'anaviy qozi va biy sudlari ham ahamiyatini yo'qotmay, hujjatlarda ko'rsatilishicha ular 1923 yillargacha faoliyat yuritgan.

Turkistonda adliya tizimining tashkil etilishi va takomillashtirilishi barobarida, ayrim jazo va nazorat organlari ham tuzila boshladi. Natijada Turkistonda (sovet hukumati o'rnatilgan boshqa hududlarda bo'lgani singari) Butunrossiya favqulodda komissiyasining bo'limlari tuzildi. Davlat xavfsizligini ta'minlash, mavjud siyosiy tizim va inqilobiy qarashlarga qarshi bo'lgan harakatlarni bostirish vazifasi yuklatilgan mazkur tashkilot o'z davrida aholiga nisbatan kuch ishlatish va terror usullarini ham qo'lladi.

Turkistonda militsiya organlarining tashkil etilishi huquqiy jihatdan 1918 yil 29 yanvarda Turkiston o'lkasi XKSning 17-sonli «Zahira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to'g'risida»gi buyruqda o'z aksini topdi. SHu yili Turkiston ASSR MIK tomonidan “Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizomi” tasdiqlanganidan so'ng, militsiya faoliyati yanada takomillashtirildi.

O'lkada mustahkamlanib borayotgan lar hukumati o'zining davlat hokimiyat organlari va boshqaruv apparatini har tomonlama mustahkamlash jarayonida, bu davrda O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat yuritayotgan Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida ham sovet hukumatini o'rnatish ishlarini jadallashtirdi.

1920 yilda Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, Xivada muvaqqat inqilobiy hukumatni tuzish jarayonida, bu hududlarda ham ichki ishlar idoralari tashkil etildi. Jumladan, hukumat tarkibiga kiritilgan – adliya nozirliqi qoshida militsiya boshqarmasi tasis etildi. Keyinroq

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Ijroiya komitetining qaroriga asosan Ichki ishlar xalq nozirligi tashkil etildi (1921 yilda).

Buxoro hududlarida amirlik tuzumi tugatilganidan keyin, Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi va respublika hukumati Xalq Nozirlar SHO‘rosi tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar SHO‘rosi tarkibiga doxiliya-ichki ishlar nozirligi ham kiritilib, hududlarda uning bo‘limlari faoliyatini boshladi.

O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgandan so‘ng, bu hududlarda faoliyat yuritgan uchta davlat tugatilib, O‘zbekiston SSR tashkil etildi. Natijada Turkiston ASSR, XSSR va BSSR hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar idoralari huquqiy va hududiy jihatdan O‘zbekiston SSR IIXK tasarrufiga o‘tkazildi.

Tayanch so‘zlar

Tuzum, davlat, jamiyat, siyosat, imperiya, sovet, revolyusiya, totalitar, g‘oya, boshqaruv, , proletariat, sotsializm, huquq, vakolat, qonunchilik, nizom, Turkiston ASSR, BSSR, XSSR, nozirlik.

Savol va topshiriqlar

1. Turkistonda sovet hokimiyati qachon o‘rnatildi?
2. Xalq Komissarlari soveti qachon tuzildi va qanday komissarliklardan iborat bo‘ldi?
3. Turkistonda sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun qanday davlat tashkilotlari va nazorat organlari tashkil etildi?
4. O‘lkada sovet hukumatini mustahkamlash borasida ishchi-dehqon militsiyasiga qanday vazifalar yuklatilgan edi?
5. Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hokimiyati o‘rnatilishi haqida gapirib bering.
6. XXSR va BSSRlarida hukumatning tuzilishi va uning faoliyatidagi murakkabliklar nimalarda ko‘rinadi?

1.2 - ma'ruza. O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining tashkil etilishi, strukturasi, vazifa va vakolatlari

Reja

1. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi hamda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikalari ichki ishlar idoralarining O'zbekiston SSR tasarrufiga o'tkazilishi.

2. O'zbekiston SSR Sovet Ishchi–dehqon militsiyasi haqidagi Nizomning qabul qilinishi, Nizomda belgilangan vazifalar.

3. “O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi”da ichki ishlar idoralarining davlat boshqaruvidagi o'rni va huquqiy maqomi.

4. Ichki ishlar organlarining boshqa davlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati.

1924 yil oxirlarida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi va O'zbekiston SSRning tashkil etilishi natijasida o'lkada faoliyat yuritgan ichki ishlar organlarining hududiy va tarkibiy tuzilishida ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1924 yil 14 dekabrda O'zbekiston SSR militsiyasi boshlig'ining 16-sonli buyrug'i e'lon qilindi. Buyruqda “Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari O'zbekiston SSR militsiyasi tasarrufiga o'tkazilgani ko'rsatilgan bo'lib, endilikda militsiya organlarining tarkibi butunlay qayta ko'rib chiqilishi zarurligi, xodimlarga militsiya saflarida xizmat olib borish qoidalari va jamiyatda tartib-intizomni ta'minlash borasida tegishli kurslar tashkil etish kerakligi, shuningdek, tashkilotda mustahkam tizimli tartib o'rnatish muhimligi” belgilab berildi⁵⁰. Turkiston ASSR IIXKga tegishli huquqiy normativlar, nizomlar, yuqoridan chiqarilgan qaror, farmoyish va ko'rsatmalar asosida belgilangan vakolat hamda vazifalar o'zaro muvofiqlashtirildi⁵¹. Natijada militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarining faoliyati ustidan umumiy nazorat qilish O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligiga yuklatildi. Shunday bo'lgani holda, O'zbekiston SSR IIXK

⁵⁰ Андижон ВДА, 46-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 75-76-варақлар.

⁵¹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 774-иш, 163-164-варақлар.

tomonidan qabul qilingan qarorda Turkiston ASSR IIX komissari hamda Buxoro va Xorazm Respublikalari xalq nozirlari vaqtincha o'z o'rnida qoldirildi. O'zbekiston SSRda tashkil etilgan "Militsiya va jinoyat qidiruv" bo'limiga 7 ta viloyat bo'linmalari, bitta tuman shahar (Toshkentning eski shahrida) bo'linmasi, 13 ta tuman bo'linmalari va Samarqand viloyatining vokzal oldi bo'linmasi bo'ysunar edi⁵².

Qayta tashkil etilgan ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida IIXK tomonidan 1925 yil 1 dekabrda "O'zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi haqida Nizom"⁵³ qabul qilindi. Jumladan uning 1-bandida: "O'zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi Markaziy va mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi organi bo'lib, ular tomonidan inqilobiy tartibni himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan e'lon qilingan qaror, buyruq hamda farmoyishlarni hayotga tatbiq etadi" deb ko'rsatilgan. Umuman olganda bu davrda militsiyaga yuklatilgan vazifalar quyidagilardan iborat bo'lgan: inqilobiy tartibni himoya qilish, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash; yuqoridan chiqarilgan qonunlar, qarorlar, farmoyish va dekretlarni hayotga tatbiq etishda ishtirok etish; qamoqxonalarni qo'riqlash; jinoyatga qarshi kurashish; aholi punktlaridagi sanitar holatni nazorat qilish; aholiga pasport berish, pochta orqali yuborilgan posilka va pulli xatlarni olishga doir tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va yo'qotilgan hujjatlarni qayta tiklash; ma'muriy jarimalarni undirish; qishloq xo'jaligini nazorat qilish; qoramollarning sonini tekshirib turish⁵⁴;

Shu bilan birga militsiya quyidagi bir qancha komissarliklar va tashkilotlarga yordam berib turgan: Er ishlari xalq komissarligiga o'rmonlarni qo'riqlashda, ovchilik va baliqchilik qoidalarini buzmaslikni nazorat qilishda; Moliya xalq komissarligiga soliqlarni yig'ishda va aksiz qoidalarini buzilish holatlarini tekshirishda⁵⁵, Tashqi savdo xalq komissarligiga bojxona ishlarida; Adliya xalq komissarligiga fuqaro ishlari bo'yicha sud chiqargan hukmlarni amalga oshirishda,

⁵² Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. –Тошкент: Ўзбекистон. 1992. - Б. 48.

⁵³ ЎЗР ИИВА, 76-фонд, 1-рўйхат, 915-иш, 31-37-варақлар.

⁵⁴ Еропкин М. Развития органов милиции в Советском государстве. - Москва, 1967. - С.44.

⁵⁵ ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 18с-иш, 7-варақ.

jumladan, sudga chaqirish va chaqiruv qog'ozlarini topshirish, sud belgilagan jarimalarni undirish hamda sud hukmiga binoan yashash ta'qiqlangan hududlarni nazorat qilish va boshqalarda.

Jamiyatdagi jinoyatchilikni oldini olish va kamaytirish ishlarini jadallashtirish jarayonida O'zbekiston SSR MIK Prezidiumi tomonidan qabul qilingan qarorda (1925 yil iyul) "Temir yo'l yo'nalishlarida sodir etilayotgan o'g'rilik (ayrim hollarda bir kechada 15 ta va undan ortiq)⁵⁶, talonchilik va boshqa qonunbuzarliklar qarshi kurashish"⁵⁷ vazifasi ham yuklatildi. Ma'lumki, o'lka hududlarida sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga qarshi qurolli chiqishlar amalga oshirildi. Bu masala O'zbekiston SSR IIXK yig'ilishida (1925 yil 1 dekabr) muhokama etilganida militsiya organlariga "Bosmachi guruhlarini harakati to'g'risidagi tezkor axborotlarni (ularning soni, qurollari, faoliyat yuritayotgan joyi) 1 oyda 2 marta tegishli vakolatli idoralarga topshirib turish"⁵⁸, chekka viloyatlarda ularga qarshi kurashish⁵⁹ kabi qo'shimcha vazifalar yuklatildi.

Sovet boshqaruv apparatining asosini tashkil etgan Xalq Komissarlari Sovetining tarkibiga kiritilgan Ichki ishlar xalq komissarligining sovet boshqaruvidagi o'rni va huquqiy maqomi haqida shu paytda Ichki ishlar xalq komissari lavozimda ishlagan Raxmat Rafikning maqolasi 1925 yil 22 aprelda e'lon qilinadi. Maqola "O'zbekistonning Ichki ishlar komissarligi va uning Sho'ro tuzilishidagi usuli" deb nomlanib, unda o'sha davrda ichki ishlar komissarligiga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, komissarlikning yangi hukumat tarkibidagi o'rni haqida quyidagi qimmatli ma'lumotlar keltiriladi: "Ichki ishlar komissarligi Sho'ro tuzilishi usulida Sho'ro qonunlarini umumiy sharoit asoslariga muvofiq amalga qo'yadigan quvvatga molik bir muassasadir. Ichki ishlar komissarligi o'z ahamiyaticha hukumat tashkiloti bo'lsa ham, shubhasiz, O'zbekiston, Markaz ijroqo'm idora tashkilotlari deb hisoblanadi. Ichki ishlar komissarligining vazifasi

⁵⁶ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 184-иш, 16-варақ.

⁵⁷ ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 2с-иш, 3-5-варақлар.

⁵⁸ ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 2с-иш, 16-варақнинг орқаси.

⁵⁹ ЎЗР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3192-иш, 478-варақ.

mahallalar bilan qatnashish va bog‘lanish barobarida, mahalliy muassasalarga yuklatilgan vazifalarda idora qilish qoidalarini bajarilmoq, ommani sho‘ro davlat tuzilishi, sho‘ro jamiyatlari bilan oshno etmak. Aholini sho‘rolashtirish asoslari bilan bog‘lamoqdur. Bunday muhim masala va vaziyatlarni ado qilish oldida avvalo ommaning tabiatini o‘zgartirib, ham ularni idoralarga jalb etish yo‘li bilan bajarilmagi lozim. ...Ichki ishlar xalq komissarligi Markaziy ijroiya qo‘mitasining ijrochi tashkilotlaridan bo‘lib, huquqiy jihatdan SHO‘ro hukumatining qarorlarini bajaradi⁶⁰’.

Maqolada keltirilgan fikrlar shu jihati bilan qimmatliki, unda birinchi marta ichki ishlar xalq komissarligi endi tashkil etilgan paytida ularga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, ularning faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi, bunday materiallar boshqa arxiv hujjatlarida ham uchramaydi. Shu o‘rinda qayd etish joiz, maqolada komissarlikning boshlig‘i tomonidan ichki ishlar komissarligiga o‘sha davr talabi va nuqtai nazaridan baho beriladi.

O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi tomonidan 1927 yil 31 martda qabul qilingan “O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi”da davlat boshqaruv organlari, ijroiya hokimiyatlari va ularning huquqiy maqomi belgilab berildi⁶¹. Konstitutsiyaning 6 bo‘limi 41 moddasida “O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti ijroiya va taqsimlash organi bo‘lgan O‘zbekiston SSR Xalq komissarlari sovetini O‘zbekiston SSRda umumiy boshqaruvni va alohida sohalarni boshqaruvchi komissarliklar ustidan rahbarlikni amalga oshirish uchun tashkil etadi” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, konstitutsiyaning shu bo‘limi 42 moddasida O‘zbekiston SSR Xalq komissarlari sovetiga tarkibiga kiritilgan 13 ta komissarlik va boshqarmalar ichida Ichki ishlar xalq komissarligi ham keltiriladi⁶². Ushbu konstitutsiyaning 49 moddasida XKS tarkibidagi komissarliklar 2 ga, ya’ni a) birlashgan va b) birlashmagan komissarliklarga bo‘linadi. Bunda birlashgan

⁶⁰ Рахмат Рафик. Ўзбекистоннинг Ички ишлар комиссарлиги ва унинг Шўро тузилишидаги усули. / Қизил Ўзбекистон, 1925 йил 22 апрель, 108-сон.

⁶¹ Конституция (основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. Самарканд: Издание Юридического Издательства СНК. 1927.

⁶² Конституция (основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. Самарканд: Издание Юридического Издательства СНК. 1927. - С. 8.

komissarliklar O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti va Xalq komissarlari sovetiga bo‘ysunib, o‘z faoliyati davomida SSSRda (ittifoq miqyosida) mavjud bo‘lgan shu nomdagi tegishli komissarliklarning direktiva va ko‘rsatmalarini bajarishi belgilab berilgan. Birlashmagan komissarliklar esa faqat O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti va Xalq komissarlari sovetiga bo‘ysungan. 50 moddada ko‘rsatilishicha, birlashgan komissarliklar tarkibiga: Xalq xo‘jaligi oliy soveti, Savdo xalq komissarligi, Mehnat xalq komissarligi, Moliya xalq komissarligi, Ishchi-dehqon inspeksiyasi va Markaziy statistika boshqarmasi kiritilgan bo‘lsa, 51 moddada keltirilishicha, birlashmagan komissarliklar tarkibiga: Ichki ishlar xalq komissarligi, Adliya xalq komissarligi, Maorif xalq komissarligi, sog‘liqni saqlash xalq komissarligi, Ijtimoiy ta‘minot xalq komissarligi, Er ishlari xalq komissarligi va Suv xo‘jaligi boshqarmasi kiritilgan.

Shu tariqa davlat boshqaruvi tizimining asosini tashkil etgan eng muhim hujjat “O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi”da ichki ishlar idoralarining davlat boshqaruvidagi o‘rni va huquqiy maqomi belgilab berildi.

1926 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston SSR IIXK tomonidan jinoyat qidiruv va militsiya organlarining faoliyati samadorligini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Unda “Barcha viloyat ma‘muriy bo‘lim boshliqlariga jinoyat qidiruv va militsiya bo‘limlarini birlashtirib, unga militsiya bo‘limi boshlig‘ini rahbar etib tayinlash vazifasi yuklatildi. Shuningdek, militsiya boshlig‘iga 1 oktyabrdan (1926 yil nazarda tutilmoqda) viloyat jinoyat qidiruv bo‘limi, Ishchi-dehqon inspeksiyasi va Davlat siyosiy boshqarmasi boshliqlari ishtirokida (maxsus komissiya) barcha jinoiy ishlar va boshqa mol-mulklarni qabul qilib olish va bitta binoga joylashtirish” mas‘uliyati belgilandi⁶³.

Mazkur buyruqning 2 bandida viloyatlarga tayinlangan militsiya boshliqlarining ro‘yxati ham keltirildi:

Samarqand viloyatigaSalomboev

Toshkent viloyatigaAksen

Farg‘ona viloyatigaAlim-Xodjaev

⁶³ Андижон ВДА, 46-фонд, 1-рўйхат, 126-иш, 79-варақ.

Zarafshon viloyatiga	Raximov
Qashqadaryo viloyatiga	Musadyarov
Surxondaryo viloyatiga	Raxim-Baev
Xorazm viloyatiga	Karpov
Kenimex rayoniga	Vislov

Shu tariqa respublika miqyosida ichki ishlar organlarining qayta tashkil etilishi jarayonida viloyat militsiya boshshliqlari lavozimi ham yangi kadrlarga almashtirildi.

Garchi ichki ishlar idoralarini qayta tashkil etish va faoliyatini takomillashtirish masalasida tegishli huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, 1925-1926 yillarda joylarda ularni tuzish va faoliyatini yo'lga qo'yishda bir qator muammolarga duch kelinganligi arxiv hujjatlarida keltiriladi⁶⁴. Xususan eng muhim vazifa tartib-intizomni mustahkamlash va jinoyatni oldini olishda barcha militsiya bo'limlari va ayniqsa jinoyat qidiruv bo'limlarida malakali kadrlarning etishmasligi, (Farg'ona viloyati, Xorazm viloyati⁶⁵, Qashqadaryo viloyati⁶⁶, Qoraqalpog'iston hududlarida (90% ma'lumotsiz)⁶⁷ va b.) ayrim rayonlarda bitta ham jinoyat qidiruv inspektorlarining bo'lmaganligi, ijtimoiy ta'minotdagi uzilishlar⁶⁸ harajatlarga mablag' etishmasligi⁶⁹ (aloqa o'rnatishda pochta-telegrafdan foydalanish uchun va b.), bo'limlar hatto to'ldirish uchun belgilangan blankalar bilan ta'minlanmaganligi, viloyatlarda pasport stollari va manzil byurolarining (shuningdek, ularning faoliyatiga oid yo'riqnomalar ishlab chiqilmaganligi) yo'qligi⁷⁰ va boshqa tashkiliy masalalar bilan izohlanadi⁷¹. Buning oqibatida respublikaning ayrim viloyatlarida (Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich juda past) jinoyatlarni fosh etish darajasi 38 % gacha⁷² tushib ketish holatlari kuzatilgan. Qo'qon shahrida esa fuqarolarning arizalarini ro'yxat olish kitobida ko'rsatilgan 64

⁶⁴ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 2151-иш, 382-385-варақлар.

⁶⁵ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3192-иш, 478-варақ.

⁶⁶ Фарғона ВДА, 328-фонд, 1-рўйхат, 290-иш, 3-варақ.

⁶⁷ Таумуратов Н. История милиции Каракалпакистана в период восстановления национальной государственности (1917-1936гг.). Дисс. ... канд. ист. наук. - Нукус, 1999. - С. 107.

⁶⁸ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 152-153-варақлар.

⁶⁹ Петров Г. Қизил милициямизнинг 8 йиллиги. / Қизил Ўзбекистон, 1926 йил 28 февраль, 49-сон.

⁷⁰ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 20-иш, 68-варақ.

⁷¹ Фарғона ВДА, 328-фонд, 1-рўйхат, 105-иш, 4-6-варақлар.

⁷² Фарғона ВДА, 328-фонд, 1-рўйхат, 290-иш, 5-6-варақлар.

ta jinoiy ishdan bor-yo‘g‘i 7 tasi fosh etilgani O‘zbekiston SSR Adliya vazirligiga Farg‘ona viloyat prokurori tomonidan topshirilgan hisobotlarda keltiriladi⁷³.

O‘zbekiston SSR IXX kollegiyasining yig‘ilishida (1926 yil 2 martda) muhokama etilgan masalalar doirasida ham militsiya faoliyatiga oid bir qator jiddiy kamchiliklar ko‘rsatiladi. Kollegiyada Zarafshon viloyati ijroiya komiteti ma‘muriy bo‘lim boshlig‘i (Mukamilov) viloyat ichki ishlar idoralarining tuzilishi va faoliyati to‘g‘risida ma‘ruza qilib, unda “Buxoroda jinoyatning turli ko‘rinishlari avj olganligi, fevral oyining o‘zida 40 dan ortiq uyushgan jinoyatchilik, banditlik va o‘g‘rilik holatlari ro‘yxatga olingani, ...bu jarayonda kadrlar etishmasligi birlamchi muammo sifatida” – ta’kidlanadi⁷⁴.

Ma‘lumotlarda ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston SSRda faoliyat yuritgan militsiya organlarining umumiy soni 3555 tani tashkil etib, ular uch turga bo‘lingan (1926 yil avgust oyi holatiga):

1. Davlat militsiyasi – 2401 nafar (mahalliy byudjet hisobida).
2. Mahkama militsiyasi – 829 ta (shartnoma asosida tashkilot va muassasalar hisobidan ta‘minlangan).
3. Ko‘ngilli militsiya – 325 ta (davlat byudjeti hisobida)⁷⁵.

SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, Ko‘ngilli militsiya otryadlaridan asosan sovet tuzumiga qarshi ko‘tarilgan qurolli harakatlarni bostirishda foydalanilgan⁷⁶.

Bu davrdagi militsiya organlarining faoliyati davomida unga yuklatilgan vazifalar ko‘lami doimiy ravishda kengayib borgan. Ichki ishlar idoralarining soliq organlari bilan hamkorlikdagi faoliyati O‘zbekiston SSR IXX (Mavlonbekov) va Moliya Xalq Komissarilari (Po‘latov) tomonidan 1926 yil 27 noyabrda tasdiqlangan “Militsiya organlarining soliq nazorati organlariga yordam berish majburiyatlari to‘g‘risidagi qoidalar”da⁷⁷ belgilab berildi. Mazkur qoida 8 banddan iborat bo‘lib, unda “militsiya organlarining soliq inspektorlariga Xalq xo‘jaligi tashkilotlari va

⁷³ ЎзР МДА, 904-фонд, 8-рўйхат, 27-иш, 59-варақ.

⁷⁴ ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 751-иш, 27-28-варақлар.

⁷⁵ ЎзР ПДА, 58-фонд, 3-рўйхат, 755-иш, 101-варақ.

⁷⁶ Бу ҳақда батафсил қаранг. Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва ишчи-декон инспекцияси 1917-1924 йилларда). - Тошкент: Абу-магбуот консалт, 2007.

⁷⁷ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3239-иш, 33-варақ.

soliqqa tortilgan boshqa tashkilot hamda muassasalarda (savdo shoxobchalari, maishiy xizmat tarmoqlari va boshqalar), patentlarni tekshirish va taftishlar o'tkazishda ishtirok etish (kuzatib borish), militsiya xodimlari tomonidan soliq tizimini buzilishi bilan bog'liq aniqlangan kamchiliklar haqida soliq inspektorlarini xabardor qilish, soliq inspektorining yozma talabiga asosan belgilangan talablarni bajarmagan sanoat korxonalari, savdo-sotiq shoxobchalari va soliqqa tortilgan boshqa tegishli tashkilotlarni yopish va ular ustidan nazorat olib borish (bu jarayonda belgilangan tartibda bayonnoma tuzib soliq inspektorini xabardor qilish talab etiladi), tashkilotlar tomonidan soliq bilan bog'liq muammolar hal etilganligi to'g'risida tegishli hujjatlar taqdim etilganidan so'ng ularning keyingi faoliyatiga ruxsat berish, soliq inspektorlari tomonidan taftish jarayonida noqonuniy maxsulotlarni tortib olishda qatnashish, zarur hollarda ularni vaqtincha saqlash uchun qabul qilish⁷⁸ kabi majburiyatlar yuklatildi.

1926 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlari jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari ham bevosita ishtirok etgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston IIKK tomonidan (7.12.1926 yilda) barcha viloyat militsiya boshqarmalariga "17 dekabrda o'tkazilishi rejalashtirilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida etish zarurligi"⁷⁹ ko'rsatilib, bunda jamoat joylarida tartib-intizomni kuchaytirish, aholi ro'yxatga olinadigan joylarni (klublar, qizil choyxonalar va b.) tashkil etish va ro'yxat ma'lumotnomalarini qo'riqlash vazifalari yuklatildi.

Bu jarayonning uzviy davomi sifatida 1926 yil 12 dekabrda O'zbekiston SSR IIKK tomonidan "O'zbekiston hududida yashayotgan chet elliklarni qayta ro'yxatga olish to'g'risida"⁸⁰ farmoyish e'lon qilindi. Unga ko'ra respublika miqyosida har bir viloyat, okrug, shahar, rayon ichki ishlar idoralari, shuningdek, hududlardagi tegishli militsiya bo'limlariga mazkur farmoyishni ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatildi. 1927 yil 15 martda ushbu farmoyish bajarilishining dastlabki natijalari tahlil qilindi. Uni bajarishda ko'zlangan maqsadlarga erishilmagandan so'ng, ichki ishlar xodimlari 5 apreldan 5 maygacha hamma shahar va qishloqlardagi aholi

⁷⁸ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3239-иш, 33-33-варақнинг орқаси.

⁷⁹ Андижон ВДА, 46-фонд, 1-рўйхат, 126-иш, 79-варақ.

⁸⁰ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 5-варақ.

punktlarida yashovchi shaxslarning uy daftarlarini birma-bir tekshiruvdan o'tkazishga safarbar etildi. Ular uy-joy boshqarmalaridan, uy egalaridan hamda qishloq soveti raislaridan so'ragan holda ro'yxatdan o'tishdan bosh tortayotgan horijiy fuqarolarni aniqlashlari, ularning pasport va guvohnomalarini tekshirib ko'rish uchun olishlari zarur edi⁸¹. Militsiya organlarining olib borgan faoliyati natijasida O'zbekiston SSR hududida (1928 yil 1 yanvar holatida topshirilgan hisobotida keltirilshicha) 3548 nafar chet elliklar (yoki o'zlarini chet ellik deb hisoblaydiganlar) yashayotgani aniqlandi. Ma'lumotlarda ulardan eng ko'plari forslar – 1505 nafar, afg'onlar – 594 nafar, xitoyliklar – 438 nafar ekanligi ko'rsatildi⁸². SHu o'rinda ta'kidlash joizki, keyingi yillarda ham chet elga chiqish, chet elliklarning ittifoq hududiga kirishi, ularni ro'yxatga olish va bu jarayonlar bilan bog'liq masalalar yuzasidan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindiki⁸³, uning ijrosini ta'minlanishida ham ichki ishlar idoralari faol ishtirok etdi⁸⁴.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda militsiya organlariga yuklatilgan vazifalar hajmi doimiy ravishda ortib borgan. 1925 yil 1 oktyabrda O'zbekiston hududlarida militsiya xodimlari 2971 nafarni tashkil etgan bo'lsa⁸⁵, 1927 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada umumiy 2468 nafar xodim militsiya tarkibida faoliyat yuritgan. Ular viloyatlar kesimida: Zarafshon viloyatida – 174 nafar, Farg'ona viloyatida – 543 nafar, Samarqand viloyatida – 395 nafar, Surxondaryo viloyatida – 170 nafar, Qashqadaryo viloyatida – 240 nafar, Xorazm viloyatida – 302 nafar, Toshkent viloyatida – 593 nafar, Kenimex rayonida – 38 nafarni tashkil etgan⁸⁶.

Bu paytda IXXKning ko'rsatmasiga asosan viloyatlarda o'tkazilgan (1927 yil iyul-sentyabr oylarida) tekshiruvlar natijasida militsiya va jinoyat qidiruv bo'limi tarkibidagi bir qator boshqaruv apparatidagi xodimlardan tortib oddiy

⁸¹ Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарканд; Суғдиён, 1998. - Б. 19.

⁸² ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 4-варақ.

⁸³ 1927 йил 27 апрелда “Чет элликларни СССР фукаролигига қабул қилиш тўғрисида”, 1927 йил 4 июлда “СССР фукараларини чет элга чиқиши учун паспортлар ва чет эл фукараларига давлатга кириш учун рухсатномалар бериш тартиби тўғрисидаги” йўриқномалар қабул қилинди.

⁸⁴ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 8-варақ.

⁸⁵ ЎзР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 18с-иш, 427-варақ.

⁸⁶ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 17-иш, 1-варақ.

inspektorlargacha o'z lavozimlaridan bo'shatildi⁸⁷. Jumladan birgina Farg'ona viloyatida militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarida faoliyat yuritgan 320 ta xodimdan komissiya xulosasi asosiga ko'ra 68 tasi ishdan bo'shatilgan⁸⁸.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, viloyat militsiya boshqarmalaridan respublika markaziy apparatiga topshirilgan hisobotlarda ham joylarda davlat va fuqarolarning mulkini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida bir qator muammolar mavjudligi keltiriladi. Ayrim hujjatlarda O'rta Osiyoga Rossiyaning turli hududlaridan katta hajmda jinoyatchi unsurlarning kelayotgani, ular tomonidan og'ir jinoyatlar sodir etilayotgani ko'rsatilsa, ko'plab ma'lumotlarda militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarining shaxsiy tarkibidagi muammolar, kadrlarning etishmasligi, shtat kamligi bilan izohlanadi. Masalan, Andijon uezdi bo'yicha 137 nafar⁸⁹ (1926 yilda) militsiya xodimi, Xorazm viloyati bo'yicha 309 nafar xodim⁹⁰ (1926 yilda) Andijon uezdi militsiya boshqarmasi shtat birligi 17 nafardan (1927 yilda)⁹¹, Andijon shahar militsiyasi shtat birligi 41 nafardan, Namangan shahar militsiyasi shtat birligi 38 nafardan (1928 yil iyun oyi holatiga)⁹² iborat bo'lgan bo'lsa, Farg'ona okrugida shtat belgilangan asosida 431 ta xodim xizmat qilgan bo'lsa (1927 yil oktyabr oyida)⁹³, Farg'ona shahrida (1928 yilda) shtat bo'yicha bor-yo'g'i 17 ta xodim faoliyat yuritib, ulardan 5 tasi devonxonada ishlagan⁹⁴, bu paytda Surxondaryo okrugi bo'yicha atigi 199 nafar xodim (1928 yil yanvar holatiga) faoliyat yuritgan⁹⁵.

1927 yil 3 martda O'zbekiston SSR XKS tomonidan harbiy majburiyatni o'tab bo'lgan fuqarolar va harbiy xizmatni tugatgan xodimlar hamda harbiy chaqiruvga layoqatli fuqarolarni ro'yxatga olish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnoma qabul qilindi. Yo'riqnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish uchun davlat tashkilotlari qatorida ichki ishlar organlariga ham tegishli vazifalar yuklatildi. Mazkur

⁸⁷ ЎзР МДА, 904-фонд, 8-рўйхат, 27-иш, 55-варақ.

⁸⁸ ЎзР МДА, 904-фонд, 8-рўйхат, 27-иш, 59-варақ.

⁸⁹ Андижон ВДА, 46-фонд, 1-рўйхат, 126-иш, 78-78-варақнинг орқаси.

⁹⁰ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3192-иш, 479-варақ.

⁹¹ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 20-иш, 64-варақ.

⁹² ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 57-иш, 19-20-варақлар.

⁹³ Фарғона ВДА, 36-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 40-варақ.

⁹⁴ Фарғона ВДА, 324-фонд, 2-рўйхат, 3-иш, 613-613-варақнинг орқаси.

⁹⁵ Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарқанд; Суғдиён, 1998. - Б. 29.

yo‘riqnomaning ikkinchi bo‘limida militsiya organlarining maxsus majburiyatlari belgilab berildi: a) militsiya xodimlari harbiy chaqiruvga majbur bo‘lgan va chaqiruvdan ozod qilingan (diniy tasavvurlari nuqtai nazaridan) fuqarolarni 2 oy ichida, ro‘yxatga olish, zahiradagi ofitserlarni esa 6 oyga doimiy ro‘yxatga qo‘yishi kerakligi; b) doimiy yashash joyi o‘zgartirilganda 2 oy ichida tegishli harbiy bo‘limdan ro‘yxatdan o‘tmagan fuqarolarga jinoiy tartibda javobgarlikka tortilishi mumkinligini ogohlantirish; v) belgilangan tartibda harbiy ro‘yxatdan o‘chish va ro‘yxatga qo‘yish qoidalariga rioya qilmagan fuqarolarga nisbatan bayonnoma tuzish va bu haqda mahalliy ro‘yxatga olish organlarini xabardor qilish; g) harbiy chaqiruvga majbur bo‘lgan fuqarolarni doimiy turar joyidan harbiy xizmatga ro‘yxatdan o‘tmaganligi aniqlanganda, ularni 6 kun ichida ro‘yxatdan o‘tishi kerakligi to‘g‘risida ogohlantirib, o‘rnatilgan tartibda bayonnoma tuzish va tegishli organlarni ogohlantirish⁹⁶ va boshqalar.

1927 yil mart oyida SSSR KP(b) Markaziy Komiteti huzuridagi “Sovet davlat apparatini mustahkamlash komissiyasi” tomonidan IIXK faoliyatini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tekshiruvlar natijasida, joylarda IIXKning faoliyatini yanada takomillashtirish uchun uni markaziy apparatga bo‘ysundirish zarurligi to‘g‘risida taklif ishlab chiqildi. Unda “IIXKni tugatish, uning o‘rniga XKS huzurida faoliyat yuritadigan Markaziy ma‘muriy boshqarma tuzish, IIXKga yuklatilgan ayrim vazifalarni boshqa komissarliklar, boshqarmalar va hududiy ijroiya komitetlariga o‘tkazish kerakligi” ko‘rsatildi. Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekiston SSR XKS tomonidan 1927 yil 16 aprelda tasdiqlandi. Natijada O‘zbekiston SSR XKS huzurida Markaziy ma‘muriy boshqarma ta‘sis etilib, boshqarma quyidagi: 1) Markaziy ma‘muriy boshqarma boshlig‘i, 2) boshliq o‘rinbosari, 3) ma‘muriy nazorat va FXDYO bo‘limi, 4) qamoqxonalar inspektori, 5) militsiya inspektori, 6) jinoyat qidiruv inspektori, 7) daktoloskopik – ro‘yxat byurosi boshlig‘i, 8) markaziy ma‘muriy boshqarma kotibi, 9) 2 nafar statistlardan tashkil topgan umumiy 10 ta shtatdan iborat strukturaga ega bo‘ldi⁹⁷.

⁹⁶ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 7-иш, 18-варақ.

⁹⁷ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 147-148-варақлар.

Shu tariqa 1927 yil mayda O‘zbekiston SSRda IIXK tugatilib, uning bazasida jamoat tartibini saqlash, jinoyatni oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurash va boshqa masalalar bilan shug‘ullanuvchi O‘zbekiston SSR XKS huzuridagi Markaziy ma‘muriy boshqarma faoliyatini boshladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tashkilotlarda amalga oshirilgan bunday o‘zgarishlar davlat byudjeti sarf-harajatlari kamaytirishga qaratilgan tadbir sifatida izohlandi va tegishli raqam hamda hisob-kitoblar asosida o‘sha davr hujjatlarida ko‘rsatib berildi⁹⁸. Ma’lumotlarda keltirilishicha, Markaziy ma‘muriy boshqarmaning taklifiga binoan respublikaning ayrim joylarida (asosan chegara hududlarida jinoiy unsurlarning faollashuvi va vaziyatning keskinlashuvi oqibatida) ko‘ngilli militsiya otryadlari tashkil etilib, O‘zbekiston SSR XKS tomonidan ularga mablag‘ ajratilishi yo‘lga qo‘yildi⁹⁹.

1927 yil 15 noyabrda O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti tomonidan “Amnistiya berish to‘g‘risida”gi farmon e‘lon qilindi. Farmonga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha 1258 ta shaxs qamoqxonalardan, 510 nafar shaxs majburiy mehnatdan ozod qilindi¹⁰⁰. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning keyingi faoliyatini nazorat qilish ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, tahlil etilayotgan yillarda militsiya xodimlari tomonidan bu ishlarni amalga oshirish ham oson kechmadi.

1927 yil 28 noyabrda O‘zbekiston SSR MIK va XKS tomonidan “XKS huzuridagi Markaziy ma‘muriy boshqarmaning vazifa va vakolatlari to‘g‘risida”¹⁰¹gi qaror qabul qilindi. Unda mazkur boshqarmaga quyidagi asosiy vazifa va vakolatlari belgilab berildi: markaziy va joylardagi hokimiyat organlari tomonidan yuqori davlat tashkilotlarining buyruq, qaror, farmon va farmoyishlarini ijrosi ta‘minlanishini nazorat qilish; ma‘muriy xarakterga ega bo‘lgan masalalar

⁹⁸ ЎЗР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 149-варақ. Хужжатда (такқослаш учун) 1926-1927 бюджет йилида Ўзбекистон ССР ИИХКга сарф-харажатлар учун 158.614 рубль ажратилган бўлса, Ўзбекистон ССР ХКС хузуридаги Марказий маъмурий бошқармаси ички аппаратиغا 55.083 рубль ажратилгани кўрсатилган.

⁹⁹ ЎЗР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 9-иш, 164-варақ.

¹⁰⁰ Россия Федерацияси Давлат Архиви, 3316-фонд, 20-рўйхат, 301-иш, 98-варақ. Маълумотлар Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича мувофиқлаштирувчи-методик марказ архиви фондидан олинган.

¹⁰¹ ЎЗР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 41-иш, 156-варақ.

yuzasidan O‘zbekiston SSR Davlat siyosiy boshqarmasi va MIK Prezidiumiga takliflar kiritish; mahalliy hokimiyat organlarini jamoat tartibini saqlash va aholini xavfsizligi ta‘minlash borasida olib borayotgan faoliyatini tashkil etish va boshqarish, fuqarolar nikohini qayd etish ishlarini nazorat qilish hamda boshqa ma‘muriy vazifalar yuklatildi. Bu jarayonda mahalliy hokimiyat organlari ustidan tushgan arizalarni ko‘rib chiqish va tegishli xulosa tayyorlash (bunda mahalliy davlat tashkilotlari rahbarlari, militsiya organlari hamda jinoyat qidiruv bo‘limlari boshliqlari nazarda tutilmoqda), okrug, shahar, rayon militsiya rahbarlari, hatto Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Buxoro singari yirik shaharlarning militsiya boshliqlarini, shuningdek, qamoqxona va ahloq tuzatish koloniyalarining inspektorlarini tayinlash va boshqa vakolatlarga ega bo‘lgan¹⁰².

Nizomning IV bandida ko‘rsatilishicha, “XKS huzuridagi Markaziy-ma‘muriy boshqarmaning militsiya va jinoyat qidiruv inspeksiyasi respublikadagi ichki ishlar idoralari ustidan umumiy nazoratni amalga oshirib, jamiyatda tartib-intizomni o‘rnatish, militsiya organlarining jinoyatga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini doimiy tahlil qilish, fuqarolarning shaxsiy mulkini qo‘riqlash, militsiya va jinoyat qidiruv bo‘limlarining faoliyati yuzasidan Davlat siyosiy boshqarmasiga o‘rnatilgan tartibda hisobotlar topshirish, joylarda mahkama militsiya bo‘limlarini tuzish va nazorat qilish, respublika miqyosida ichki ishlar idoralariga tegishli o‘quv yurtlarini nazorat qilish va boshqa ishlarni olib boradi¹⁰³” – deb ko‘rsatilgan.

1927 yil 28 dekabrda O‘zbekiston SSR XKS huzuridagi Markaziy ma‘muriy boshqarma va militsiya boshlig‘i tomonidan “Shahardagi rayon militsiya boshliqlari va yordamchilarining huquq va majburiyatlari haqidagi yo‘riqnoma”¹⁰⁴ tasdiqlandi. 14 paragrafdan iborat bo‘lgan mazkur ko‘rsatmada ularning faoliyati bilan bog‘liq barcha jihatlar belgilab berildi. Unda militsiya boshliqlari hukumat tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy-normativ hujjatlarni, qaror, farmon va farmoyishlarni yaxshi bilishi hamda ularning ijrosini ta‘minlashda faol ishtirok etishi kerakligi, o‘zining va xizmatdagi xodimlarning huquqi, vakolati va majburiyatlarini bilishi hamda uning

¹⁰² ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 41-иш, 157-158-варақлар.

¹⁰³ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 41-иш, 160-161-варақлар.

¹⁰⁴ Фарғона ВДА, 36-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 252-257-варақлар.

ta'minlashini nazorat qilib borishi asosiy vazifasi ekanligini unutmashligi, o'ziga birlashtirilgan hududni puxta bilishi (korxonalar va tashkilotlarning joylashuvi, jinoiy unsurlarning yig'ilish joylari va b.), shaxsiy tarkibning holatini doimiy tahlil etib borishi zarurligi va faoliyatiga oid boshqa jihatlar belgilab berildi (ko'rsatmada rayon militsiya boshliqlari yordamchilarining huquq va majburiyatlari ham belgilab berilgan edi).

O'zbekiston SSR XKS huzuridagi Markaziy ma'muriy boshqarmaning militsiya va jinoyat qidiruv bo'limi yo'nalishi va soni bo'yicha quyidagi mahalliy organlardan iborat bo'lgan:

- 1) Okrug militsiya va jinoyat qidiruv bo'limida10 ta
- 2) Rayon militsiya va jinoyat qidiruv bo'limida87 ta
- 3) Shahar militsiya va jinoyat qidiruv bo'limida11 ta
- 4) Shahar rayonlaridagi militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarida.....30 ta
- 5) Rayonlardagi jinoyat qidiruv agentlari86 ta
- 6) Okrug militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarining ro'yxat byurosi.....7 ta¹⁰⁵

Biroq militsiya organlari tizimidagi bunday qayta qurish uzoq davom etmay, 1928 yilning oktyabrida Ichki ishlar xalq komissarligi qayta tashkil etilgan bo'lsa¹⁰⁶, Butun Rossiya MIK va XKS tomonidan chiqarilgan qarorga muvofiq 1930 yil 31 dekabrda IIXK faoliyati to'xtatiladi¹⁰⁷. Bu o'zgarishlar natijasida militsiya boshqarmasi mavjud shtati bilan birga XKS tasarrufiga o'tkazilib, viloyat, shahar va tumanlardagi militsiya bo'limlari esa tegishli xudud ijroiya komitetlariga bo'ysundirildi.

1931 yil 25 mayda birinchi marta SSSR XKS tomonidan Ishchi-dehqon militsiyasi haqida Nizom ishlab chiqilib tasdiqlandi¹⁰⁸. Ushbu Nizomning

¹⁰⁵ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-руйхат, 9-иш, 161-варак.

¹⁰⁶ Жалилов Т.А., Ҳолимов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983. -Б.14.

¹⁰⁷ МВД России. Энциклопедия. Науч. ред., В.Ф.Некрасов. - Москва: Объединенная редакция МВД России, Издательский дом «ОЛМА ПРЕСС», 2002. - С.16.

¹⁰⁸ Сборник законов 1931 г. № 33, ст.247. Войтенков.Е.А. Деятельность органов внутренних дел по противодействию преступлениям и правонарушениям на автотранспорте и обеспечению дорожного движения в СССР (1917-1941 гг.): историко-правовой обзор. // История государства и права. 2013, № 20. - С.51.

sakkizinchi bandiga asosan¹⁰⁹ O‘zbekiston SSR XKSning 1932 yil 3 aprelda o‘tkazilgan yig‘ilishda “O‘zbekiston SSR XKS huzuridagi ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom”¹¹⁰ tasdiqlandi va shu kundan muomalaga kiritildi. Ushbu nizom umumiy talablar, ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasining vazifa hamda huquqlari kabi bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Umumiy talablarda “Ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasining jamoat tartibini saqlash va inqilobiy hukumatni himoya qilishda hamda fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, mulkiy dahlsizligi va ularning haq-huquqini muhofaza qilishda militsiya organlariga rahbarlikni amalga oshiradi” – deb ko‘rsatilgan¹¹¹.

Nizomda ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasiga militsiya organlarini tashkil etish borasida quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan: militsiya organlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish; o‘rnatilgan tartibda ishchi-dehqon militsiyasi strukturasi va shtatlarini tasdiqlash; ishchi-dehqon militsiyasida siyosiy apparatni tashkil etish va faoliyatini boshqarish; mahkama militsiya bo‘limlari faoliyatini boshqarish, davlat tashkilotlari, sanoat korxonalari hamda boshqa tashkilotlar bilan qo‘riqlash xizmati yuzasidan shartnoma imzolash va ijrosini ta‘minlash; ko‘ngilli militsiya otryadlarini tuzish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, va boshqalar.

Hujjatda jinoyatga qarshi kurashish masalasida ham ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasiga bir qator vazifalar belgilangan: jinoyatlarni sodir etilishi sabablarini o‘rganish va tahlil qilib borish; jinoyatlarni bartaraf etish borasida amaliy chora-tadbirlar o‘tkazish; jinoyatga qarshi kurashish borasida ilmiy-texnik usullar ishlab chiqish, ekspertiza o‘tkazish hamda joriy etish;

Ichki ishlar idoralarining kadrlari bilan bog‘liq masalalarda ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan: militsiya organlari kadrlarini tanlash, taqsimlash va joylarda ularning faoliyatini nazorat qilish; militsiya shaxsiy tarkibini tayyorlash va qayta tayyorlash uchun rejalar ishlab chiqish; militsiya bosh boshqarmasi va joylardagi militsiya organlari tasarrufida

¹⁰⁹ Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987. - С.141.

¹¹⁰ ЎзР МДА, 837-фонд, 10-рўйхат, 38-иш, 129-варақ.

¹¹¹ ЎзР МДА, 837-фонд, 10-рўйхат, 1086-иш, 30-варақ.

bo‘lgan o‘quv maskanlarni kadrlar bilan to‘ldirish; o‘quv yurtlari faoliyatini metodik-dasturlarda belgilangan tartibda boshqarish; o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqish¹¹²;

Ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi yuklatilgan vazifalarni bajarishi doirasida quyidagi huquqlarga ega bo‘lgan: a) O‘zbekiston SSR XKSga militsiya faoliyatiga tegishli va militsiya manfaatlarini ifoda etuvchi qaror loyihalarini ishlab chiqish va taqdim etish; b) militsiya faoliyatiga oid ustav, nizom, buyruq va yo‘riqnomalarni qabul qilish; v) militsiya kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash uchun o‘quv yurtlarini tashkil etish; g) o‘rnatilgan tartibda militsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan to‘plamlar, ma’lumotnomalar, va boshqa nashriy materiallar chop etish; d) mahalliy militsiya organlari qarorlari va lavozimdagi shaxslar hatti-harakatlari yuzasidan tushgan da’vo arizalarini ko‘rib chiqish va o‘rnatilgan tartibda chora ko‘rish; e) mahalliy militsiya organlarining qarorlarini to‘xtatish, o‘zgartirish va bekor qilish; j) ishchi-dehqon militsiyasi faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha s‘ezdlar chaqirish va boshqalar¹¹³. Shuningdek, ushbu nizomda militsiya organlarining yo‘llarda tartib o‘rnatish va xavfsizlikni ta’minlash borasida quyidagi vazifalar belgilab berildi: yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish, tramvay, avtobus va boshqa jamoa transportlaridan foydalanish qoidalarini buzilishi holatlarini oldini olish hamda bu jarayonda sodir etilgan qoidabuzarliklarga nisbatan tegishli choralarlar ko‘rish¹¹⁴.

Ushbu nizom asosida 1931 yil 30 sentyabrda O‘zbekiston SSR Oliy sudi va Adliya xalq komissarligining “Militsiya xodimlarining ayblov ishlari bo‘yicha sudlov jarayoni to‘g‘risida”gi yo‘riqnama qabul qilindi. Unda Ishchi-dehqon militsiyasi xodimlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ikki kategoriyaga ajratildi: a) birinchi kategoriyadagi jinoiy ishlarga tezkor va ma’muriy-xo‘jalik tarkibidagi militsiya xodimlari tomonidan o‘rnatilgan tartibdagi xizmat qoidalariga rioya qilmaslik yoki qarshi chiqish holatlari kiritildi. Bunday jinoiy ishlar harbiy

¹¹² ЎзР МДА, 837-фонд, 10-рўйхат, 38-иш, 131-варак.

¹¹³ ЎзР МДА, 837-фонд, 10-рўйхат, 1086-иш, 33-варак.

¹¹⁴ Войтенков.Е.А. Деятельность органов внутренних дел по противодействию преступлениям и правонарушениям на автотранспорте и обеспечению дорожного движения в СССР (1917-1941 гг.): историко-правовой обзор. // История государства и права. 2013, № 20. - С.51.

jinoyat hisoblanib, ular Harbiy Tribunalda ko‘rib chiqilishi belgilangan. Bu kategoriyaga militsiya organlarining boshqaruv tizimidagi lavozimiy jinoyatlar ham kiritilgan¹¹⁵. b) ikkinchi kategoriyaga tezkor va ma‘muriy-xo‘jalik tizimida faoliyat yuritayotgan militsiya xodimlari tomonidan sodir etiladigan boshqa turdagi jinoiy ishlar kiritilib, bu jinoiy ishlar jinoyatning tarkibi, holati va xarakteriga qarab tegishli hududiy Xalq sudlari yoki Oliy sudda ko‘rib chiqilishi mumkinligi ko‘rsatildi¹¹⁶.

1932 yil 27 dekabrda SSSR MIK va XKSning 1918-sonli farmoyishiga asosan Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) huzurida Ishchi–dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi tuzilib (boshqarma boshlig‘i etib G.E.Prokofev, o‘rinbosarlari sifatida D.V.Usov va S.N.Markaryanlar tayinlandi)¹¹⁷, uning tarkibida jinoyat qidiruv boshqarmasi ham tashkil etildi¹¹⁸.

1934 yilda 10 iyulda esa IIXK qayta tashkil etilib, Militsiya Bosh boshqarmasi (boshlig‘i L.N.Belskiy bo‘lgan) unga bo‘ysundirildi¹¹⁹.

1936 yilning 3 martda ichki ishlar idoralari tarkibida Davlat avtomobil inspeksiyasi xizmati tashkil etildi¹²⁰ va o‘sha yilning 3 iyulida Davlat avtomobil inspeksiyasining Nizomi tasdiqlanib, amalda tatbiq etildi. Nizomda Davlat avtomobil inspeksiya xodimlariga yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va nazorat qilish bilan birgalikda, yo‘llarda sodir etilayotgan avariylarni tahlil qilish, ularga qarshi kurashish va oldini olish, yo‘l transport hodisalarini sodir etganlarga nisbatan tegishli chora ko‘rish, avtotransportlardan foydalanishning texnik normalarini ishlab chiqish, shoferlarni tayyorlash jarayonini nazorat qilish, avtomobil parklarini hisobini olish, avtotransportlarga texnik pasport va raqamlari belgilarini berish, ularni doimiy ravishda texnik ko‘rikdan o‘tkazish vazifalari ham belgilandi.

¹¹⁵ ЎзР МДА, 904-фонд, 9-рўйхат, 75-иш, 103-варак.

¹¹⁶ ЎзР МДА, 904-фонд, 9-рўйхат, 75-иш, 104-105-вараклар.

¹¹⁷ Лубянка: Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1991. Справочник. Под. ред. акад. А.Н.Яковлева: авторы - сост.: А.И. Кокурин, Н.В.Петров. Москва: МФД, 2003. - С.56; Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Масъул муҳаррир: Ҳ.Б.Бобоев. -Тошкент: ТДЮИ нашриёти. 2005. - Б.170.

¹¹⁸ Карпец И. (генерал-лейтенант милиции, начальник Главного управления уголовного розыска МВД СССР). Как требует партия. // Советская милиция, №.9, 1978. - С. 25.

¹¹⁹ Петров Н.В., Скоркин К.В. Кто руководил НКВД 1934–1941. Справочник. Москва, 1999. - С.3-4;

¹²⁰ Войтенков.Е.А. Деятельность органов внутренних дел по противодействию преступлениям и правонарушениям на автотранспорте и обеспечению дорожного движения в СССР (1917-1941 гг.): историко-правовой обзор. // История государства и права. 2013, № 20. - С.53.

Tahlil etilayotgan yillarda jamiyatda sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlarni oldini olish ishlarini takomillashtirish maqsadida, ishchi-dehqon militsiyasi tarkibida 1937 yilda davlat va jamoat mulkini o'zlashtirish hamda chayqovchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga qarshi kurashish uchun BXSS xizmati tuzildi¹²¹. O'zbekiston SSRdagi ayrim shahar, rayon militsiya bo'limlari va bo'linmalarida bu vazifani jinoyat qidiruvi xizmati (tashkil etilgan ilk yillarda) bajarar edi¹²².

Xulosa qilib aytganda, o'lkada milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng ichki ishlar organlari tizimini yagona boshqaruvga birlashtirgan IIXK tuzilib, ularning vazifa va vakolatlari belgilab berildi. Bu jarayonda jinoyat qidiruv bo'limi militsiya tarkibiga qo'shib yuborildi va viloyatlardagi militsiya xodimlarining tarkibiy tuzilishida ham o'zgarishlar amalga oshirildi (barcha viloyatlarning boshliqlari qayta tayinlandi).

Tadqiq etilayotgan yillardagi xususiyatlardan yana biri bu ichki ishlar organlari boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar bo'lib, jumladan, uning faoliyati avval Markaziy ma'muriy boshqarmaga, so'ng XKS va Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasiga bo'ysundirildi. Undan keyin yana IIXK qayta tashkil etilganidan so'ng, militsiya organlari uning tarkibida boshqarma sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda sovet militsiyasi faoliyatiga tegishli muhim normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "O'zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi haqida" (1925 yil dekabr) va "O'zbekiston SSR XKS huzuridagi ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi to'g'risidagi" nizomlar qabul qilinib, amalga joriy etildi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi"da davlat boshqaruv organlari, ijroiya hokimiyatlari va ularning huquqiy maqomi belgilab berilgan bo'lib, unda O'zbekiston SSRda umumiy boshqaruvni va alohida sohalarni boshqaruvchi komissarliklar ustidan rahbarlikni amalga oshirish uchun tashkil etilgan Xalq

¹²¹ Карпец И. (генерал-лейтенант милиции, начальник Главного управления уголовного розыска МВД СССР). Как требует партия. // Советская милиция, №.9, 1978. - С. 25.

¹²² Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарканд; Сугдиён, 1998. - Б. 54.

komissarlari soveti tarkibiga Ichki ishlar xalq komissarligi ham kiritilgani ko'rsatiladi.

1932 yilda O'zbekiston SSR militsiya xodimlarining faoliyati bilan bog'liq ikkita muhim hujjat "Ishchi-dehqon militsiyasining intizom nizomnomasi" va "Ishchi-dehqon militsiyasi ichki xizmatining muvaqqat nizomnoma"lari qabul qilinib, ularda Ishchi-dehqon militsiyasi xodimlarining burchi, vazifasi, ularning ijtimoiy ta'minoti, rag'batlantirilishi va umuman bu tizimdagi faoliyati bilan bog'liq muhim jihatlar belgilab berildi.

Bu jarayonda ichki ishlar xodimlarining faoliyatiga oid hujjatlarning qabul qilinishi barobarida, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar va jinoiy ishlar, jinoyatlarning tarkibi, holati hamda ular yuzasidan ko'riladigan intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarliklar to'g'risida tegishli qonun hujjatlari ham qabul qilindi.

XX asr 30 yillarida ichki ishlar idoralari tizimi va strukturasi yana bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Davlat avtomobil inspeksiyasi xizmati bo'limi, shuningdek, davlat va jamoat mulkini o'zlashtirish hamda chayqovchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga qarshi kurashish uchun BXSS xizmati bo'limlari tashkil etildi

Umuman olganda sovet davlati tomonidan jamiyatda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jarayonlar negizida ichki ishlar idoralari va jinoyat qidiruv bo'limlariga yuklatilgan vazifalar doimiy ravishda o'zgarib turdi.

Tayanch so'zlar

IIXK, respublika, , tarkib, dekret, milliy rahbar, kadr, akt, hujjat, s'ezd, sovet, konstitutsiya, nizom, struktura, inspektor, boshqaruv, tizim, hukumat.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi qachon tashkil etilgan?
2. O'zbekiston SSR Ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risidagi Nizomda militsiya organlariga qanday vazifalar yuklatilgan edi?

3. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi va unda IIXKning huquqiy maqomi belgilab berildimi?
4. Sovet hukumati tomonidan o'lkada amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlariga qanday qo'shimcha vazifalar yuklatildi?
5. Tahlil etilayotgan yillarda militsiya organlarining boshqaruvi va strukturasi qanday o'zgarishlar qilindi?
6. Ichki ishlar organlari faoliyati davomida qaysi davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilgan, bu jarayonda ularga qanday vakolatlar berilgan edi?

1.3-ma'ruza. XX asr 20-30- yillarida respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlarining faoliyati

Reja

1. Respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida militsiya organlariga yuklatilgan vazifalar.
2. Majburiy ravishda boshqa hududlarga ko'chirilgan va maxsus posyolkalarda saqlangan dehqonlar ahvoli.
3. O'zbekistonda "Yosh bolalarning qarovsizligi va nazoratsizligini tugatish" uchun tuzilgan komissiya faoliyatida militsiya xodimlarining ishtiroki.
4. Sovet hukumatining mahalliy xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida olib borgan siyosatining jadallashtirishi va uning oqibatlari.

Tadqiqotchilar fikricha, sotsialistik respublika boshqaruv usuli boshqarishning maxsus shakli bo'lib, u ba'zi bir mamalakatlarda totalitar inqilob-to'ntarishlar natijasida vujudga kelgan. Marksizm nazariyotchilari fikriga ko'ra u ishchilar sinfi boshchiligida to'la-to'kis xalq hokimiyatini ta'minlaydigan chinakam demokratik respublika bo'lishi kerak edi. Mazkur boshqaruv shaklining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – "bu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy jarayonlariga yagona rahbarlikni amalga oshirish, shu moddiy va ma'naviy boyliklarni taqsimlash ishini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borishdan iborat"¹²³ bo'lgan.

Bu jarayon sovet hokimiyati o'rnatilgan barcha xududlarda amalga oshirilgan bo'lib, xususan o'lka xududlarida ham turli usullar yordamida (xususiy mulkni natsionalizatsiya qilinishi, harbiy kommunizm siyosati hamda oziq-ovqat direktoriyasining o'tkazilishi va boshqalar) olib borildi.

1925 yil 2 dekabrda O'zbekiston SSR MIKning favqulodda sessiyasida "Er va suvni natsionalizatsiya qilish" to'g'risidagi dekret qabul qilingandan so'ng¹²⁴, 1929 yillargacha O'zbekistonda pomeschchik turidagi 4801ta xo'jalik tugatildi, 23036 ta

¹²³ Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Тошкент: Адолат, 2007. - Б.235.

¹²⁴ Россия Федерацияси Давлат Архиви, 374-фонд, 28-рўйхат, 2166-иш, 72-варақ.

xo‘jalikning ortiqcha eri musodara qilindi¹²⁵. Umuman olganda er–suv islohoti sovet hukumatining mulkdorlar sinfini tugatish, sinfsiz jamiyat qurish uchun qilgan chora–tadbirlardan bo‘lib, bu jarayon keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini majburiy jamoalashtirishga zamin yaratdi.

Bu davrda ichki ishlar idoralari faoliyatiga tegishli huquqiy-normativ hujjatlarda va nizomlarda belgilangan vazifalarni bajarish barobarida, jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar negizida ularga qo‘shimcha vazifalar ham yuklatila boshlandi. Bu jarayonda militsiya organlarining tarkibiy tuzilishi va xodimlarning sonida (bu paytda 1927 yil 1 yanvar holatiga respublika bo‘yicha militsiya xodimlarining umumiy soni 2468 tani tashkil etgan)¹²⁶ ayrim kamchiliklar ham kuzatildi. Xususan viloyatlardan O‘zbekiston SSR XKSga topshirilgan hisobotlarda Toshkent va Toshkent viloyatidan tashqari, boshqa viloyatlarda ichki ishlar idoralari faoliyati ayanchli ahvolda ekanligi, yuklatilgan vazifalar juda sust bajarilayotganligi, viloyatlarda militsiya shaxsiy tarkibining katta qismi savodsiz ekanligi (ayrim viloyatlarda 90 % gacha) alohida “e’tirof” etilgan¹²⁷.

Ichki ishlar organlarining bunday ahvolga kelib qolganligi quyidagi sabablar:

- 1) joylarda militsiya rahbarlarining qisqa muddatda almashishi; mahalliy hokimiyat organlari lavozimlarga boshliqlarni tayinlashda respublika militsiya rahbariyati bilan kelishmasligi natijasida joylarda xizmat va lavozimga layoqatsiz boshliqlarning tayinlanayotganligi; 3) mahalliy hokimiyat organlarining militsiya faoliyati va ichki-tartib qoidalariga aralashayotgani hamda respublika militsiyasi tomonidan chiqarilgan ayrim qarorlarning ijrosiga qarshilik qilayotgani; 4) joylardagi militsiya boshliqlarining saviyasi pastligi natijasida ichki ishlar idoralarining faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagani, shaxsiy tarkibga malakali kadrlarni tanlay olmagan; 5) mahalliy aholi orasidan nisbatan bilimli fuqarolar militsiya organlariga ishga kelmayotgani, buning sababi bir tomonidan ishning og‘ir va murakkabligi bo‘lsa,

¹²⁵ Ўзбекистон тарихи. Р.Х.Муртазаеванинг умумий тахири остида. - Тошкент: ЎАМБНТ, 2003. - Б.448.

¹²⁶ ЎЗР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 17-иш, 1-варақ.

¹²⁷ ЎЗР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 17-иш, 2-варақ.

boshqa tomondan javobgarlikning yuqoriligi va oylik maoshning kamligi, moddiy ta'minotdagi muammolar¹²⁸ va boshqa tashkiliy masalalar bilan izohlangan¹²⁹.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ma'lumotlarda keltirilishicha shu yillarda sovet davlatining markaziy shaharlarida ichki ishlar idoralarining faoliyatida ayrim ijobiy natijalarga ham erishilib, xususan, poraxo'rlikka qarshi kurashda yutuqlarga erishilgan, masalan, 1925 yilda – 7603 nafar shaxs poraxo'rlik uchun qamalgan bo'lsa, bu raqamlar 1926 yilda – 4599 ta, 1927 yilda 4623 tani tashkil etgan¹³⁰.

1929 yil 7 dekabrda I.V.Stalinning “Buyuk burilish yili” deb nomlangan maqolasining matbuotda e'lon qilinishi, shuningdek, shu yili bo'lib o'tgan VKP(b) MK plenumida uning qishloq xo'jaligida jadal jamoalashtirish siyosatini o'tkazish va “quloq”larni sinf sifatida tugatish haqidagi fikrlarining ma'qullanishi natijasida, plenum jamoalashtirishga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifalarni belgiladi.

Jamolashtirish siyosati o'tkazilishi jarayonida, asosan, yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o'z xo'jaliklarini tiklab olgan boy va o'rtahol dehqonlarga (chunki birmuncha badavlatroq qatlamlar ilgariroq tugatilgan edi) tegishli mulklar, ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo'jalik mahsulotlari, urug' zahiralarini tegishli davlat organlari zo'ravonlik bilan tortib ola boshladi. Davlat tomonidan dehqonlarga ekiladigan er maydonlari va etishtirilgan mahsulotning topshiriladigan narxi qat'iy belgilab berildi. Qishloq aholisining badavlatroq qatlamlariga nisbatan misli ko'rilmagan quvg'inlar qo'llandi, qishloq mehnatkashlari jamoa xo'jaliklariga majburiy kiritila boshladi.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, quloqlashtirish masalasi sovet davlat tashkilotlarining turli yig'ilishlarida muhokama qilingan. SHunday yig'ilishlarning birida “Quloq kim va u bilan qanday kurashish kerak?”¹³¹ degan savol yuzasidan bo'layotgan bahs–munozara jarayonida “Uch bosh qoramoli bo'lgan xo'jalikni quloq sifatida hisoblash to'g'rimi?” deb savol berilganda, majlis qatnashchilaridan biri (Osinskiy): “Shubhasiz, o'zining rivojlangan xo'jaligi bilan ajralib turgan

¹²⁸ ЎзР ПДА, 58-фонд, 9-рўйхат, 375-иш, 6-варак.

¹²⁹ ЎзР МДА, 1708-фонд, 2-рўйхат, 17-иш, 3-4-вараклар.

¹³⁰ Ромашина Е.В. Правовой механизм противодействия коррупции в Советской России. // История государства и права, 2010, № 17. - С. 43-44.

¹³¹ ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 774-иш, 53-варак.

dehqon quloqqa aylanishi tabiiy, boz ustiga, ular quloq qilinishidan qo‘rqib, sun’iy ravishda ortiqcha ot va qoramollarni boqishni xohlamayapti. ...Umuman aytganda, quloq birinchidan, “ijtimoiy xavfli unsur”, ikkinchidan, “sovet hokimiyatining siyosiy dushmanidir”¹³² - deb ta’kidlagan edi.

VKP(b) MKning 1930 yil 5 yanvardagi “Jamoalashtirish sur’atlari va davlat jamoa xo‘jaliklari qurilishiga yordam ko‘rsatish chora–tadbirlari to‘g‘risidagi” qarorining e‘lon qilinishi¹³³ va uning dastlabki tahririda O‘zbekiston SSRda jamoalashtirish 1933–1937 yillar mobaynida tugallanishi belgilangan bo‘lishiga qaramay “buyuk yo‘lboshchi”ning bevosita siquvi bilan bu harakatni ancha oldinroq tugallash mumkin, degan munofiqona fikr ustunlik qildi¹³⁴. Quloqlarni sinf sifatida tugatish borasidagi tadbirlar doirasida 1930 yil 2 martda O‘zbekiston SSR MK tomonidan chorvachilik rivojlangan hududlarda “Chorva mollarini o‘g‘irlanish va sotish holatlarini nazorat qilish yuzasidan militsiya organlarining javobgarligini kuchaytirish”¹³⁵ haqida tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Endilikda jamoa xo‘jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo‘jaliklariga bevosita hujum qilish amaliy jihatdan buzg‘unchilikka aylanib ketdi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi¹³⁶. Sovet davlatining barcha hududlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jamoalashtirish kampaniyabozlik, “hujum va tazyiq” usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlar zo‘rlik bilan kolxozga kiritildi. Qarshilik ko‘rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar “quloq qilindi”¹³⁷. Aksar hollarda kolxoz tashkil etish u yoki bu qishloqdagi dehqon xo‘jaliklarining kolxozga kirish–kirmaslik istagidan qat’iy nazar sun’iy ravishda varaqa to‘ldirishdan iborat edi¹³⁸.

Ko‘pgina arxiv hujjatlarida bunday noxush holatlar to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. “O‘ta mahfiy” degan tamg‘a ostida I.V.Stalinga topshirilgan

¹³² ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 774-иш, 54-56-варақлар.

¹³³ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 5 (1929-1932 гг.). - Москва: Изд. полит. лит., 1984. - С.72-75.

¹³⁴ Тарих шохидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. \ Лойиҳа раҳбари, масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. - Тошкент: Шарқ, 2001. - Б.271.

¹³⁵ ЎзР ПДА, 58-фонд, 6-рўйхат, 755-иш, 39-варақ.

¹³⁶ ЎзР ПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 111-иш, 42-варақ.

¹³⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарқ, 2000. - Б.349.

¹³⁸ Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов ЦК (1925-1986). В 4-х т. / Т.1. 1925-1937. - Ташкент: Узбекистан, 1987. - С.515

hisobotlarning birida o'lkadagi vaziyat quyidagicha ko'rsatilgan: 1931 yilning bahorida Andijon va Farg'ona okruglaridagi mehnat xo'jaliklari 100 foiz jamoalashtirilishi rejalashtirilib, bir necha kunda deyarli barcha tumanlar 90–95 foizgacha (1931 yil mart oyi holatiga) jamoalashtirildi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, bunday ko'rsatkichga dehqonlarga non va boshqa oziq–ovqat mahsulotlarini bermaslik, saylov huquqidan mahrum etish hamda ko'chirib yuborish singari ma'muriy qo'rqitish va boshqa vositalar orqali erishilmoqda¹³⁹. Oqibatda ba'zi tumanlarda boylar, diniy ulamolar¹⁴⁰ va dehqonlar jamoalashtirishga qarshi ommaviy chiqish uyushtirib¹⁴¹, partiya xodimlariga, tuman va qishloq mehnatkashlariga jismoniy jabr etkazmoqda¹⁴², ayrim hollarda bunday voqealar insonlarning o'limi bilan tugamoqda. Quloqlar bundan foydalanib, dehqonlarni kollektivlashtirish siyosatiga qarshi da'vat etishmoqda, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarga qarshi o'zlarining quyidagi mazmundagi shiorlari bilan chiqmoqda: mahrum etilganlarning haq–huquqlarini tiklash, shaxsiy mulk talon–tarojini tugatish, shariat sudlarini qayta tashkil etish va asosiysi paxta dasturiga qarshi chiqish. ...Qishloqlardagi chorva masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda ham qoramollarni so'yish, bozorlarda sotish singari noqonuniy harakatlar O'zbekistonning ko'plab tumanlarida kuzatilmoqda. Hozirda bu holatlarni bartaraf etish, kollektivlashtirishni tezroq tugatish, paxta ekin maydonlarini kengaytirish va hosildorlikni oshirish yuzasidan belgilangan rejalarni bajarishga doir barcha choralar ko'rilmoqda¹⁴³.

Hisobotning mazmunidan ko'rinib turibdiki, kollektivlashtirish jarayonida mahalliy aholi va davlat tashkilotlari xodimlari o'rtasida ham kelishmovchiliklar bo'lib turgan. Xususiyl mulkka ega bo'lgan shaxslar haq– huquqi butunlay poymol etilgan (masalan, shaxsiy qoramolni sotish jinoyat hisoblangan va boshqalar) va

¹³⁹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 111-иш, 43-варақ.

¹⁴⁰ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 6-рўйхат, 254-иш, 81-варақ.

¹⁴¹ Ходжаев Ф. Советы в новом этапе (Доклад на расширенном заседании директората научно-исследовательского института сов. Строительства и права Узбекистана). // Советское строительство и право. № 1, 1932. - С.18.

¹⁴² ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 341-иш, 71-варақ.

¹⁴³ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 111-иш, 44-45-варақлар.

ularning har qanday qarshiligi qonunga zid harakat sifatida baholanib, nazorat organlari tomonidan bostirilgan.

Ayrim paytlarda shunday muammoli va ziddiyatli vaziyatlar ham bo'lganki, kolxoz brigadirlari va boshqa mutasaddi rahbarlar jamoalashtirish siyosatini jadallashtirish, yuqoridan berilgan ko'rsatmalarni turli usullar asosida bajarish jarayonida ularga nisbatan mahalliy aholi tomonidan keskin qarshiliklar ko'rsatilsa, yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish va xaspo'shlash maqsadida. ularning o'zi mansabni suiste'mol qilish, qonuniy vazifa va vakolatlarni bajarmaslik kabi jinoyatlarda ayblanib qamab yuborilgan¹⁴⁴.

Shu o'rinda qayd etish joizki, yuqorida ta'kidlangan noxush holatlar faqat O'zbekiston yoki O'rta Osiyo hududlariga xos bo'libgina qolmay, xuddi shu davrda ittifoqning ko'plab hududlarida ham krestyanlar tomonidan kollektivlashtirish jarayoniga nisbatan keskin qarshiliklar ko'rsatilgan, jamoalashtirishga qarshi kurash turli usullarda namoyon bo'lib, oddiy bo'ysunmaslikdan tortib, ochiq siyosiy chiqishlar, yong'in holatlari va insonlarning o'limigacha borgan. Bunday ziddiyatli holatlar sovet davlatining markaziy rayonlaridagi ko'plab qishloqlarda kuzatilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi¹⁴⁵.

Jamoalashtirishning jadallashtirilishi jarayonida ichki ishlar idoralari xodimlariga qo'shimcha vazifalar belgilab borildi. 1930 yil 17 fevralda O'zbekiston SSR MIK tomonidan "Doimiy turar joyidan ketib, yashirinib yurgan boy va quloqlarni hisobga olish va ularga yashash huquqini beruvchi guvohnomalar berilishini nazorat qilish tadbirlarini"¹⁴⁶ tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra barcha ijroiya komitetlariga militsiya organlari orqali O'zbekistonga sovet ittifoqining markaziy xududlari va Qozog'istondan ko'chib kelayotgan quloqlarni aniqlash hamda ularga yashash huquqini beruvchi guvohnomalar berilishini oldini olish vazifasi yuklatildi.

¹⁴⁴ ЎзР МДА, 1714-фонд, 6-рўйхат, 2564-иш, 15-варақ.

¹⁴⁵ Пахомова А.Н. Некоторые аспекты процесса раскулачивания Курских крестьян в ходе сплошной коллективизации. // История государства и права. 2009, № 3. - С. 32.

¹⁴⁶ ЎзР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 341-иш, 69-варақ.

O‘zbekiston SSR MIKning mazkur qarori e‘lon qilingandan so‘ng, IIXK tomonidan (1930 yil 30 aprel) “sotsialistik davlatning qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish yuzasidan o‘tkazayotgan tadbirlarini yanada mustahkamlash, yoppasiga kollektivlashtirish olib borilayotgan tumanlardagi ziddiyatli holatlarni bartaraf etish”¹⁴⁷ to‘g‘risida qabul qilingan qarorda militsiya va jinoiy qidiruv bo‘limlariga aniq vazifalar belgilab berildi. Ular quyidagilardan iborat: 1. YOppasiga kollektivlashtirish o‘tkazilayotgan hududlarda axborot tizimini tashkil etish va kuchaytirish. 2. Quloq unsurlari tomonidan uyushtirilishi mumkin bo‘lgan chiqishlar, jamoalashtirish jarayoniga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish. 3. Qoramollarni so‘yish va sotish, qishloq xo‘jaligi buyumlarini nobud qilinishi hamda quloqlarning kolxozga kirmaslik haqidagi targ‘ibot–tashviqoti to‘g‘risida ma‘lumot to‘plash. 4. Quloqlar ustidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar yuzasidan tezkor tergov o‘tkazish. 5. Quloqlarning o‘z mulkini musodara qilinishidan bosh tortishi, mol–mulkini sotishi yoki yashirishining oldini olish uchun ularning hatti–harakati haqida jinoyat qidiruv bo‘limlariga o‘z vaqtida axborot berish. 6. Mulklarni musodara qilinishiga qarshi bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ularga tegishli chora ko‘rish. 7. Surgundan qochib, berkinib yurgan quloqlarni qidirish ishlarini jadallashtirish. 8. Surgun qilinib, lekin o‘z xohishi bilan qaytib kelgan quloqlar to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga xabar berish. 9. Surgun qilingan joylarda quloqlar ustidan doimiy nazorat o‘rnatish. 10. YOppasiga kollektivlashtirish o‘tkazilayotgan tumanlarga boshqa hududlardan quloq unsurlari kelib qolishining oldini olish¹⁴⁸.

Shu bilan birga 1932 yil 7 avgustda SSSR XKS va MIK tomonidan “Davlat tashkilotlari, kolxozlar va kooperatsiyalar hamda jamoa mulklarini mustahkamlash to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi jamoalashtirish siyosati va uning uzviy davomi bo‘lgan quloqlashtirish jarayonidagi ichki ishlar idoralarining vazifalarini yanada kengaytirdi¹⁴⁹. Farmonda militsiya xodimlariga davlat mulkini transport

¹⁴⁷ ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 341-иш, 71-варак.

¹⁴⁸ ЎЗР ИИВА, 432-фонд, 4-рўйхат, 341-иш, 72-варак.

¹⁴⁹ Мигушенко О.Н. Влияние социально-экономической политики Советского государства на правосознание сельского населения в период массовой коллективизации сельского хозяйства. // История государства и права. 2008, № 8. - С. 30.

vositalarida (poezd, yuk tashish avtomobillari va b.) olib ketilishi, manzilga etkazilishi hamda bu jarayon bilan bog‘liq barcha masalalarni nazorat qilish vazifasi ham yuklatildi¹⁵⁰.

ИХКнинг mazkur qarori joylardagi militsiya bo‘limlariga etkazilgandan so‘ng, uning amaldagi ijrosini ta‘minlash borasida ham ko‘p noxush holatlar yuzaga keldi. Ichki ishlar xodimlari orasida poraxo‘rlikning kuchayishi natijasida mahalliy aholiga bir xil munosabatda bo‘linmadi, hatto shunday vaziyatlar bo‘ldiki, bozorlarni yopish bahonasida ayrim militsiya xodimlari dehqonlarning pul va boshqa mahsulotlarini tortib oldi¹⁵¹.

Jamiyatdagi bunday illatlar mahalliy aholining ijtimoiy hayotini battar yomonlashtirdi, hatto XX asr 30–yillarining boshiga kelib ommaviy ochlikning boshlanishiga sabab bo‘ldi¹⁵².

Ma‘lumotlarda keltirilishicha, kollektivlashtirish jarayonida O‘zbekistondan 1933 yilda surgun qilingan quloq xo‘jaliklari soni 5500 taga etgan bo‘lsa¹⁵³, O‘rta Osiyo hududidan 10 mingdan ortiq dehqon xo‘jaligi surgun qilingan¹⁵⁴, ittifoq miqyosida esa 1929 yil oxirlaridan 1930 yil o‘rtalarigacha 320 ming oila quloq qilingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi maxsus lagerlar yoki chekka hududlardagi maxsus posyolkalarga yuborilgan¹⁵⁵ va ular tegishli tashkilotlarning nazoratiga olingan.

Majburiy ravishda boshqa hududlarga ko‘chirilgan va maxsus posyolkalarda saqlangan dehqonlar va boshqa insonlarning keyingi hayoti ham juda ayanchli kechdi, ularning hayoti taqdir hukmiga havola etilgan edi¹⁵⁶. Quloq qilinganlar davlat tashkilotlarining doimiy nazoratida chekka (ajratilgan) hududlarda saqlanib,

¹⁵⁰ Шкаревский Д.Н. Уголовно-правовая кампания по борьбе с хищениями на транспорте в начале 1930 гг. // История государства и права. 2017, № 15. – С. 44. Сб.Законов СССР 1932. № 62, - С. 36.

¹⁵¹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 111-иш, 97-98-варақлар.

¹⁵² Голованов А.А. Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX - первой трети XX вв. Самарканд: Изд-во СамГУ, 2007. - С.303.

¹⁵³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарк. 2000. - Б.354.

¹⁵⁴ Трагедия среднеазиатского кышлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955 гг. Документы и материалы. Т.1. - Ташкент: Шарк, 2006. - С.13.

¹⁵⁵ Реабилитация. Политические процессы 30-50-х годов. Под. общ. ред. А.Н.Яковлева. Москва: Политиздат, 1991. - С.9.

¹⁵⁶ Козлов С.С. Использование труда вынужденных переселенцев в сельском хозяйстве. // История государства и права. 2008, № 21. - С.34-35.

ular shu hududdan chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Eng achinarlisi shuki, dehqonlar oilasi, hatto go'dak va qariyalar bilan birga ko'chirildi, ularning fojiasi shunda ediki, haq-huquqi va erkinligini yo'qotgan (yoki ayrim huquqlari saqlangan) bu insonlar qatag'on qilinganlarning sharoitida qolib, ularning bu joyda qancha saqlanishi noma'lum bo'lgan¹⁵⁷. Shuningdek, jamiyat uchun o'ta xavfli hisoblanib quloq qilingan va oqibatda turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etilgan quloqlar toifasi kiruvchi shaxslar qamoqxonalarda ham doimiy nazoratda ushlab turilgan. Ular tomonidan avf etish haqidagi arizalar tegishli komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilsada, ijobiy echimini topmagan¹⁵⁸.

Shu o'rinda yana bir muhim ma'lumotni keltirish maqsadga muvofiq, 1938 yilga kelib, Lagerlar bosh boshqarmasi tizimida 1761 ta maxsus mehnat posyolkalari mavjud bo'lib, ularda 1021 ta qishloq xo'jaligi arteli va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan 141 ta xunarmandchilik artellari faoliyat yuritgan¹⁵⁹.

Bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, joylarda sodir bo'lgan ocharchilik holatlari va qiyinchiliklar oqibatida jamiyatda qarovsiz qolgan bolalar ko'payib ketdi. Bu va boshqa muammolar negizida yosh bolalar hamda o'smirlar orasida jinoyatchilik rivojlana boshlanadi. Garchi ularni tarbiyasi yuzasidan tegishli tadbirlar olib borilsada, muammolar bartaraf etilmadi. Natijada tarbiyaga moyil bo'lmagan voyaga etmagan jinoyatchilar, IIXK tizimidagi mehnat uylariga yuborila boshladi. Mehnat uylariga 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan tarbiyasi og'ir bo'lgan o'smirlar qabul qilingan. Bu masala tegishli tashkilotlarning doimiy diqqat markazida turgan bo'lib, 1930 yil 24 iyunda RSFSR BMIK va XKSning "BMIK va Maorif XK huzuridagi Bolalar komissiyasining bolalarning qarovsizligiga qarshi kurash ishlarining olib borilishi to'g'risidagi ma'ruzasi" asosidagi farmoyishda, shuningdek, SSSR BMIK va XKSning №3/593 "Voyaga

¹⁵⁷ Козлов С.С. Правовое положение и социальный статус спецпереселенцев в СССР в 30-е годы. // История государства и права. 2008, № 8. - С.28.

¹⁵⁸ ЎзР МДА, 1714-фонд, 6-рўйхат, 2564-иш, 8, 15, 26, 33, 151, 404-варақлар; 7-рўйхат, 181-иш, 21, 22, 27-варақлар. 7-рўйхат, 201-иш, 2, 3, 4-варақлар ва б.

¹⁵⁹ Козлов С.С. Использование труда вынужденных переселенцев в сельском хозяйстве. // История государства и права. 2008, № 21. - С.35.

etmaganlarning jinoyatlariga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qarori¹⁶⁰ hamda SSSR XKS va KP(b) MK tomonidan “Yosh bolalarning qarovsizligi va nazoratsizligini tugatish to‘g‘risida”gi (1935 yil 31 may)¹⁶¹ farmonlarda voyaga etmaganlarning mehnat koloniyalari va maxsus izolyatorlaridagi sharoitni yaxshilash hamda bu jarayonda militsiya organlarining ishtirokini kuchaytirish vazifalari belgilandi¹⁶². Bu ishlarni samarali bajarish jarayonida voyaga etmagan qonunbuzarlar uchun yangi tipdagi muassasalar belgilab berildi. Ular maxsus izolyatorlar, mehnat koloniyalari va taqsimlash qabulxonalari bo‘lib, mehnat koloniyalarida 12-16 yoshgacha bo‘lgan voyaga etmagan jinoyatchilar va 14-16 yoshgacha bo‘lgan qarozsiz bolalar saqlanishi, 16-18 yoshda bo‘lgan jinoyatchilar esa jazoni o‘tash joylariga yuborilishi ko‘rsatildi¹⁶³.

Ushbu farmon va qarorlarning ijrosini respublikada ta‘minlash uchun 1931 yilda “Bolalar qarovsizligiga qarshi kurash respublika shtabi” tuzildi, unga Y.Oxunboboev boshchilik qildi. Bunday shtablar respublikaning hamma joylarida tuzila boshladi. 1931 yil iyulda Toshkent shahar Soveti qoshida ko‘chada qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalash shtabi tashkil etildi. Unga xalq maorifi, sog‘liqni saqlash bo‘limlari, mehnat inspeksiyasi xodimlari kiritilgan bo‘lib, bu ishlarni samarali bajarish uchun militsiya inspektorlarining mas‘uliyati alohida belgilandi¹⁶⁴. Bu jarayonda voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar doirasida ota-onasining ma‘muriy javobgarligi belgilanib, masalan, militsiya xodimlari bolalarning ko‘chadagi bezoriligi uchun 200 rublgacha jarima undirishi mumkinligi (ota-onasidan) qonuniy ravishda belgilab berildi.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarining qabul qilinishi va bunday

¹⁶⁰ Марковичева Е.В. Несовершеннолетний в системе уголовного судопроизводства в России первой половины XX в. // История государства и права. 2009, № 6. - С.35.

¹⁶¹ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 6 (1933-1937 гг.). - Москва: Изд. полит. лит., 1985. - С.213-218.

¹⁶² Егорькова И.А. Динамика законодательства, регламентировавшего борьбу с преступностью несовершеннолетних в 1918-1935 гг. // История государства и права. 2010, № 16. - С.33-34.

¹⁶³ Брылева Е.А. Развитие исправительных учреждений для несовершеннолетних: история и современность. // История государства и права. 2015, № 8. - С.20.

¹⁶⁴ Исмоилов Х. Совет милицияси – конунчилик ва конун тарбиботининг поспони. Тошкент: Ёш гвардия, 1982. - Б. 19.

tadbirlarga militsiya xodimlari bilan birga davlat va jamoat tashkilotlarining jalb etilishi bu davrda o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi.

Tadqiq etilayotgan yillarda o‘lkada olib borilayotgan o‘zgarishlar jarayonida, sovet hukumati mahalliy xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni “zamonaviylashtirish”, jamiyatda erkaklar bilan teng faoliyat yuritishini ta’minlash masalasiga ham (keyinchalik ularning mehnatidan keng foydalanish) e’tiborini qaratdi. Garchi bu o‘zgarishlar sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyingi dastlabki yillardan boshlangan bo‘lsada, bu jarayonni yanada tezlashtirish masalasi O‘rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo‘limlari xodimlarining ishtirokida o‘tkazilgan kengashda muhokama etilib (1926 yil sentyabr), unda xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va majburiy ravishda o‘tkazishga qaror qilindi. Bu tadbir “Hujum” deb atalib, unda hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish ustun bo‘la boshladi. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishning eng muhim vazifalaridan biri paranjiga qarshi kurash edi¹⁶⁵. Hujum kampaniyasi boshlangan davrida muvaffaqiyatlarga erishdi, sababi ayollarga o‘qish uchun, o‘z bilim va malakalarini shakllantirish uchun imkon yaratildi. Buning natijasida o‘zbek ayollari orasidan maorifda, madaniyatda, fanda, san’atda, tibbiyotda va ijtimoiy turmushning barcha sohalarida o‘z salohiyatlari va iqtidorlarini namoyish etib, faoliyat olib boruvchi ziyoli ayollar vujudga keldi¹⁶⁶.

Hujum kompaniyasi boshlangan ilk yillarda ko‘plab ayollar paranjisini tashlab (1927 yil bahorida 100 ming nafar), turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qatnasha boshlagan bo‘lsada¹⁶⁷, bu siyosatni amalga oshirishning usul va vositalari o‘zining salbiy oqibatlari bilan kechdi.

O‘zbekiston SSR prokuraturasiga viloyatlardan o‘ta mahfiy tamg‘a ostida topshirilgan hisobotlarda ko‘rsatilishicha, “1927 yilda hujum kampaniyasi

¹⁶⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарк, 2000. - Б.105.

¹⁶⁶ Жўраева Н.Д. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30 йиллари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. - Тошкент, 2004. - Б. 48.

¹⁶⁷ Алимова Д. “Коммунистча ижтимоий буюртма” ва эрк учун интилиш тарихи. / Ўзбекистонда совет даврида амалга оширилган сиёсий кампаниялар ва уларнинг фожiali оқибатлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. - Тошкент, 2017. - Б.129.

boshlangan ilk davrda aholining ma'lum bir qismi jumladan, davlat tashkilotlarida ishlaydigan erkaklarning yaqinlari (turmush o'rtog'i, onasi va b.), shuningdek, kambag'al va batraklarning oilalari tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lsada, diniy ulamolar, boylar, savdogarlar va boshqalar unga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borganliklari" haqida arxiv hujjatlarida keltiriladi¹⁶⁸.

Hujum kompaniyasi shu qadar shiddatli tus oldirildiki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa respublikalar o'rtasida "sotsialistik musobaqa" tashkil qilindi. SHunisi qiziqarliki, musobaqaga respublikalarning sovet sud-huquq organlari, prokuratura, ichki ishlar organlari xodimlari va tergovchilar ham jalb etildi. Musobaqa davomida (1.09.1929 yildan 1.03.1930 yilgacha) sud xodimlari "ajralish ishlarini jadallashtirish bilan shug'ullangan bo'lsa, boshqa ishtirokchilarning har biri qishloqlarda tashkil etilgan turli ommaviy yig'ilishlarda 10 dan ortiq ma'ruzalar (jamiyatda ayollarning o'rni va haq-huquqlari to'g'risida) bilan qatnashishi" zarur bo'lgan. SHuningdek, ularga mahalliy xotin-qizlardan sud-huquq organlariga xodimlarni jalb etish, sud jarayonlarida xalq maslahatchisi sifatida qatnashishiga sharoit yaratish vazifasi ham yuklatilgan eti¹⁶⁹. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, bu paytda ayrim ayollar tomonidan keksa erlaridan ajralish xususida sudlarga murojaatlar tushib turgan bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan musobaqalar davomida bu jarayonlar yanada tezlashtirilgan. Natijada O'zbekistonda ko'plab oilalar buzildi, ajralish uchun ariza bergan ayollarnig ayrimlari turmush o'rtoqlari yoki aka-ukalari tomonidan jazolandi. Sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasida tezkorlik bilan amalga oshirgan siyosati mahalliy ayollarning begunoh qurbon bo'lishiga ham sabab bo'ldi. Bu haqda ko'plab manbalar mavjud bo'lib, Davlat siyosiy boshqarmasining Qo'qon okrugi tomonidan O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetiga topshirilgan dalolatnomasida: Buvayda va Beshariq tumanlarida hamda Oqtepa va G'ori qishloqlarida paranji tashlagan ayollarning o'limi bilan bog'liq jinoiy ishlar militsiya organlari tomonidan qo'zg'atilganligi

¹⁶⁸ ЎЗР МДА, 904-фонд, 8-рўйхат, 27-иш, 76-77-варақлар.

¹⁶⁹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 5-рўйхат, 865-иш, 62-63- варақлар.

(1927 yil iyun oyida)¹⁷⁰ ko'rsatilgan. 1927-1928 yillarda O'zbekistonda 2,5 mingta ortiq ayollar¹⁷¹ hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, Xorazm shahar prokurori tomonidan berilgan xabarnomada: "... ko'rib chiqilgan atiga 20 ta jinoiy ishda 68 nafar ayollarning o'limi ma'lum bo'lganligi"¹⁷² ta'kidlanadi.

Boshqa hujjatda keltirilishicha, 1928 yilda ichki ishlar idoralari tomonidan respublika bo'yicha 208 ta ayollarning o'limi bilan bog'liq jinoiy ishlar ko'rilgani ta'kidlanib, aslida bu raqamlar undan ancha yuqori ekanligi, masalan, birgina Xorazm viloyatida ko'plab ayollar o'ldirilgani, lekin bu borada bor-yo'g'i 20 ta jinoiy ish qo'zg'atilgani, okrug prokurorlarining 1929 yilning 4 oyi uchun topshirgan hisobotlarida esa, 21 ayol o'ldirilib, 2 nafar ayol jarohatlanganligi ko'rsatilgan¹⁷³.

"Respublikaning ayrim hududlarida 1929 yilning 1 yanvaridan 15 aprelegacha, jumladan, Farg'ona okrugining Marg'ilon rayonida 2 nafar ayol qattiq yaralangani, Andijon okrugi Muxunbek qishlog'ida "faol" ayollardan biri mahalliy imom tomonidan o'ldirilgani, SHahrixon rayonida 2 nafar, Surxondaryoda 4 nafar ayol (turmush o'rtog'i paranji tashlagani uchun 1 erkak), Zarafshon okrugida 2 nafar, Xorazm okrugida 1 nafar ayol o'ldirilgani va 2 nafari jarohatlangani, Samarqand okrugida 3 nafar ayol, Toshkent okrugida 2 nafar ayol o'ldirilgani, umumiy hisobda 20 nafar ayol o'ldirilganligi va 5 nafar ayolga qattiq tan jarohati etkazilganligi"¹⁷⁴ yuzasidan militsiya organlari tomonidan jinoiy ishlar qo'zg'atilganligi va tergov ishlari olib borilayotganligi Adliya xalq komissarligiga topshirilgan hisobotlarda ko'rsatilgan. Shu mazmundagi, ya'ni bu jarayonning salbiy oqibatlari aks etgan yana ko'plab hujjatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

O'zbekiston hududlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, jumladan paranji tashlash bilan bog'liq muammolar, bu jarayonlar negizida sodir etilgan turli xildagi jinoiy ishlar XX asr 30 yillarining

¹⁷⁰ ЎзР ПДА, 58-фонд, 2-рўйхат, 1153-иш, 65-66- варақлар.

¹⁷¹ Алимова Д.А. "Хужум зарурат бормиди?". Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992 йил 11 сентябрь.

¹⁷² ЎзР ПДА, 58-фонд, 2-рўйхат, 1153-иш, 87-88- варақлар.

¹⁷³ Россия Федерацияси Давлат Архиви, 374-фонд, 27-рўйхат, 1708-иш, 86-87-варақлар.

¹⁷⁴ ЎзР ПДА, 58-фонд, 2-рўйхат, 1153-иш, 86-86- варақнинг орқаси.

oxirlarida ham davom etganligi arxiv hujjatlarida uchrab turadi. Xususan, bu borada O‘zbekiston SSR Prokuraturasining 1939 yil 2 fevralda 56-sonli buyrug‘i e‘lon qilinadi (SSSR prokuraturasining 17.06.1938 yildagi 672-sonli buyrug‘i asosida). Buyruqda ayollarning paranji tashlash jarayoni bilan bog‘liq jinoiy ishlar hali hanuz davom etayotgani, shu munosabat bilan bunday ko‘rinishdagi jinoiy ishlarni olib borilishi, ularning soni va holatini doimiy nazorat qilib borish zarurligi ko‘rsatilib, ayollarni davlat tashkilotlariga jalb etish ishlarini jadallashtirish (prokuraturada va boshqa huquq-tartibot idoralarida ishlashga) va boshqa vazifalar ta‘kidlanib, bu ishlarni bajarish uchun O‘zbekiston SSR va Qoraqalpog‘iston ASSR prokurorlarining yordamchilari mas‘ul qilib belgilandi¹⁷⁵.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, tadqiq etilayotgan yillarda militsiya organlarining faoliyatida bir qator kamchiliklar kuzatilib, bu masala o‘z davrida yuqori davlat tashkilotlarining yig‘ilishlarida ham muhokama etilgan. Jumladan, O‘zbekiston SSR XKS raisi F.Xo‘jaevning “Sovetlar yangi bosqichda” (1932 yil noyabr) nomli ma‘ruzasida joylardagi ma‘muriy boshqaruv tizimi masalalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi va bunda militsiya organlari faoliyati bilan bog‘liq ayrim nuxsonlar haqida to‘xtalib: “...Biz joylardagi militsiya boshliqlarining noqonuniy ish yuritishlari haqidagi faktlarning guvohi bo‘layapmiz, ular hech qanday sababsiz, asossiz ravishda kambag‘allar, o‘rtahollar va kolxozchilarni hibsga olishga jazm qilyaptilar. ...Men shunday voqealarni bilaman, masalan, Sariosiyo rayonida bir kolxozchi ayol bozorda o‘zining ro‘molini sotayotgani uchun ushlangan, ...shu rayonda bir nogiron kolxozchi tamaki maxsulotlarini sotgani uchun qamoqqa olinib, uning pullari tortib olingan” deb ko‘rsatgan¹⁷⁶. Ma‘ruzada bunday noxush holatlar haqida yana ko‘plab misollar keltirilgan.

Boshqa arxiv hujjatida keltirilishicha, 1933 yilda O‘zbekiston SSR ichki ishlari organlari xodimlari faoliyatida bir qator kamchiliklar kuzatilgan bo‘lib, masalan, sentyabr oyida militsiya xodimlari tomonidan 145 ta qonunbuzarlik

¹⁷⁵ Россия Федерацияси Давлат Архиви, 8131-фонд, 16-руйхат, 48-иш, 4-5-варақлар.

¹⁷⁶ Ходжаев Ф. Советы в новом этапе (Доклад на расширенном заседании директората научно-исследовательского института сов. Строительства и права Узбекистана). // Советское строительство и право. 1932, № 1, - С.21.

holatlari sodir etilgan (ulardan, siyosiy jinoyatlar – 13 ta, intizomiy qoidabuzarliklar – 93 ta, jinoiy ishlar – 34 tani tashkil etgan) bo‘lsa¹⁷⁷, noyabr oyida esa qonunbuzarlik holatlari 240 tani tashkil etgan¹⁷⁸. Bundan tashqari ichki ishlar idoralari boshliqlari va boshqa lavozimlardagi xodimlarning faoliyatida ham ayrim kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Masalan, Chust rayon militsiyasi boshlig‘i Dobrodeev va maxsus xodim Uraganovlar tizimli (doimiy) ravishda faoliyatiga oid qaror va ko‘rsatmalarni qo‘pol ravishda buzib, prokurordan sanksiya olmasdan fuqarolarni hibsga olganligi haqida ma‘lumotlar keltiriladi¹⁷⁹. Bunday noxush vaziyatlar, jumladan, mansabni suis‘temol qilish, tergov o‘tkazish va ayblanuvchilar bilan so‘roq olib borish qoidalarining buzilish holatlari, burch hamda majburiyatlarga nisbatan sovuqqonlik va javobgarsizlik holatlari Toshkent va boshqa joylarda ham kuzatilgan¹⁸⁰.

Bu davrda ichki ishlar organlari xodimlari yuklatilgan vazifalardan tashqari qo‘shimcha ishlarga ham jalb etilgan edi. Ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qo‘riqlashdagi ishtiroklari yuzasidan 1933 yilda 400 nafar militsiya xodimlari paxta yig‘im-terimida ishtirok etgani haqida ma‘lumot keltiriladi¹⁸¹. Shuningdek, militsiya organlari tomonidan 1935 yilda davlat mulkini talon-taroji bo‘yicha, xususan tashkilotlarda sholi mahsulotlarini o‘marish bilan bog‘liq umumiy 1.100.865 rubllik moddiy zarar etkazilishi yuzasidan jinoiy ish qo‘zg‘atiladi. Shu ko‘rinishdagi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan jinoyat qidiruv bo‘limlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida respublikaning turli hududlaridan 17 kishi hibsga olinib, ularga tegishli choralar ko‘riladi¹⁸².

Tadqiq etilayotgan yillarda sovet hukumati tomonidan fuqarolarni ro‘yxatga olish, ro‘yxatdan chiqarish va pasport tizimini joriy etish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, bu jarayonda ichki ishlar idoralari bevosita ishtirok etishdi. Jumladan, 1932 yil 27 dekabrda SSSR XKS va MIK tomonidan “SSSR bo‘yicha

¹⁷⁷ ЎзР ПДА, 58-фонд, 9-рўйхат, 375-иш, 3-4-варақлар.

¹⁷⁸ ЎзР ПДА, 58-фонд, 8-рўйхат, 241 а-иш, 51-55-варақлар.

¹⁷⁹ ЎзР ПДА, 58-фонд, 11-рўйхат, 1126-иш, 7-варақ. (Маълумот Наманган шаҳар прокуратураси ходимининг Ўзбекистон ССР прокурорига 1935 йил 27 октябрда ёзган ҳисоботидан олинган).

¹⁸⁰ ЎзР ПДА, 58-фонд, 9-рўйхат, 375-иш, 13-варақ.

¹⁸¹ ЎзР ПДА, 58-фонд, 8-рўйхат, 241 а-иш, 79-80-варақлар.

¹⁸² ЎзР ПДА, 58-фонд, 12-рўйхат, 633-иш, 40-41-варақлар.

umumiy pasport tizimini joriy etish va pasportlarni ro'yxatga olish haqida"¹⁸³ qaror qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida O'zbekiston SSR hukumati tomonidan 1933 yil 21 sentyabrda shu yil 1 oktyabrdan pasport tizimini yo'lga qo'yish uchun Militsiya bosh boshqarmasida pasport bo'limini tashkil etish to'g'risida ko'rsatma berildi¹⁸⁴. Mazkur bo'lim joylarda fuqarolarga pasport berish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, qalbaki pasportlarni aniqlash¹⁸⁵, pasport tizimi qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan aybdorlarga nisbatan tegishli chora ko'rish (sudga topshirish) va boshqa vazifalarni bajardi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asr 20 yillarining ikkinchi yarmi 30 yillarning boshlarida sovet jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarda tezkor sur'atlarda o'zgarishlar amalga oshirildi. Jamiyatda olib borilgan har qanday o'zgarishlar o'ziga xos usul va vositalar orqali (ixtiyoriy, majburiy va b.) amalga oshirilib, bu jarayonda davlat tashkilotlari, xususan, nazorat va jazo organlarining ham bevosita ishtiroki kuzatildi.

Ittifoq miqyosida qishloq xo'jaligida boshlangan o'zgarishlar, kollektivlashtirish siyosati o'lka hududlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. O'zbekistonda jamoalashtirish siyosatining o'tkazilishi oqibatida qishloqlardagi o'ziga to'q kishilarning er-suvi, mol-mulki tortib olindi, ular majburiy ravishda jamoa xo'jaliklariga kiritildi, quloqlashtirishning jadallashtirilishi jarayonida ichki ishlar organlariga qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Jumladan, O'zbekistonga sovet ittifoqining markaziy xududlari va Qozog'istondan ko'chib kelayotgan, yashirinib yurgan boy va quloqlarni aniqlash va ularga yashash huquqini beruvchi guvohnomalar berilishini oldini olish, quloqlar tomonidan uyushtirilishi mumkin bo'lgan chiqishlar, jamoalashtirish jarayoniga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish, mulkning musodara qilinishiga qarshi bo'lgan quloqlarni aniqlab, tegishli chora ko'rish, quloqlarni surgun qilishda qatnashish, surgun qilingan

¹⁸³ Суслин Э.В. Анализ правового режима паспортного контроля в СССР в предвоенный период. // История государства и права. 2006, № 1. - С. 34.

¹⁸⁴ ЎзР ПДА, 58-фонд, 9-рўйхат, 375-иш, 18-варақ.

¹⁸⁵ ЎзР ПДА, 58-фонд, 10-рўйхат, 1359-иш, 229-231-варақлар.

quloqlar ustidan doimiy nazorat oʻrnatish, surgundan qochib, berkinib yurgan quloqlarni qidirish ishlarini jadallashtirish kabi vazifalar yuklatildi.

Ichki ishlar idoralari xodimlariga yuklatilgan vazifalar va berilgan vakolatlar doirasining kengligi, uning amaldagi ijrosini taʼminlash borasida bir qator noxush holatlarni yuzaga keltirdi. Ichki ishlar xodimlari orasida mahalliy aholiga bir xil munosabatda boʻlinmadi, ayrim militsiya xodimlari orasida poraxoʻrlik illati kuchayib ketdi. Jamiyatdagi bunday muammolar mahalliy aholining ijtimoiy ahvolini battar yomonlashtirdi.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, ichki ishlar idoralari xodimlari yuklatilgan vazifalari doirasida mahalliy aholining boshqa hududlarga majburiy koʻchirib yuborilishi jarayonida ham ishtirok etishdi. Bu tadbirlarning oqibatida koʻplab insonlarning haq-huquqi poymol etildi, koʻchirib joylashtirilgan hududlardagi insonlarning ahvoli ham ayanchli kechdi, ularning pasportlari olib qoʻyilib, boshqa joylarga chiqishi man etildi, ularning faoliyati tegishli davlat idoralari tomonidan doimiy nazoratda ushlab turildi.

Tadqiq etilayotgan yillarda Oʻzbekistonda sovetlarning xotin-qizlar bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarning amalga oshirilishi jarayoniga ham respublika ichki ishlar idoralari xodimlari jalb qilindi, jumladan, militsiya xodimlari bu jarayonda ayrim noxush holatlar natijasida yuzaga kelgan turli xildagi jinoiy ishlarni ochishda, gʻalayonlarni va boshqa tartibsizliklarni bartaraf etishda ishtirok etdi.

Tahlil qilinayotgan yillarda fuqarolarni roʻyxatga olish, roʻyxatdan chiqarish va pasport tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish boʻyicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini taʼminlashda ichki ishlar idoralari xodimlari bevosita ishtirok etishdi. Respublikada pasport tizimini yoʻlga qoʻyish uchun Militsiya bosh boshqarmasi huzurida pasport boʻlimi tashkil etildi. Boʻlim fuqarolarga pasport berish, ularning yashash manziliga roʻyxatga qoʻyish, qalbaki pasportlarni aniqlash, aybdorlarni topish hamda ularga nisbatan tegishli chora koʻrish (sudga topshirish) kabi vazifalarni bajardi.

Tayanch soʻzlar

hudud, respublika, suveren, dekret, davlat, kommunistik partiyasi, muhojir, siyosiy kotibiyat, harbiy komitet, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, islohot, jinoyat, lager, mexnat posyolkalari, komissiya, poraxoʻrlik, tergov.

Savol va topshiriqlar

1. Kollektivlashtirish jarayoni qachon boshlandi?
2. Respublika qishloq xoʻjaligida amalga oshirilgan oʻzgarishlar jarayonida ichki ishlar organlariga qanday qoʻshimcha vazifalar belgilab berildi?
3. Mexnat poselkalaridagi ahvol qanday boʻlgan va nima sababdan bu joyda yashovchilar doimiy nazoratda ushlab turilgan?
4. Oʻzbekistonda yosh bolalar va oʻsmirlar orasida jinoyatchilikni tugatish borasida militsiya organlari tomonidan qanday tadbirlar amalga oshirilgan?
5. Sovet davlati tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida qilingan ishlar va uning oqibatlari haqida gapirib bering.
6. Oʻzbekistonda pasport tizimi qachon joriy etildi?

II Mavzu. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ichki ishlar organlarining roli (1936-1959 yillar)

2.1-ma’ruza. O‘zbekistonda o‘tkazilgan siyosiy qatag‘onlik yillarida ichki ishlar organlarining faoliyatidagi xususiyatlar (1936-1938- yillar)

Reja

1. 1936-1938 yillarda sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘onlarning boshlanish sabablari.
2. O‘zbekistonda qatag‘onlarni o‘tkazish bo‘yicha “uchlik”larning tashkil etilishi va ularning faoliyati.
3. Sovet davrida o‘tkazilgan qatag‘onliklarning xususiyatlari. Ichki ishlar organlari xodimlarining qatag‘on qilinishi.
4. Tahlil etilayotgan yillarda militsiya organlarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki.

XX asrning 30-yillarida davlat boshqaruv organlari, xususan, nazorat va jazo organlari tizimida ketma-ket o‘zgarishlar amalga oshirilib, 1934 yil 10 iyulda SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan “SSSR Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligini (NKVD) tuzish haqida” qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan SSSR Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) Davlat xavfsizligi bosh boshqarmasiga (GUGB) aylantirildi va yangi tashkil etilgan Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibiga kiritildi. Bu jarayonda Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi va Davlat xavfsizligi boshqarmalarining faoliyatiga oid funksional vazifalarning bajarilishi IIXK nomidan olib borila boshladi. Bunday o‘zgarishlar negizida Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi huzurida faoliyat yuritgan Militsiya Bosh boshqarmasi ham IIXKga bo‘ysundirildi¹⁸⁶.

Jarayonlarning bunday kechishi natijasida bu paytda IIXK tizimida jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, jinoiy ishlarni fosh etish bilan bog‘liq masalarni hal etishga yo‘naltirilgan ikkita organ, ya’ni, militsiya bosh boshqarmasi va davlat xavfsizlik boshqarmalari yonma-yon faoliyat yurita boshladi¹⁸⁷. Bu masalaga e’tibor

¹⁸⁶ Петров Н.В., Скоркин К.В. Кто руководил НКВД 1934–1941. Справочник. Москва, 1999. - С.3-4.

¹⁸⁷ Шу ўринда таъкидлаш жоизки, совет хукмронлигининг кейинги йилларида бу икки ташкилот бир неча марта ажратилиб, бир-биридан мустакил равишда фаолият юритди. Лубянка: Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-

qarashdan maqsad, ko'p hollarda bu ikki tashkilotning faoliyati haqida so'z borganda ularning vazifa va vakolatlarini o'zaro aralashtirib yuborish holatlari kuzatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, militsiya organlari jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlashda davom etgan bo'lsa, davlat xavfsizligi boshqarmasi xodimlari "siyosiy ko'rinishdagi jinoyatlarni" fosh etish, ularni qatag'on qilishda faollik ko'rsatishgan edi¹⁸⁸. Shunday bo'lgani holda, bir tizimda faoliyat yuritgan ikkita tashkilotning o'zaro hamkorlik qilganligi ham tabiiy holat. Jumladan, davlat xavfsizligi boshqarmasi xodimlari o'z faoliyatini olib borishda joylardagi (ayniqsa chekka hududlardagi) militsiya xodimlarining xizmatidan ham foydalanishgan. Ulardan gumondor shaxslar haqidagi ma'lumotlarni olish va tasdiqlashda, o'zni kelganda "aksilinqilobchi yoki siyosiy jinoyatchi" deb topilganlarni hibsga olishda hamda boshqa vazifalarni bajarishga jalb etishgan.

Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, 1936 yilning aprel-iyun oylarida Toshkent shahar jinoiy qidiruv bo'limlarining hamkorlikdagi tadbirlari davomida 1208 ta shaxs (hujjatda "ijtimoiy xavfli unsur" deb yozilgan) hibsga olinib, IIХKning "Uchligiga" topshirilgan¹⁸⁹.

Sovet davrida amalga oshirilgan qatag'onlar orasida tarixga "Katta qirg'in" nomi bilan kirgan ommaviy qatag'onlarning boshlanish sabablarining ko'plab omillari mavjud bo'lib, ular orasida 1936 yil mart oyida SSSR Ichki ishlar xalq komissari G.YAgoda tomonidan VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosiga "surgunda yashab, faol ish olib borayotgan barcha trotskiychilarni qamoqqa olish va olis lagerlarga yuborish" haqidagi taklifini ta'kidlash zarur. Ushbu murojaatnoma asosida Siyosiy byuro trotskiychilarni qatag'on qilish haqida qaror chiqaradi. SHU

НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1991. Справочник. Под. ред. акад. А.Н.Яковлева: авторы - сост.: А.И.Кокурин, Н.В.Петров. - Москва: МФД, 2003. - С.72. Харченко О.В. Государственное управление в сфере полицейской деятельности в России: советский и постсоветские периоды. // История государства и права. 2008, № 10. - С.31.

¹⁸⁸ Маълумот учун қайд этиш лозимки, таҳлил этилаётган йилларда ИИХК тизимида бу икки ташкilotдан бошқа яна бир нечта давлат ташкilotлари ҳам фаолият юритган. Масалан, Иқтисодиёт бош бошқарма, Транспорт бош бошқармаси, Чегара ва ички қўшинлар бош бошқармаси, Лагерлар бош бошқармаси, Қамоқхоналар бош бошқармаси, Ёнғиндан сақлаш бош бошқармаси, Маъмурий-хўжалик бошқармаси, Фуқароларни никоҳдан ўтказиш ва никоҳни бузиш ҳолларини қайд этиш бошқармаси, Марказий режа-молия бўлими ва бошқалар. Бу даврда СССР Ички ишлар халқ комиссарлигининг марказий аппарати 8211 кишидан иборат бўлган эди.

¹⁸⁹ Самарқанд вилояти ИИБ Ахборот марказининг махсус фонди, Приказы УКРМ УзССР по личному составу за 1936 год. 16-17-варақлар.

yili 19-24 avgust kunlari Moskvada “Aksilsho‘roviy trotskiychi-zinovevchi markaz” ustidan ochiq sud jarayoni bo‘lib o‘tadi. Unda Zinovev, Kamenev va boshqa ayrim shaxslar Kirovni o‘ldirishda, Stalin, Voroshilov va boshqa partiya xodimlariga nisbatan suiqasd tayyorlashda ayblanadilar. Sud jarayonida ayblangan 16 kishi oliy jazoga hukm qilinadi. Mamlakatning boshqa regionlarida ham shunday “sudchalar” o‘tkazilib, 160 dan ziyod kishi terrorchilikda ayblanib, otib tashlanadi¹⁹⁰. Lekin G.Yagoda tomonidan amalga oshirilgan bunday “tadbirlar” Stalin va uning atrofidagilarni qoniqtirmaydi, ularning nazarida bunday jarayonlar 4 yil oldin amalga oshirilishi kerak bo‘lgan. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun Ichki ishlar xalq komissari lavozimiga N.I.Ejov tayinlanadi (1936 yil 26 sentyabrda) va unga katta vakolatlar beriladi. SHu tariqa Stalin va u rahbarlik qilgan Siyosiy byuro 1937 yilda boshlanadigan Katta qirg‘inga NKVD (Ejov) va SSSR prokuraturasiga (Vishinskiy) ishochli vakillarni tayinlab, ularga bu vazifani topshiradi.

1937 yil fevral oyida Butunittifoq Kommunistik Partiyasi Markaziy komiteti kadrlar boshqarmasi boshlig‘i G.M.Malenkov tomonidan I.V.Stalinga topshirilgan dalolatnomada: partiya saflarida o‘tkazilgan “tozalash”lar hamda ko‘plab mansabdor xodimlarni ishdan bo‘shatilishi natijasida 1,5 million atrofida “xafa” bo‘lgan shaxslarning qatlami vujudga kelganligi va ular davlat uchun xavf tug‘dirayotgani ko‘rsatiladi¹⁹¹.

Bu raqam Stalin rahbarlik qilgan davrni o‘rganishga bag‘ishlangan boshqa adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarda ham tasdiqlanadi. Xususan, qatag‘on avjiga chiqqan 1937-1938 yillarning 15 oyi mobaynida 1,5 million odam hibsga olinib, ularning yarmi otilgani haqidagi ma’lumotlarni ko‘plab uchratish mumkin¹⁹². SHu tariqa nafaqat sovet ittifoqi balki butun dunyoga shov-shuvli va ittifoq xalqlari uchun ayanchli bo‘lgan qatag‘onning yangi to‘lqini “Katta terror” boshlanib ketdi.

¹⁹⁰ Каримов Н. “Катта қирғин”нинг келиб чиқиш сабаблари ва омиллари. - Тошкент: Фан, 2013. - Б. 20.

¹⁹¹ Кара-Мурза С. Советская цивилизация. От начала до Великой победы. - Москва: Алгоритм; Эксмо, 2005. - С.510.

¹⁹² Петров Н. Янсен М. Сталинский питомец – Николай Ежов. - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОСПЭН); Фонд Первого Президента России Б.Н.Ельцина, 2008. - С.5.

Xususan, 1937 yil 28 iyunda O‘zbekiston SSR IIXK tomonidan O‘zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komitetiga topshirilgan maxsus xabarnomada: “O‘zbekiston hududida diniy ulamolar tomonidan aksilinqilobiy harakatlar kuchayganligi haqidagi ma’lumotlar asosida may-iyun oylarida bir nechta milliy aksilinqilobiy tashkilotlar va guruhlar aniqlanib, ular tugatildi. Natijada ushbu kategoriyaga kiruvchi jinoyatlarni sodir etgan 127 nafar odam qamaldi, shuningdek, yana 54 ta dindorni hibsga olish uchun ko‘rsatma berilgan”¹⁹³ – deb ta’kidlanadi.

1937 yil 5 iyuldan boshlab Butunittifoq Kommunistik Partiyasi Siyosiy byurosida “antisovet elementlarni tekshirish bo‘yicha uchliklar” tarkibi muhokama qilina boshlandi. Shu kuni O‘zbekiston SSR bo‘yicha Ikromov, Boltaboev, Zagvozdindan iborat “uchlik” tarkibini tasdiqladi. 1489 kishini otib o‘ldirish va 3952 kishini surgunga jo‘natish rejasini ma’qulladi. Qoraqalpog‘iston ASSR bo‘yicha uchlik tuzilmadi, ammo, 300 quloq otib o‘ldirishga, 400 quloq surgunga va otib o‘ldiriladiganlarning oilalarini ham surgun qilishga qaror qilindi¹⁹⁴. Shu yili 30 iyulda SSSR IIXK tomonidan “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni repressiya qilish operatsiyasi to‘g‘risida”gi №00447 operativ buyruq qabul qilinib, unga asosan ittifoq miqyosida terror boshlanib ketdi.

Ushbu buyruqning ijrosini ta’minlash jarayonida ittifoq miqyosida ommaviy terror avj oldi. Nazorat va jazo organlari tomonidan aybsiz kishilar ustidan soxta ishlar to‘qib chiqarilib¹⁹⁵, ommaviy hibslar uyushtirildi, minglab jamoat arboblari, ishchilar, dehqonlar, din vakillari sudsiz-so‘roqsiz jazoga muhtalo qilindi. Kommunistik mafkura shu asnoda mavjud tuzumning mohiyatini tushunib etadigan aholining ilg‘or ziyoli qismini (millatidan qat’iy nazar) yo‘qotishga harakat qildi. Ma’lumotlarda keltirilishicha, o‘ylab topilgan soxta ayblovlar bo‘yicha O‘zbekistonda 1937-1939 yillarda hammasi bo‘lib 41 mingdan ziyod

¹⁹³ ЎзР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 656-иш, 144-варақ.

¹⁹⁴ Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929–1959 йиллар). - Тошкент: Sharq, 2012. - Б.327.

¹⁹⁵ ЎзР ПДА, 58-фонд, 15-рўйхат, 135-иш, 1-3, 26-28-варақлар.

kishi qamoqqa olindi, 37 mingdan ortiq kishi jazolandi va 6920 kishi otib tashlandi¹⁹⁶.

Umuman olganda 1930 yillarning ikkinchi yarmidan 1938 yilning bahorigacha olib borilgan ommaviy qatag'onlar oqibatida respublikada faoliyat yuritgan rahbar xodimlar va xo'jalik sohasidagi milliy intellegensiya vakillarining 60 %dan ortig'i qatag'onga uchradi¹⁹⁷.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, O'zbekiston bo'yicha 1937 yilda 14 ming 873 ta, 1938 yilda esa 20 ming 641 ta, binobarin, jami 35 ming 534 kishi qamoqqa olingan. Lekin bu ma'lumotlar ham qat'iy bo'lmay, O'zbekiston bo'yicha qancha kishining qamoqqa olingani, otilgani, lagerlarga jo'natilgani va qancha kishining aybsiz otilib, ozod qilingani haqida aniq ma'lumotlar yuzaga kelmagan¹⁹⁸.

Umuman olganda bu davrda o'tkazilgan qatag'onlik siyosatiga sovet davridayoq tegishli munosabat bildirilib, baho berilgan bo'lsada, bugungi kun tadqiqodchilar orasida ham bu masalaga oid turli qarash va fikrlar mavjud. Jumladan ayrim mutaxassislar fikricha (Rossiya Federatsiyasi), "ayrim paytlarda bilib turib (ratsional ravishda), gohida fahmlamasdan millionlab hamyurtlarining o'limiga sharoit yaratgan yoki befarq bo'lgan siyosiy yo'l boshchi (lider) – vatanparvar emas. Milliy manfaatlarni himoya qilish o'z davlati fuqarolarini otib tashlash evaziga amalga oshirilmaydi, agar u katta miqdorda bo'lmasa ham. XX asrning 30 yillarida amalga oshirilgan terror insonlarni mustaqil qaror qabul qilishi borasida passivlik va qo'rquv holatiga olib keldi. Oxir oqibatda ozodlikda mustaqil fikrlaydigan insonlar juda ham kam qoldi"¹⁹⁹.

Sovet davrida amalga oshirilgan repressiyalar shunday shiddat bilan o'tkazildiki, bu jarayonda hech kim ayab o'tirilmadi, hatto bu yillarda shunday vaziyatlar yuzaga keldiki, ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan xodimlar ham

¹⁹⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарқ. 2000. - Б.326.

¹⁹⁷ Ишанходжаева З. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг). - Ташкент: Тафаккур, 2011. - С.116.

¹⁹⁸ Каримов Н. 1937-1938 йиллардаги "Катта қирғин"нинг фожиали оқибатлари. - Тошкент, 2015. - Б. 6-7.

¹⁹⁹ Рудман М.Н. Категория эффективного менеджмента в оценке роли И.В.Сталина в Великой отечественной войне. // История государства и права. 2015, № 14. - С.50.

qatag'on qurboniga aylandi. Bu borada Rossiya Federatsiyasida maxsus ravishda tadqiqotlar o'tkazilib, turli sohadagi mutaxassislar tomonidan 20 yildan ortiq davr mobaynida qatag'on yillari repressiyaga uchragan NKVD xodimlari haqida ma'lumotlar yig'ildi va nashr etildi²⁰⁰. Unda ko'rsatilishicha, bu davrda Ichki ishlar xalq komissarligi – Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasida faoliyat yuritgan xodimlardan ittifoq miqyosida 1933 yilda – 738 ta, 1934 yilda – 2860 ta, 1935 yilda – 6249 ta, 1936 yilda – 1945 ta, 1937 yilda – 3837 ta, 1938 yilda – 5625 ta, 1939 yilda – 1364 ta, umumiy 22618 nafar xodim qatag'on qilingan. Undan tashqari 1939 yilda IIXK tizimidagi organlardan 7372 nafar xodim ishdan bo'shatilgan²⁰¹.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, ular orasida davlat xavfsizligi komiteti xodimlari bilan birga, militsiya va yong'in xavfsizligi xodimlari, IIXKning ichki qo'shin xizmatchilari, Lagerlar bosh boshqarmasi tizimidagi xodimlar hamda nikohni qayd etish xizmati ishchilari ham bo'lgan²⁰².

Bu borada ya'ni, O'zbekiston ichki ishlar organlari tizimidagi xodimlarning qatag'on qilinishi bilan bog'liq maxsus tadqiqot olib borilmaganligi sababli yuqorida yillar misolida ko'rsatilgan ma'lumotlarning respublika misolidagi aniq raqamlarni keltirish qiyin masala. SHunday bo'lsada arxiv hujjatlari va Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi arxivi fondlaridan olingan ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Mazkur jarayonlar shu darajada ziddiyatliki, qatag'on to'lqini eng yuqori pallaga ko'tarilgan paytda O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari lavozimida faoliyat yuritgan shaxsning o'zi (Apresyan) 1939 yilning 9 fevralida qamoqqa olinib, 1940 yil 19 yanvarda otib tashlangan edi²⁰³.

²⁰⁰ Тўплам 1977-1997 йиллар мобайнида кўплаб мутахассислар ва Россия Федерациясидаги турли архивлар ходимларининг иштирокида, шунингдек, АҚШ, Германия, Швейцария ва Нидерландия давлатларининг тадқиқот институтлари ҳамда фондлари билан ҳамкорликда йиғилган бирламчи манбалар асосида ёзилганлиги учун алоҳида таҳсинга лойиқ.

²⁰¹ Петров Н.В., Скоркин К.В. Кто руководил НКВД 1934–1941. Справочник. - Москва, 1999. - С.90.

²⁰² Шу ўринда қайд этиш лозимки, китобда келтирилган маълумотларда ҳибсга олинган ИИХК ходимлари таркибида “халқ душмани” сифатида ёки аксилинқилобий характерга эга жиноятлари учун қамалганлар билан бирга, улар орасида мансабни суусътемом қилиш ва бошқа жиноятлари учун қамалганлари ҳам бўлган.

²⁰³ Каримов Н. 1937-1938 йиллардаги “Қатта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. - Тошкент, 2015. - Б. 9.

O‘zbekiston miqyosida qatag‘onga uchragan ichki ishlar xodimlari juda ko‘p bo‘lib, masalan, Qoraqalpog‘istonlik I.Nurullaev 1925 yil avgustda Qoraqalpog‘iston viloyat ijroiya komitetining qarori bilan Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatining militsiya bo‘limi boshlig‘i lavozimiga tayinlanadi. 1928 yilda RSFSR jinoyat kodeksining 109 moddasi bilan “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinadi va 7 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Jazoni o‘tab bo‘lib uyiga qaytganidan so‘ng, 1937 yilda yuqorida ta’kidlangan modda bilan yana hibsga olinib, 10 yilga jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladi²⁰⁴.

1936 yil 19 yanvarda aksilinqilobchilik va kommunistik partiya g‘oyalariga qarshi chiqqanlikda ayblanib Toshkentda S.Alixodjaev hibsga olinadi. U Kommunistik partiya a‘zosi bo‘lib, O‘zbekiston SSR Ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida faoliyat ko‘rsatgan edi. S.Alixodjaevning aybi to‘liq isbotlanmagani sababli u 4 yilga ozodlikdan mahrum etiladi²⁰⁵.

Qatag‘on to‘lqini avj olgan yillarda hibsga olingan ichki ishlar xodimlaridan biri In‘omjon Mo‘minov edi. U Buxoro okrugi ichki ishlar xalq komissarligida faoliyat yuritayotgan paytida uning akasi huquqshunos olim Muhammadjon Mo‘minov qamoqqa olinadi va 1938 yilning 4 oktyabrida otuvga hukm qilinadi. Muhammadjonning ukasi In‘omjon Mo‘minov ham uzoq davom etgan dahshatli so‘roqlardan keyin, 1938 yilning 9 oktyabrida otib tashlanadi²⁰⁶.

O‘sha davrda nohaq qatag‘on qilinib keyinchalik ichki ishlar organlarida turli rahbarlik lavozimida ishlaganlardan biri Andijonlik U.SHokirov edi. U Andijon shahrida maktab direktori lavozimida ishlab turgan paytida “siyosiy ruhdagi” ayblar bilan 1937 yilda hibsga olingan. Lekin tergov jarayonida uning aybi isboslanmagani sababli qo‘yib yuborilgan. U.SHokirov 1940 yilda Jalaquduq rayoni ichki ishlar bo‘limiga ishga o‘tib, 1943 yilda SHaxrixon, 1951 yilda Paxtaobod tumani ichki ishlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, 1963 yildan Andijon

²⁰⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қошидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи архиви, 315-иш, 3749-варақ.

²⁰⁵ ЎзР ПДА, 58-фонд, 12-рўйхат, 640-иш, 80-82-варақлар.

²⁰⁶ Ирзаев Б. Қисмат. // Нуқуқ ва бurch. №. 10. 2017. - Б.36-37.

viloyat ichki ishlar boshqarmasi soqchilar bo‘linmasi boshlig‘i kabi lavozimlarda ishlab, nafaqaga chiqqan edi²⁰⁷.

Tahlil etilayotgan yillarda militsiya organlari o‘zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarni bajarishda davom etdi. Jumladan, 1937 yil iyunda Ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasi rahbarligida Toshkent oziq-ovqat sanoati xodimlarining katta miqdorda go‘sh t mahsulotlarining noqonuniy savdosi bilan bog‘liq jinoiy ishlari fosh etildi. Jinoyatchilar tomonidan davlat mulkini o‘marish va xalqni (xaridorlarni) aldash holatlari sodir etilgani aniqlanib, jinoiy guruhning 17 ta ishtirokchisi hibsga olindi (O‘zbekiston SSR Militsiya bosh boshqarmasi boshlig‘i Romanovning 1937 yil 20 iyunda topshirgan hisobotidan)²⁰⁸.

O‘zbekiston SSR IIXK xodimlari tomonidan 1937 yil 11 sentyabrdan boshlab, respublikada paxta yig‘im-terimining olib borilishi jarayonidagi vaziyatni o‘rganish uchun joylarda tezkor taftish ishlari o‘tkazilishi natijasida bir qator muammolar aniqlanadi. Eng asosiy muammo bu mehnatkashlarga ajratilgan maosh va boshqa moddiy rag‘batlantirishlarning o‘z vaqtida etib bormasligi bo‘lib, sentyabr oyida respublika bo‘yicha paxta terimi uchun ishchilarga tarqatilishi zarur bo‘lgan 119 million rubldan amalda 86 millioni maosh tariqasida berilgan.

Bunday holat kolxoz raislarining topshirilgan paxta uchun avanslarni to‘liq tarqatilmaganligi bilan izohlanadi. Bu borada Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasidan kelgan ma‘lumotda ko‘rsatilishicha, Kalinin kolxozida mehnatkashlarning bir kunlik ish haqi 2 rubl 75 tiyinga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, kolxoz raisi T.Abdurasulov tomonidan 1 rubl 70 tiyin tarqatilgan. Oqibatda 293 nafar mehnatga layoqatli kishilardan, ishga bor-yo‘g‘i 144 ta (49%) odam chiqqan.

Termiz okrug Ichki ishlar boshqarmasidan kelgan hisobotda esa Bauman nomli kolxozda 30 sentyabrgacha ishchilarning bir kunlik ish haqi 5 rubl miqdorida belgilangan bo‘lsada, amalda 3 rubl tarqatilgan. Ushbu holatlar yuzasidan kolxoz raislari va boshqa aloqador shaxslarga nisbatan jinoiy ish

²⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қошидаги Қатағон курбонлари хотираси музейи архиви, 112-иш, 913-варақ.

²⁰⁸ ЎзР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 656-иш, 151-154-варақлар.

qo'zg'atilgan va bartaraf etish choralari qo'llanilgan (bunday mazmundagi ma'lumotlarni yana ko'plab keltirish mumkin)²⁰⁹.

IIXK tomonidan O'zbekiston SSR Kommunistik Partiyasi Markaziy Komitetiga topshirilgan dalolatnomada (1937 yil sentyabr) qayd etilishicha, "respublika bank-moliya tizimida o'tkazilgan reviziyalar jarayonida IIXKning Xorazm okrug boshqarmasi tomonidan Respublika Davlat banki Xorazm bo'limining bir qator xodimlari ustidan jinoiy ishlar qo'zg'atiladi. Sababi tekshiruvlar natijasida ushbu bankning bir guruh xodimlari va unga tegishli bo'lgan joylardagi hisob kassalarining ishchilari tomonidan hisobotlarni chalkartirish evaziga bir necha yillar davomida talon-taroj va o'g'rilik uyushtirilganligi aniqlanadi. Oqibatda davlat bankining Xorazm bo'limi tomonidan umumiy miqdori 875 ming 137 rublga teng zarar etkazilgan. Mazkur holat bo'yicha 7 ta shaxs ustidan jinoiy ish qo'zg'atilib, Davlat bankining Xorazm bo'limi boshlig'i zudlik bilan ishdan bo'shatilgan²¹⁰.

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, 1937 yil 25 noyabrda IIXK Militsiya bosh boshqarmasi Temir yo'l bo'limi xodimlari tomonidan 1936-1937 yillarda Toshkent shahrida o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan, xususan, insonlarning joniga suiqasd uyushtirgan va 8 marta odamlarni to'nagan 5 ta a'zodan tuzilgan jinoiy guruh qo'lga olinadi. Tergov va surishtiruv ishlari jarayonida ta'kidlangan jinoyatlardan tashqari ushbu guruh tomonidan temir yo'l vagonlaridan katta miqdorda turli ko'rinishdagi yuklar ham o'g'rilangani ma'lum bo'ldi. Ichki ishlar xodimlari tomonidan ushbu jinoiy ishlar oxiriga etkazilib, sudga topshirilgan²¹¹.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tadqiq etilayotgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jarayonlarning xususiyatlaridan biri – bu turli ko'rinishdagi noqonuniy hatti-harakatlarga siyosiy tus berilishidir. Bu haqda bir qator hujjatlar guvohlik beradi. Masalan, O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari tomonidan O'zbekiston SSR Kommunistik Partiyasi Markaziy Komitetiga topshirilgan hisobotda (1937 yil 10 mart) O'zbekistonda non

²⁰⁹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 656-иш, 193-196-варақлар.

²¹⁰ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 688-иш, 4-5-варақлар.

²¹¹ ЎЗР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 656-иш, 240-241-варақлар.

mahsulotlarini saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan aniqlangan kamchiliklar quyidagicha izohlanadi: “O‘zbekistonda bug‘doy mahsulotlarini saqlash va tayyorlash tizimida o‘tkazilgan tekshiruvlar jarayonida bu tizimga antisovet unsurlar kirib qolganligi, ular tomonidan non mahsulotlarini yo‘qotish maqsadida zaharlaydigan turli vositalar ishlatilgani, bu soha xodimlari (ayrimlari) non mahsulotlarini buzilishi uchun oldindan antisanitar holatlarni sun‘iy ravishda yuzaga keltirgani, yig‘ilgan yangi hosilni qabul qilishdan oldin xo‘jalik omborlari maxsus ravishda yaroqsiz ahvolga olib kelingani aniqlanib, bunday ko‘rinishdagi zararkunandalik uchun Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Buxoro, Kattaqo‘rg‘on, Xorazm va Qo‘qondagi bug‘doy mahsulotlarini tayyorlash va saqlash bazalaridan 72 ta jinoyatchi qo‘lga olinib, sudga topshirildi”²¹².

Hisobotning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, respublika bug‘doy mahsulotlarini tayyorlash tizimidagi kamchiliklarga bunday ko‘rinishda tus berilishi bu shu davrdagi siyosiy vaziyatning jamiyat hayotining barcha sohalariga qilgan ta‘sirining mahsulidir. To‘g‘ri bu sohada kamchiliklar, kamomad yoki boshqa toifaga kiruvchi jinoiy alomatlar bo‘lganligini inkor etmagan holda, bu masalaning shu darajada siyosiy lashtirilishini tushuntirish qiyin, balki bunday holat bu davrda ittifoq miqyosida o‘tkazilgan musobaqalar, ya‘ni raqamlar ortidan quvishning bir ko‘rinishidir.

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilayotgan yillarda ittifoq miqyosida ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va mafkuriy jihatdan murakkab vaziyat yuzaga keldi. XX asr 30 yillarining ikkinchi yarmida jamiyatda avj olgan repressiv siyosat o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilib, tarixga “katta terror” nomi bilan kirdi.

Bu davrda olib borilgan ommaviy qatag‘onlar oqibatida respublikada faoliyat yuritgan eng ilg‘or rahbar xodimlar va xo‘jalik sohasidagi milliy intellegensiya vakillarining katta qismi asossiz ravishda hibsga olinib. qatag‘on qilindi (milliy rahbarlarning ko‘pchiligi otib tashlandi).

²¹² ЎзР ПДА, 58-фонд, 13-рўйхат, 656-иш, 186-192-варақлар.

Bu paytda ushbu qatag'onlarning bevosita ijrochisi bo'lgan nazorat va jazo tashkilotlarining boshqaruv tizimi va strukturasi bir qator o'zgarishlar amalga oshirilib, Ichki ishlar xalq komissarligida bir-biriga bo'ysunmaydigan ikkita tashkilot militsiya organlari va davlat xavfsizligi boshqarmalari faoliyat olib bordi. Militsiya organlari xodimlari asosan jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash, faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga oid farmon, farmoyish buyruqlar va ko'rsatmalarning ijrosini ta'minlashda davom etgan bo'lsa, davlat xavfsizligi boshqarmasi xodimlari "siyosiy ko'rinishdagi jinoyatlarni" fosh etish, ularga aloqador shaxslarni aniqlash va ularni qatag'on qilishda faollik ko'rsatishgan edi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, ayrim paytlarda vaziyatda kelib chiqqan holatda militsiya xodimlari ham qatag'on jarayonida ishtirok etgan. Xususan, joylarda (asosan chekka hududlarda) ulardan gumondor shaxslar haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlashda, o'rni kelganda "aksilinqilobchi yoki siyosiy jinoyatchi" deb topilganlarni hibsga olishda hamda boshqa vazifalarni bajarishga militsiya xodimlari jalb etilgan.

Bu davrdagi siyosiy repressiyalarning yana bir xususiyati shunda ediki, qatag'on yillarida aholining hech bir qatlami ayab o'tirilmadi. Hatto bu jarayonlarning ijrochisi bo'lgan ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan xodimlar ham turli ko'rinishdagi qatag'onlar qurboni aylandi. Ma'lumotlarning guvohlik berishicha, bu paytda ittifoq miqyosida minglab xodimlar qatag'onga uchragan va xizmatdan bo'shatilgan. Bu jarayonda respublikada ham ko'plab ichki ishlar idoralari xodimlari ustidan jinoiy ishlar qo'zg'atilib, ular qamoqqa olingan edi.

Tadqiq etilayotgan yillarda militsiya organlari xodimlari asosiy vazifasi bo'lgan aholi xavfsizligini ta'minlash, jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash, turli ko'rinishdagi jinoyatlarni fosh etish va oldini olish borasida faoliyat olib borib, jumladan, Toshkent shahrida o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan jamiyat uchun katta xavf tug'dirgan jinoiy guruh qo'lga olindi, shuningdek, Xorazm viloyatida bank tizimida moliyaviy-iqtisodiy kamomad va o'marishlar bilan bog'liq jinoyatlar,

O‘zbekistonda bug‘doy mahsulotlarini saqlash tizimidagi va boshqa qator jinoiy ishlar fosh etildi.

Tayanch so‘zlar

Respublika, siyosat, repressiya, davlat, kommunistik partiya, siyosiy kotibiyat, qatag‘on, uchlik, harbiy komitet, sud, huquq, prokuratura, NKVD, OGPU, jinoyat, lager, kollegiya, komissiya, tergov.

Savol va topshiriqlar

1. XX asrning 30 yillarida Ichki ishlar xalq komissarligi tizimida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
2. “Katta qirg‘in” nomi bilan tarixga kirgan qatag‘onliklarning boshlanish sabablarini aytib bering.
3. 1936-1939 yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan qatag‘onliklarda kimlar qatag‘on qilindi?
4. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda 1937-1938 yillarda respublika miqyosida qatag‘on qilinganlarning soni haqida qanday ma‘lumotlar keltirilgan?
5. Qatag‘on o‘tkazilgan yillarda shu jarayonning ijrochisi va ishtirokchisi bo‘lgan IIXK xodimlari ham hibsga olinganmi?
6. XX asrning 30 yillarida o‘tkazilgan qatag‘onlarning xususiyatlari, uning oqibatlarini haqida fikrlaringizni bildiring.

2.2-ma'ruza. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston ichki ishlar idoralarining faoliyati (1941-1945 yillar)

Reja

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, Xalq xo'jaligining harbiy izga o'tkazilishi, ichki ishlar organlarining vazifa va vakolatlarini kengaytirilishi.
2. O'zbekiston SSR IIXK xodimlarining jang maydonlariga safarbar etilishi.
3. Militsiya organlari xodimlarining front ortidagi faoliyati.
4. Ichki ishlar organlari xodimlarining jang maydonlarida ko'rsatgan jasorati.

Dunyo tarixida ko'plab harbiy to'qnashuvlar, kurashlar bo'lib o'tgan bo'lsada, XX asr fojiasi, ikkinchi jahon urushi insoniyat uchun misli ko'rilmagan salbiy jarayonlar bilan kechdi, hatto uning ayanchli oqibatlari bugungi kungacha ham etib kelgan.

Fashistlar Germaniyasi sovet ittifoqi hududiga bostirib kirgandan so'ng (1941 yil 22 iyun), 1941 yil 30 iyunda I.V.Stalin boshchiligida Davlat Mudofaa Qo'mitasi tashkil topdi. Davlat Mudofaa Qo'mitasi qo'lida davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat to'plangan edi²¹³. Urush sharoitida sovet qurolli kuchlariga strategik rahbarlikni amalga oshiruvchi favqulodda organ sifatida Stalin boshliq Oliy Bosh qo'mondon Qarorgohi tashkil etildi. Stalin Oliy Bosh Qo'mondon lavozimini qabul qilib, barcha muhim harbiy-siyosiy qarorlarni ishlab chiqishga boshchilik qildi²¹⁴.

Urush sharoitidan kelib chiqqan holda, davlat tashkilotlarining strukturasi, ularga yuklatilgan vazifa va vakolatlarda bir qator o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, 1941 yil 20 iyulda SSSR Oliy Kengashi prezidiumining SSSR Davlat xavfsizligi komissarligi va SSSR Ichki ishlar xalq komissarliklarini bitta

²¹³ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 7 (1938-1945 гг.). - Москва. Изд. полит. лит., 1985. - С.224.

²¹⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. - Тошкент: Шарк. 2000. - Б.434.

IIXKga birlashtirish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi²¹⁵ (shu o'rinda ta'kidlash joizki, 1941 yil 3 fevralda SSSR IIXK va uning joylardagi bo'limlari 2 ga, ya'ni IIXK va DXXKlariga bo'lingan edi²¹⁶. 1943 yil aprelda esa IIXK yana 2 ta mustaqil mustaqil komissarlikka ajratiladi). Bundan ko'zlangan asosiy maqsad "mamlakatda jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, chet el agenturasi faoliyati va jinoyatchilikni oldini olishdagi ishlarni takomillashtirishdan iborat" deb ko'rsatildi.

Tadqiq etilayotgan yillarda militsiya organlarining strukturasi quyidagicha bo'lgan:

- SSSR IIXK militsiya bosh boshqarmasi;
- ittifoqdosh respublikalar IIXK militsiya boshqarmasi;
- viloyatlar, yirik shaharlar IIXK boshqarmasi bo'limlari;
- shahar va rayon militsiya bo'limlari;

O'zbekiston SSR IIXK militsiya boshqarmasi strukturaviy jihatdan quyidagi bo'limlardan: kotibiyat, safarbar qilingan inspeksiya, siyosiy bo'lim, jinoyat qidiruv bo'limi, davlat (sotsialistik) mulkini talon-taroj qilishga qarshi kurashish bo'limi, maxsus bo'lim, pasport bo'limi, chet elliklarni ro'yxatga olish bo'limi, jangovar tayyorgarlik va xizmat bo'limi hamda davlat avtomobil inspeksiyasi kabi bo'limlaridan iborat bo'lgan²¹⁷.

Ma'lumotlar guvohlik berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga frontga borish istagi bilan kelib turgan arizalar oqimi o'zbekistonliklarning milliy vatanparvarlik ruhi yuksakligining namunasi bo'lgan. Mazkur arizalarni turli kasbdagi va har xil millatga mansub kishilar, erkaklar va ayollar, yoshlar va keksalar, partiyali va partiyasizlar bergan edilar. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga

²¹⁵ Харченко О.В. Государственное управление в сфере полицейской деятельности в России: советский и постсоветские периоды. // История государства и права. 2008, № 10. - С.31.

²¹⁶ Лубянка: Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1991. Справочник. Под. ред. акад. А.Н.Яковлева: авторы - сост.: А.И. Кокурин, Н.В.Петров. Москва: МФД, 2003. - С.72.

²¹⁷ Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы ВОВ (1941-1945 гг). Диссертация на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. -Ташкент, 1972. - С.41.

ko'ngillilardan 14 mingdan ortiq ariza tushgan²¹⁸. Ariza berganlarning ko'pchiligi urush boshlangan dastlabki kundanoq ko'ngillilar safida frontga jo'nab ketgan bo'lib, ular orasida militsiya xodimlari ham bor edi. Xususan, urush boshlangan ilk oylarda ichki ishlar idoralaridan ittifoq miqyosida shaxsiy tarkibning o'rtacha 25 % xodimi janglarga ketgan bo'lsa²¹⁹, O'zbekiston SSR IIXKning buyrug'i asosida respublika bo'yicha rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan 57 nafari tezkor ravishda Qizil Armiya saflariga yuborildi²²⁰. Ulardan tashqari Toshkent militsiya maktabi tinglovchilarining 50%i, Samarqand militsiya organlari xodimlaridan 149 kishi, Toshkent Temir yo'li militsiyasi bo'limining 204 nafar eng yaxshi xodimlari o'zbek milliy divizitsiyasi, shuningdek, general Panfilov diviziyasi safida jangga kirdilar²²¹.

Militsiya xodimlarining urushga safarbar etilishi natijasida ichki ishlar idoralarining shaxsiy tarkibida kadrlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Bu masalani hal etish maqsadida O'zbekiston SSR IIXK tomonidan 1941 yil 27 iyunda maxsus buyruq chiqarilib, unga asosan Toshkent militsiya maktabining 2 kurs talabalari iyun oyida (68 nafar)²²², 4 oktyabrda esa birinchi kurs talabalari muddatidan oldin o'qishni tugatib, militsiya organlarida ishlash uchun yo'llanma oldilar.

Ittifoq miqyosida Xalq xo'jaligini harbiy izga o'tkazilishi jarayonida O'zbekiston SSR IIXK tomonidan 1941 yil 30 iyunda "Ichki ishlar shaxsiy tarkibi xodimlariga ta'til berishni bekor qilish va ta'tildagi xodimlarni xizmatga chaqirib olish to'g'risida" buyruq e'lon qilindi. Ushbu buyruq asosida shu yil 31 iyunda O'zbekiston SSR IIXK tomonidan barcha viloyatlarga tarib-intizom va xavfsizlikni mustahkamlash, jinoyat qidiruv borasida olib borilayotgan tezkor tadbirlarni yanada kuchaytirish hamda militsiya organlarida rahbarlarning sutkalik navbatchiligini tashkil etish, jinoyat sodir etilgan joylarda hududiy rahbarlarning

²¹⁸ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019. - Б.11.

²¹⁹ Емелин С.М. Организационно-правовые основы работы по укреплению дисциплины среди личного состава внутренних дел в годы Великой Отечественной войны (1941-1945). // История государства и права. 2015, № 9. - С.16.

²²⁰ Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги музейи экспозициясидан (экспозицияда ҳар бир ходимнинг иш фаолияти ҳақида қисқача маълумотлар ҳам келтирилган).

²²¹ Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.54.

²²² Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы ВОВ (1941-1945 гг). Диссертация на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. -Ташкент, 1972. - С.42.

bevosita ishtirokini ta'minlash to'g'risida ko'rsatmalar tarqatildi²²³. Natijada ichki ishlar xodimlariga yuklatilgan vazifa va vakolatlar doirasi yanada kengaytirildi.

SHu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiq etilayotgan yillarda ittifoq miqyosida ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalar ma'lum darajada hududiy jihatdan farqlangan. Masalan, frontga yaqin joylardagi ichki ishlar idoralari xodimlari nizomda belgilangan vazifalarni bajarish barobarida, 1941 yil 29 iyunda SSSR XKS va Kommunistik Partiya Markaziy Komitetining "Front yaqinidagi viloyatlarning partiya va sovet tashkilotlariga" nomli yo'riqnomada belgilangan ko'rsatmalarning ham ijrosini ta'minlangan. Yo'riqnomada ichki ishlar idoralari xodimlariga dushman parashyutchilari²²⁴, ayg'oqchilari va xoinlarga qarshi qurolli kurash olib borish, harbiy jinoyatchilarni ro'yxatga olish²²⁵, harbiy buyruqlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, xizmatdan qochib yurganlarni aniqlash va ularga tegishli chora ko'rish, zavodlar, elektrostansiya, ko'priklar, telefon, telegraf hamda boshqa aloqa vositalarini qo'riqlash²²⁶ kabi vazifalar yuklatildi.

O'zbekiston ichki ishlar idoralariga yuklatilgan vazifalar ham xilma-xil bo'lib, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi vazifalar yuklatilgan: a) jamoat joylarida tartib-intizomga rioya qilinishini ta'minlash, b) yo'llarda harakat xavfsizligini nazorat qilish (transportdan foydalanish, yo'llarda qurilish va ta'mirlash ishlarini samarali olib borishda ishtirok etish), v) turli xil tabiiy ofatlar sodir bo'lganda aholiga har tomonlama yordam ko'rsatish, ularning mol-mulkini muhofaza qilish, g) baxtsiz hodisa va jinoyatchilardan talofat ko'rgan insonlarga birinchi yordam ko'rsatish, ularni kasalxonalariga joylashtirish, d) pasport tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish²²⁷ (mamlakat fuqarosi va chet elliklarni doimiy va vaqtincha ro'yxatga olish, ularni

²²³ Самарқанд вилояти ИИБ Ахборот марказининг махсус фонди, Общие приказы, 44-варақ.

²²⁴ Гутман М.Ю. Правовой механизм укрепления дисциплины в органах милиции в годы Великой Отечественной Войны 1941-1945 гг. // История государства и права. 2009, № 10. - С.29.

²²⁵ Глушаченко С.Б., Шатилов С.П. Борьба органов милиции с преступлениями, посягавшими на ослабление боеспособности Красной Армии, в годы Великой Отечественной Войны. // История государства и права. 2008, № 12. - С.31.

²²⁶ Война и общество 1941-1945. Книга 2. Отв. редактор академик Г.Н. Севостьянов. - Москва: Наука, 2004. - С. 360.

²²⁷ Шатилов С.П. Деятельность милиции районов тыла по обеспечению исполнения конституционных обязанностей гражданами СССР в годы великой отечественной войны. // История государства и права. 2005, № 3. - С.44.

harbiy majburiyatini tekshirish va b.), e) militsiya organlariga berilgan vakolatlar doirasida ma'muriy jarimalarni undirish ishlarini jadallashtirish va boshqalar.

Jinoyatga qarshi kurashishda esa quyidagi vazifalarni bajargan: a) jinoyatlarni oldini olish va to'xtatish, sud, prokuratura xodimlaridan yashiringan shaxslarni qidirish, b) o'g'irlangan mol-mulkni topish, v) sud-huquq organlarining ko'chirish va shu hududga jo'natilgan insonlar ustidan chiqarilgan hukmlarning ijrosini ta'minlash, ularning hisobi va faoliyati ustidan nazorat o'rnatish, g) yo'qolgan odamlarga qidiruv e'lon qilish va topish, d) alimentlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qidirish, e) harbiy xizmatchi va harbiy majburiyatga ega bo'lganlarning hisobini yuritish, yo) harbiy avtotransport bilan bog'liq tadbirlarda harbiy tashkilotlarga yordam ko'rsatish va boshqalar.

Urush yillarida ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalar hajmi doimiy ravishda yanada ortib borib, O'zbekiston militsiyasiga ham yangi maxsus topshiriqlar berildi. Jumladan, xalq xo'jaligi ob'ektlarini qo'riqlash, mehnat fronti va mehnat faoliyati safarbarligidan bosh tortish holatlariga qarshi kurashish, turli hududlardan evakuatsiya qilingan insonlarni nazorat qilish (ular tomonidan tarqatilishi mumkin bo'lgan noto'g'ri axborotlarning yoyilishini oldini olish)²²⁸, harbiy yuklarni talon-taroj qilishni oldini olish, oziq-ovqat va sanoat maxsulotlari hamda oziq-ovqat kartochkalari oldi-sotdisini nazorat qilish, bolalarning qarovsizligi va nazoratsizligiga qarshi kurash olib borish²²⁹, yaqinlari bilan aloqa uzilgan insonlarga ularni topishda amaliy yordam ko'rsatish va boshqalar.

1942 yil 23 yanvarda SSSR XKSning "Ota-onasiz qolgan bolalarni tegishli muassasalarga joylashtirish to'g'risidagi" qarori asosida mahalliy ijroiya ko'mitalarida maxsus komissiyalar tashkil etildi²³⁰. Bu komissiyalar ichki ishlar idoralari bilan birgalikda faoliyat yuritib, ular ota-onasiz qolgan bolalarni tarbiyalash va tegishli muassasalarga joylashtirish, ularni ish bilan ta'minlash

²²⁸ Война и общество 1941-1945. Книга 2. Отв. редактор академик Г.Н. Севостьянов. - Москва: Наука, 2004. - С. 365.

²²⁹ Гусак В.А. К вопросу о классификации функций советской милиции в военный период (1941-1945гг.) // История государства и права. 2010, № 24. - С.3.

²³⁰ Решетов Г.М. Борьба с подростковой преступностью в Советской России. // История государства и права. 2007, № 11. - С.29.

barobarida, voyaga etmaganlarning haq-huquqini himoya qilish va ularni nazoratsiz qolishini oldini olish bilan shug'ullanishi jarayonida militsiya huzuridagi bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining soni ko'paydi. 1942 yil 1 dekabrda RSFSRning 22 ta viloyatiga 1808 ta bolalar uylari va muassasalar evakuatsiya qilinib, ularga 204648 nafar yosh bolalar va go'daklar joylashtirilgan bo'lsa²³¹, bu paytda O'zbekiston SSR militsiya organlari xodimlari ham evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilib olish, ota-onasiz qolgan bolalarni topish va joylashtirishda samarali faoliyat yuritishdi²³². Faqat 1943 yilning 9 oyi davomida 9199 nafar qarovsiz va 8896 nafar boqimsiz bolalar ro'yxatga olinib, ulardan 4959 nafari zavod va fabrika maktablari, bolalar uylari va ishga, 3663 nafari bolalar qabul punktlari va 148 tasi boshqa tashkilotlarga joylashtirildi. Toshkent temir yo'lida bolalar inspektorlari va transport militsiyasining xodimlari tomonidan 1944 yilda poezd va bekatlarda 20690 bola, shu jumladan Toshkent shoh bekatida – 6546, Turkiston shoh bekatida – 1629, Andijon shoh bekatida – 2955, Ursatevsk shoh bekatida – 3695 bola tutib olindi²³³. Ichki ishlar organlarida evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish ishlarini takomillashtirish maqsadida, 1941 yil tashkilda etilgan Militsiya bosh boshqarmasi pasport bo'limi markaziy ma'lumot byurosi ularning doimiy yashash joylarini ham ro'yxatga olib borgan. Urush yillarida ittifoq miqyosida mazkur byuroga qarindoshlarining turar joylarini so'rab, 3 million 500 mingta xat orqali murojaatlar tushgan bo'lib, militsiya xodimlari 2 million 861 mingta insonlarni yangi manzillarini xabar qilgan. Undan tashqari 20 mingta bolalar topilib, ota-onalari bag'riga qaytarilgan²³⁴. SHu o'rinda qayd etish lozimki, ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, urushning ilk kunlaridan 1943 yil may oyigacha ittifoq miqyosida 190 mingta bola ota-onasi bilan aloqani yo'qotgan²³⁵. Bunday ota-onalar va bolalarga yordam ko'rsatish har bir ichki ishlar xodimidan katta mas'uliyat talab qilgan. Surxondaryo viloyati militsiya xodimlari

²³¹ Ростова О.С. Особенности государственно-правового регулирования семейных отношений и охраны прав ребенка в период Великой отечественной войны. // История государства и права. 2015, № 22. - С.32-33.

²³² Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.23.

²³³ Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ф.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.56.

²³⁴ Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987. - С.165.

²³⁵ Блинова В.В. Деятельность детских приемников-распределителей в годы Великой отечественной войны: историко-правовой аспект. // История государства и права. 2016, № 15. - С.50.

ham bunday tadbirlarda faol ishtirok etib, 1944 yil va 1945 yilning birinchi choragida 1422 nafar qarovsiz qolgan bolalarni o‘z uylari va boshqa tegishli tarbiya maskanlariga joylashtirdilar²³⁶.

Umuman olganda urush yillarida turli hududlarda tuzilgan maxsus komissiyalar tomonidan yosh bolalarning qarovsizligi va nazoratsizligini tugatishga qaratilgan ko‘plab tadbirlar o‘tkazilib, yirik aholi yashash punktlari, temir yo‘l va boshqa joylarda militsiya huzuridagi bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining soni ko‘paytirildi. Bu xonalarning asosiy vazifasi qarovsiz qolgan bolalarni topish, tarbiyalash, bunday holatlarning sababini o‘rganish, tahlil qilish, aybdor shaxslarni prokuratura va militsiya xodimlari yordamida javobgarlikka tortish, qarovsiz bolalarni ota-onasi yoki yaqinlarini topish, ular bilan aloqa o‘rnatish va etkazib berish hamda boshqalar hisoblangan.

Quyidagi jadvalda ichki ishlar idoralari huzuridagi bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining ittifoq miqyosida 1942-1945 yillardagi faoliyati haqida ma’lumot berilgan²³⁷ (aniqlik kiritish uchun ta’kidlash kerakki, 1942 yildagi ma’lumotlar, ya’ni kelib tushgan bolalarning soni taqsimlash xonalarda mavjud bo‘lganlarning soniga qo‘shilgan, shu sababli ayrim raqamlarda tafovut kuzatiladi).

Yil	Kelib tushgan	Shu jumladan etimlar	Cpiqib ketganlar	Ota-onalarining qaramog‘iga	Bolalar uylariga	Mehnatga jalb qilinganlar	Yosh bolalar muassasalariga	Tarbiya mexnat koloniyalar	Boshqa muassasalarga
1942	130290	89347	121835	160063	75629	13718	-	-	-
1943	204578	164198	201390	39893	81419	37009	6542	4624	7973
1944	341134	179063	342947	63254	112641	48688	0441	25140	25387
1945	296432	137842	285024	66650	94223	49706	7988	23066	23391

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar yosh bolalarni ham chetlab o‘tmadi. Bu davrda qarovsiz bolalarning soni juda oshib ketdi. Qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarni

²³⁶ Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарқанд: Суғдиён, 1998. - Б. 70.

²³⁷ Блинова В.В. Деятельность детских приемников-распределителей в годы Великой отечественной войны: историко-правовой аспект. // История государства и права. 2016, № 15. - С.52.

topish va ular orasida kuchayib ketgan jinoyatchilikni kamaytirishda ichki ishlar idoralari samarali faoliyat yuritdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ichki ishlar idoralari huzuridagi bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalari O'zbekistondagi bir qator yirik shaharlar, jumladan, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va boshqa shaharlardagi temir yo'l vokzallari hamda aholi ko'p yig'iladigan joylarda tashkil etilib, ular doimiy ravishda faoliyat yuritdi²³⁸. Olib borilgan tadbirlar natijasida urush yillarida yosh bolalar orasidagi jinoyatchilik ancha kamaydi²³⁹.

Urush sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiynchiliklar oqibatida ijtimoiy muammolar keskinlashib, aholining bir qator maxsulotlarga bo'lgan ehtiyoji oshib ketdi. 1941 yil 18 iyulda SSSR XKS tomonidan ayrim oziq-ovqat va aholi uchun zarur bo'lgan sanoat maxsulotlarini muayyan normada kartochka orqali tarqatish (sotish) haqidagi qarori qabul qilingandan so'ng, aholi orasida noqonuniy savdo munosabatlarining kuchayishi, oziq-ovqat va kartochkalarni olib kelish hamda bosmaxonada bosish vaqtida ularni o'g'irlash holatlari kuzatildi²⁴⁰. Ma'lumotlarda keltirilishcha, 1941 yil iyuldan – 1944 yil aprelgacha ittifoq miqyosida noqonuniy savdo munosabatlariga oid 563640 ta jinoiy ish qo'zg'atilib, 798447 ta shaxs ayblangan. Umuman urush yillarida chayqovchilar qo'ldan umumiy hisobda qiymati 410 million 708 ming 300 rublga teng qimmatbaho buyumlar tortib olingan²⁴¹.

Bu davrda davlat (sotsialistik) mulkini talon-taroj qilishga qarshi kurashish bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan tadbirlar natijasida davlat mulkini talon-taroj qilish va o'g'rilash yuzasidan sodir etilgan jinoyatlar uchun ittifoq miqyosida 1941 yilning ikkinchi yarmida 135699 kishi, 1942 yil davomida – 152048 kishi

²³⁸ Бу ҳақда Самарқанд вилояти давлат архивининг 1039 - фондида сақланаётган ҳужжатларда кўплаб маълумотлар келтирилган (ЎзССР Ички ишлар вазирлиги тасарруфидаги 2-сонли ёш болаларни қабул қилиш ва тақсимлаш бўлими фонди).

²³⁹ Исмоилов Х. Совет милицияси – қонунчилик ва қонун тартиботининг поспони. Тошкент: Ёш гвардия, 1982. - Б. 22.

²⁴⁰ Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.24.

²⁴¹ Емелин С.М. Борьба со спекуляцией как одно из основных направлений деятельности органов внутренних дел в годы Великой Отечественной Войны. // История государства и права. 2010, № 9. - С.30.

hibsga olindi, 1943 yilda – 134416 ta, 1944 yilda – 209206 nafar shaxs ustidan shu kategoriyadagi jinoiy ishlar qo‘zg‘atildi²⁴².

Kartochka tizimi joriy etilgandan so‘ng jinoyatchilikning yangi turlari rivojlana boshladi. Uni bartaraf etish maqsadida, 1942 yil 20 martda “Aholidan oziq-ovqat maxsulotlarini o‘g‘irlash va shu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida” SSSR IIXK Militsiya bosh boshqarmasining buyrug‘i chiqarildi²⁴³. Unga asosan umumiy foydalanish joylari va transportlarda, magazin va bozorlarda oziq-ovqat va sanoat kartochkalarini o‘g‘irlash va taqsimlashdagi suiste‘molliklar hamda qalbaki kartochkalar tayyorlashga qarshi kurash borasida amaliy choralar ko‘rildi. Masalan, Tojikiston militsiya organlari bilan birgalikda, oziq-ovqat kartochkalarini bosma usulda tayyorlash bilan shug‘ullangan bir guruh jinoyatchilar fosh qilindi. Jinoyatchilardan ko‘p miqdordagi soxta talonlar va pul tortib olindi. Tergov va surishtiruv ishlari davomida Dushanbe va Toshkent shaharlaridan bosma stanoklar topildi. Shuningdek, bu jinoyatchilar guruhi tomonidan qisqa vaqt ichida 500 tonnadan ortiq non o‘g‘irlanganligi ma‘lum bo‘ldi²⁴⁴. Bunday jinoyatlar orasida O‘zbekiston hududida sodir etilgan yirik jinoyatlardan biri Toshkent shahar militsiya xodimlari tomonidan 1944 yil 29 dekabrda fosh etildi. Jinoyat qidiruv bo‘lmi inspektorlarining tezkor tadbirlari natijasida 400 tonna non mahsulotlarini olishga mo‘ljalangan qalbaki kartochkalarni ishlab chiqargan va ulardan foydalangan jinoiy guruh ushlendi. Tergov ishlari jarayonida o‘tkazilgan tintuvlar natijasida ulardan 12 million rubl naqd pul, 2100 ta oltin tanga va boshqa qimmatbaho buyumlar tortib olindi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar isbotlanib, jinoiy guruhning barcha a‘zolari oliy jazoga hukm qilindi²⁴⁵.

O‘zbekiston SSR Kommunistik Partiyasi Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan “Barcha turdagi don mahsulotlarini etkazib berish

²⁴² Хмелева А.В. Страны истории: следствие в годы Великой Отечественной войны (на основе архивных материалов по Воронежской области). // История государства и права. 2015, № 9. - С.24.

²⁴³ Шатилов С.П. Борьба милиции с преступлениями, связанными со злоупотреблениями продовольственными и промышленными карточками, в годы Великой Отечественной войны. // История государства и права. 2008, № 7. - С.31.

²⁴⁴ Жалилов Т., Холиков Р. Совет Ўзбекистони милицияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.24.

²⁴⁵ Ўзбекистон Респуоикаси Ички Ишлар Вазирлиги музейи экспозициясидан.

rejasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilingandan keyin (18-20 noyabr 1943 yil), ichki ishlar organlariga joylarda don mahsulotlarini talon-taroj qilinishini oldini olish, ularni qabul va topshirish punktlarida nazorat o'rnatish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash joylarini qo'riqlash, don va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekish va yig'ishtirib olishda ishtirok etish vazifalari yuklatildi²⁴⁶.

Shu o'rinda ta'kilash joizki, bu davrda butun sovet ittifoqining turli hududlarida bo'lgani singari, respublikada ham non mahsulotlarini o'g'irlash va noqonuniy sotish holatlari avj olib ketdi. IIXKning o'rinbosarining (A.Kabulov) O'zbekiston SSR KP MKga (9.06.1944 yilda) topshirgan hisobotida: "Ichki ishlar idoralarining faoliyati natijasida Toshkent shahridagi 5-sonli Non pishirish shohobchasining boshlig'i (Xolmuminov) va masterlari (Inoyatov va Mirzaraimov) har kuni o'rtacha 30-35 kilogramm non mahsulotlarini o'g'rilab sotganliklari uchun jinoiy ish qo'zg'atilgani, shuningdek, umuman respublika bo'yicha bir qator non pishirish shohobchalarida non mahsulotlari, paxta yog'i, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari sotilgani uchun ko'plab jinoyatchilar hibsga olingani"²⁴⁷ haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, 1942 yilda O'rta Osiyoning bir qator shaharlari – Toshkent, Olma-ota, Frunze, CHimkentda uyushgan jinoyatchilik kuchayib, ular tomonidan qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, to'nash singari xavfli jinoyatlar sodir etilgan. Bunday holatni bartaraf etish maqsadida, SSSR IIXK ko'rsatmasiga binoan, Militsiya bosh boshqarmasi tomonidan Toshkent shahar jinoyat qidiruv bo'limiga maxsus tayyorlangan xodimlar yuborildi. Ularning mahalliy xodimlar bilan birgalikda olib borgan tezkor tadbirlari natijasida qisqa muddatda Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlardan 102 ta qurolli jinoyatchilar qo'lga olindi²⁴⁸, ular orasidan ayrimlari (jamiyat uchun xavfli deb topilganlari) oliy jazoga hukm qilindi²⁴⁹. Natijada Toshkent shahrida og'ir

²⁴⁶ ЎзР МДА, 904-фонд, 1-рўйхат, 296-иш, 48-49-варақлар.

²⁴⁷ ЎзР ПДА, 58-фонд, 20-рўйхат, 249-иш, 190-191-варақлар.

²⁴⁸ Исоилов Х. Совет милицияси – қонунчилик ва қонун тартиботининг поспони. Тошкент: Ёш гвардия, 1982. - Б. 23.

²⁴⁹ Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987. - С.166.

jinoyatlar sodir etilishi holatlari birmuncha kamaytirildi, uyushtirilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldi olindi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ichki ishlar idoralarining faoliyati ko'plab qiyinchiliklar bilan kechdi. Sababi urush holati e'lon qilingandan keyin, respublika ichki ishlar organlari malakali xodimlarining katta qismi frontga va boshqa joylarga komandirovka qilindi.

Xususan, O'zbekiston SSR KP MK IXXK kadrlari sektorining faoliyati yuzasidan (1941 yil iyul oyidan 1943 yil 1 yanvargacha) topshirilgan dalolatnomada bu davrda militsiya organlarining faoliyati va tarkibiy tuzilishiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Dalolatnomada: "Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so'ng, IXXK strukturasi o'zgarishlar bo'lishi barobarida, jinoiy qidiruv bo'limining malakali kadrlaridan 284 tasi (34 %) Qizil Armiyaning maxsus bo'limlariga yuborilgan, undan tashqari 132 ta xodim sovet ittifoqining turli joylariga, 74 nafar xodim qayta tayyorlash uchun maktablar va kurslarga jo'natilgan. Hozirgi kunda ularning o'rnini to'ldirish maqsadida jinoiy qidiruv liniyasi bo'yicha – 15 ta, qamoqxonalar va mehnat lagerlarini boshqarish tizimi uchun – 10 ta, militsiya bosh boshqarmasiga – 15 ta rezerv xodim tayyorlandi"²⁵⁰ – deya ta'kidlaydi sektor boshlig'i Zuparov (27.01.1943 yil).

Ma'lumotlarda keltirilishicha, tahlil etilayotgan yillarda ichki ishlar idoralari faoliyatida bir qator uzilishlar va kamchiliklar ham kuzatilgan.

Quyidagi jadvalda ittifoq miqyosida ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklar va faoliyati davomida xizmat intizomini buzilish holatlari to'g'risida ma'lumot keltiriladi (qiyoslash uchun 1940-1946 yillar berilgan)²⁵¹.

²⁵⁰ ЎзР ПДА, 58-фонд, 19-рўйхат, 908-иш, 8-варак.

²⁵¹ Емелин С.М. Организационно-правовые основы работы по укреплению дисциплины среди личного состава внутренних дел в годы Великой Отечественной войны (1941-1945). // История государства и права. 2015, № 9. - С.17.

	1940	1943	1945	1946
Shaxsiy tarkib orasida sodir etilgan qonunbuzarliklarning umumiy soni	55536	23107	30309	34517
rahbarlar tomonidan	18542	9569	14396	17937
Kichik rahbar xodimlar va oddiy xizmatchilar tomonidan	36994	13528	18913	23099

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, urush yillarida ichki ishlar shaxsiy tarkibi xodimlari tomonidan sodir etilgan kamchiliklar birmuncha kamaygan, lekin ularning keyingi yillardagi faoliyati tahlili shundan dalolat beradiki, ularning faoliyatida noxush holatlar yana ko'payib borgan.

Arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, bu davrda respublika ichki ishlar idoralari faoliyati davomida ham ijro intizomini ta'minlash borasida va boshqa jarayonlarda uzilishlar kuzatilgan. Undan tashqari jamiyatda yuzaga kelgan yana bir muammo – poraxo'rlikka qarshi kurashish borasida ham talab darajasida amaliy harakatlar olib borilmagan²⁵².

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, fashistlarga qarshi bo'lgan janglarda ittifoq miqyosida ichki ishlar idoralari xodimlari yuksak qahramonlik va jasurlik timsolini namoyon etgan bo'lsa²⁵³, O'zbekistonlik militsiya xodimlari ham Ukraina, Belorussiya, Leningrad, Xarkov, Kursk yoyi, SHimoliy va G'arbiy hamda boshqa frontlarda ishtirok etib, katta matonat va mardlik namunalarini ko'rsatdilar. Ularning janglardagi qahramonliklari turli xildagi davlat ordenlari va medallari bilan taqdirlandi.

Ana shunday vatanparvar respublika ichki ishlar idoralari xodimlaridan Mo'ydin Xasanov, G'ani Valiev, Tojiboy Rajapov, Olimboy Omonboev, Ummat Ubaydullaev, Dina Lyujarovskaya, Nina Krasikova, G'ani Usmonov, Rahmon Abdullaev, Nabijon Akbarov, Parda Omonturdiyev, Nurxon Abdullaev, Vasiliy Asachev, Juma Bekboev, Shermurot Bebitov, Mengli Ergashev, Petr Zvezdin, Yo'ldosh Ismoilov, Vladimir Kim, Boboqul Murotov, G'ofur Mengliboev, Yusuf Mamatqulov, Xurram Murtozoev, Haydar Mahmudov, Xoliq Mardonaqulov, Eron

²⁵² ЎзР МДА, 904-фонд, 10-рўйхат, 277-иш, 24-варак.

²⁵³ Почет и признательность (встреча Н.А.Щелокова с ветеранами войны). // Советская милиция, № 7, 1979. - С. 7.

Navro‘zov, Eshmo‘min Nukarov, Nurmamat Normatov, Insaf Nuriev, Dadaqo‘zi Ataqo‘ziev, Asil Rasulov, Temur Ravshanov, rajabali Sattorov, Juma Suyundukov, G‘ofur To‘raqulov, Musurmonqul To‘raev, Egamberdi Xo‘janov, Juma Xolliev, Ro‘zi Shaxaev, Roman Yakimov²⁵⁴, Xamid Ahmedov, Tojiyuoy Rejapov, Mamatqul Suraev, Saidahmad Isaev, Akmal G‘oziev, Kimsan Qambarov, Vladimir Bistrevskiy, Evgeniy Shanin, Karimjon Najiev²⁵⁵, Xidir Davirov²⁵⁶ va boshqa ko‘plab xodimlarni nomini keltirish mumkin. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Jumladan, urushgacha Quva rayon ichki ishlar boshqarmasi pasport stolining boshlig‘i bo‘lib ishlagan Mo‘ydin Xasanov nemis-fashistlarga qarshi bo‘lgan janglarning birida shaxsan o‘zi fashist tankini yo‘q qilib, o‘nlab fashistlarni o‘ldirgan. Bu qahramonligi uchun unga SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoniga ko‘ra Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan. U urushdan keyin yurtiga qaytib, o‘z vazifasida ishlashni davom ettirdi.

Uchala darajadagi Shuxrat ordeni nishondori, g‘alaba paradi qatnashchisi G‘.Valiev XX asrning 90 yillarigacha respublika Ichki ishlar vazirligida polkovnik lavozimida ishladi. U Narva daryosini kechib o‘tishdagi va Keningsberg shahrini olishdagi maxsus operatsiyalarda, Berlinni shturm qilishdagi janglarda qahramonlik ko‘rsatdi.

Qoraqalpog‘istonlik Olimboy Omonboev 1942 yildan nemis-fashistlarga qarshi bo‘lgan janglarda, jumladan, dushmanning Sharqiy Prussiyadagi mudofasini yorib o‘tishda va boshqa janglarda ishtirok etib, ko‘p marta mardlik va qahramonlik ko‘rsatgani uchun uchala darajali Shuxrat ordeni, Qizil YUlduz, II daraja Vatan urushi ordenlari hamda bir nechta medallar bilan mukofotlangan. Urush tugaganidan so‘ng 1947 yildan mehnat-ahloq koloniyasi vzwod komandirining yordamchisi, Nukus shahar militsiya bo‘linmasi vzwodining komandiri va boshqa lavozimlarda xizmat qildi.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi Toshkent oliy bilimgo‘hining kafedra mudiri lavozimida ishlagan, huquqshunoslik fanlari nomzodi G.U.Ubaydullaev

²⁵⁴ Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарқанд; Сугдиён, 1998. - Б.66.

²⁵⁵ Андижон милицияси: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. - Андижон, 2008. - Б.11.

²⁵⁶ Раҳмонов Т. Сирдарё милицияси халқ хизматида. - Тошкент: Muharrir, 2012. - Б.66.

urush yillari 72-gvardiyachi diviziyaning pulemyotchilar vzvodiga komandirlik qilgan. U Belgorod, Xarkov uchun boʻlgan janglarda ishtirok etib, bir qator hukumat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Ichki ishlar idoralarida ishlagan Gʻ.Usmonov 39-gvardiyachi polk saflarida Vena, Budapesht shaharlarini ozod qilishda qatnashdi. Urushdan ikkinchi va uchinchi daraja Shuxrat, Qizil Yulduz ordenlari, “Jasurligi uchun”, “Jangovor xizmatlari uchun” medallari bilan qaytib, militsiya safida xizmatini davom ettirdi. Gʻ.Usmonov 1953 yilning 20 mayida jamoat tartibini muhofaza qilish boʻyicha jangovar postda turganida bir necha bor qamalgan jinoyatchining qurboni boʻldi. Uning nomi oʻzi xizmat qilgan boʻlinma shaxsiy tarkibini roʻyxatiga abadiy yozib qoʻyilgan²⁵⁷.

Urushdan keyingi yillarda ichki ishlar idoralarida turli rahbarlik lavozimlarida (koʻp yillar ichki ishlar vazirining oʻrinbosari) faoliyat koʻrsatgan Sh.Xasanboev Belorussiyada pulemyotchilar vzvodining komandiri, batalon komandirining oʻrinbosari, polk shtabining boshligʻi lavozimlarida fashistlarga qarshi boʻlgan janglarda faol ishtirok etgan. Janglarda koʻrsatgan qahramonliklari uchun ikkita Qizil Yulduz, ikkita “Vatan urushi”, “Hurmat belgisi” ordenlari, 17 ta jangovar medallar nishondori boʻldi.

Ichki qoʻshinlar komandiri, ichki ishlar Oliy kurslarining boshligʻi lavozimlarigacha koʻtarilgan (general-leytenant) B.Sirojiddinov fashistlar qarshi olib borilgan janglarda faol ishtirok etgani uchun ikkita ikkinchi daraja “Vatan urushi”, uchinchi daraja “Vatanga xizmati uchun” ordenlari, oʻndan ortiq jangovar medallar bilan taqdirlangan.

I.Kirpichenko urushdan soʻng ichki ishlar idoralariga ishga oʻtib, 1946-1948 yillarda Angren tumani, 1949-1964 yillarda Samarqand viloyati ichki ishlar idoralarida turli rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan. 1964-1967 yillarda Ichki ishlar vazirligida Tergov boʻlimi boshligʻi, 1967-1968 yillarda jamoat mulkini talon-taroj qilishga qarshi kurash boʻlimi (OBXSS) boshligʻi, Sirdaryo viloyati IIB boshligʻining oʻrinbosari (1969-1970), Samarqand viloyati IIB boshligʻining

²⁵⁷ Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.56-58.

o‘rinbosari (1970-1983) lavozimlarida xizmat qilgan. U “Lenin ordeni”, “Oltin YUlduz medali”, “Jangovar xizmatlar uchun” hamda boshqa o‘nlab orden va medallar bilan taqdirlangan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist unvoni sohibi bo‘lgan²⁵⁸.

Respublika ichki ishlar idoralarida turli rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan (Ichki ishlar vazirining birinchi muovini lavozimida) G‘.Rahimov urush qatnashchilari haqida: “Urush ishtirokchilari, urush qahramonlari bo‘lgan kishilar militsiyaning ham qahramonlari edilar. Ular xuddi urushdagi kabi o‘z jonlarini ayamadan jinoyatchilikka qarshi kurash olib bordilar. Ularning ichki ishlar idoralaridagi keyingi faoliyati ham doimiy ravishda o‘z xizmatiga sodiqliq, jonbozlik, qat’iyatlilik, matonatlilik, fidoiylilik xislatlari namoyon bo‘ldi”²⁵⁹ deya ta’kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida bo‘lgani singari, ichki ishlar idoralari faoliyatida ham o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan militsiya organlari ham harbiylashgan tizimga o‘tkazilib, xodimlarning ish hajmi va soati oshirildi, barcha turdagi ta’tillar bekor qilindi.

Urush boshlanishi bilan militsiya xodimlarining bir qismi umumiy safarbarlik asosida jang maydonlariga jo‘nab ketdi. Hatto Toshkent militsiya maktabidagi o‘quv jarayonining muddati qisqartirilib, ularning bir qismi jangga yuborildi, qolganlari muddatidan oldin ishga yo‘llanma oldi. Ichki ishlar organlari xodimlari nizomda belgilangan vazifalarni bajarish barobarida, katta hajmdagi qo‘shimcha vazifalarni ham bajardi. Jumladan, xalq xo‘jaligi ob’ektlarini qo‘riqlash, harbiy yuklarni talon-taroj qilishni oldini olish, oziq-ovqat va sanoat maxsulotlari hamda oziq-ovqat kartochkalari oldi-sotdisini nazorat qilish bilan ham shug‘ullandi. Shuningdek, davlat (sotsialistik) mulkini talon-taroj qilishga qarshi

²⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги музейи экспозициясидан.

²⁵⁹ Бир неча йиллар (умумий 42 йил) давомида ички ишлар тизимида турли раҳбар лавозимларида (1985-1993 йилларда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири ўринбосари, Вазирнинг биринчи ўринбосари лавозимлари) ишлаган Ғ.Раҳимов билан 2009 йил 24 апрель куни бўлган суҳбатдан. Тадқиқотчининг дафтарчаси 2 бет. 24.04.2009 йил.

kurashish bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan tadbirlar natijasida davlat mulkini talon-taroj qilish va o'g'rilash yuzasidan sodir etilgan ko'plab jinoyatlar fosh etildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida turli hududlarda qarovsiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan komissiyalar bilan hamkorlikda qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarni topish, ularni ota-onasi bilan aloqa o'rnatish va ularga etkazib berish, etim yoki ota-onasini yo'qotganlarni tegishli muassasa (o'qishga yuborish), tashkilot (mehnatga jalb qilish) va tarbiya-mehnat koloniyalariga yuborish kabi ishlarni tashkil etishda ichki ishlar idoralari huzurida faoliyat ko'rsatgan bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining o'rni katta bo'ldi. Hamkorlikda olib borilgan bunday tadbirlar natijasida ko'plab bolalar ota-onasining bag'riga qaytarildi, qarovsiz qolgan bolalar yoshi, imkoniyati va ma'naviy-ahloqiy holatidan kelib chiqib tegishli joylarga taqsimlandi, bu ishlarning pirovardida yoshlar orasida kuchayib ketgan jinoyatchilikni kamaytirish va oldini olishga sezilarli hissa qo'shildi.

Ichki ishlar xodimlarining bir qismi front ortidagi katta hajmdagi vazifalarni bajargan bo'lsa, ko'plab militsiya xodimlari bevosita fashistlarga qarshi bo'lgan janglarda faol ishtirok etishdi.

Fashistlarga qarshi olib borilgan yirik hal qiluvchi frontlarda qahramonlik ko'rsatgan bir qator militsiya xodimlarining faoliyati yuksak baholanib, ular turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlandi.

Tayanch so'zlar

Davlat, kommunistik partiya, siyosiy kotibiyat, front, kartochka, struktura, vazifa, vakolat, jinoyat, lager, kollegiya, tizim, militsiya, harbiy yuk, komissiya, respublika, paxta, xomashyo.

Savol va topshiriqlar

1. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin ichki ishlar organlari strukturasi va vazifalarida qanday o'zgarishlar amalga oshirildi?

2. Ichki ishlar organlari xodimlarining frontga safarbar etilishi haqida gapirib bering.
3. Tahlil etilayotgan yillarda militsiya organlarining respublikada jinoyatchilikni oldini olish va bartaraf etish borasidagi faoliyati qanday kechdi?
4. Militsiya xodimlarining qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston ichki ishlar organlari xodimlari qaysi janglarda ishtirok etgan?
6. Ichki ishlar organlari xodimlarining frontda ko'rsatgan jasoratlari haqida gapirib bering.

XULOSA

1. O'lkada 1917 yili oktyabr to'ntarishi amalga oshirilgandan so'ng Turkistonda o'rnatilgan sovet hukumati o'zining hokimiyatini har tomonlama mustahkamlay boshladi. Asosiy mazmuni mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb tartib o'rnatgan tuzum o'lkada inqilob qonunlariga huquq-tartibotga qat'iy amal qilishini ta'minlovchi maxsus organlarni tashkil eta boshladi. Sovet hukumati o'rnatilgan barcha hududlarda RSFSR IIXKning ko'rsatmasiga binoan militsiya organlarini tashkil etish ishlari jadallashtirilib, Turkistonda ham sovetlar tomonidan bunday tadbirlar amalga oshirildi. O'lkani boshqarish va sovet hukumatini mustahkamlash jarayonida – Turkiston Xalq komissarlari soveti, Adliya xalq komissarligi, uning huzurida sud organlari va prokuratura tizimi joriy etildi. Turkistonda adliya tizimining tashkil etilishi va takomillashtirilishi barobarida, ayrim jazo va nazorat organlari ham tuzila boshladi. Natijada Turkistonda Butunrossiya favqulodda komissiyasining bo'limlari tashki etildi.

2. O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat yuritayotgan Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida 1920 yilda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, Xivada muvaqqat inqilobiy hukumatni tuzish jarayonida, bu hududlarda ham ichki ishlar idoralari tashkil etildi. Jumladan, Xivada hukumat tarkibiga kiritilgan – adliya nozirliqi qoshida militsiya boshqarmasi tasis etildi. Keyinroq Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Ijroiya komitetining qaroriga asosan Ichki ishlar xalq nozirliqi tashkil etildi (1921 yilda). Buxoro hududlarida amirlik tuzumi tugatilganidan keyin, Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi va respublika hukumati Xalq Nozirlar SHo'rosi tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar SHo'rosi tarkibiga doxiliya-ichki ishlar nozirliqi ham kiritilib, hududlarda uning bo'limlari faoliyatini boshladi.

3. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng, bu hududlarda faoliyat yuritgan uchta davlat tugatilib, O'zbekiston SSR tashkil etildi. Natijada Turkiston ASSR, XSSR va BSSR hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar idoralari huquqiy va hududiy jihatdan O'zbekiston SSR IIXK tasarrufiga o'tkazildi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi tomonidan

qabul qilingan “O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi”da Xalq komissarlari soveti tarkibiga Ichki ishlar xalq komissarligi ham kiritilgani ko‘rsatilib, uning huquqiy maqomi mustahkamlandi.

4. Tadqiq etilayotgan davrning ilk yillarida ichki ishlar organlari tizimidagi xususiyatlardan biri bu – boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar bo‘lib, uning faoliyati avval XKS huzuridagi Markaziy-ma‘muriy boshqarmaga, so‘ng XKS va Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasiga bo‘ysundirildi. Undan keyin IIXK qayta tashkil etilganidan so‘ng, militsiya organlari uning tarkibida boshqarma sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda sovet militsiyasi faoliyatiga tegishli muhim normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “O‘zbekiston SSR Sovet Ishchi–dehqon militsiyasi haqida” va “O‘zbekiston SSR XKS huzuridagi ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi” nizomlar qabul qilinib, amalga joriy etildi. Keyingi yillarda ichki ishlar idoralari tizimi va strukturasi yana bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilib, Davlat avtomobil inspeksiyasi xizmati bo‘limi, davlat va jamoat mulkini o‘zlashtirish hamda chayqovchilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga qarshi kurashish uchun BXSS xizmati bo‘limlari tashkil etildi. SHuningdek, pasport tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini ta‘minlashda ichki ishlar idoralari xodimlari bevosita ishtirok etishdi.

5. XX asr 20 yillarining ikkinchi yarmida sovet jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy sohalarda tezkor sur‘atlarda o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jamiyatda olib borilgan har qanday o‘zgarishlar o‘ziga xos usul va vositalar orqali (ixtiyoriy, majburiy va b.) amalga oshirilib, bu jarayonda davlat tashkilotlari, xususan, nazorat organlarining ham bevosita ishtiroki kuzatildi. Ittifoq miqyosida qishloq xo‘jaligida boshlangan kollektivlashtirish siyosati o‘lka hududlariga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. O‘zbekistonda jamoalashtirish siyosatining o‘tkazilishi oqibatida katta tomorqasi va eri bo‘lgan dehqonlar majburiy ravishda jamoa xo‘jaliklariga kiritildi, quloqlashtirishning jadallashtirilishi jarayonida ichki ishlar organlariga qo‘shimcha vazifalar yuklatildi. Jumladan, O‘zbekistonga sovet ittifoqining markaziy xududlari va Qozog‘istondan ko‘chib kelayotgan, yashirinib yurgan boy va quloqlarni

aniqlash, quloqlar tomonidan uyushtirilishi mumkin bo'lgan chiqishlar va jamoalashtirishga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish, mulkning musodara qilinishiga qarshi bo'lgan quloqlarni aniqlab, tegishli chora ko'rish, quloqlarni surgun qilishda qatnashish, surgun qilingan quloqlar ustidan doimiy nazorat o'rnatish, surgundan qochib, berkinib yurgan quloqlarni qidirish ishlarini jadallashtirish kabi vazifalar yuklatildi. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonida ko'plab insonlarning haq-huquqi poymol etildi,

6. Tadqiq etilayotgan yillarda O'zbekistonda sovetlarning xotin-qizlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarning amalga oshirilishi jarayoniga ham respublika ichki ishlar idoralari xodimlari jalb qilindi, jumladan, militsiya xodimlari bu jarayonda ayrim noxush holatlar natijasida yuzaga kelgan turli xildagi jinoiy ishlarni ochishda, g'alayonlarni va boshqa tartibsizliklarni bartaraf etishda ishtirok etdi.

7. XX asr 30 yillarining ikkinchi yarmida jamiyatda avj olgan repressiv siyosat o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilib, tarixga "katta terror" nomi bilan kirdi. Olib borilgan ommaviy qatag'onlar oqibatida respublikada faoliyat yuritgan eng ilg'or rahbar xodimlar va xo'jalik sohasidagi milliy intellegensiya vakillarining katta qismi asossiz ravishda hibsga olinib. qatag'on qilindi.

8. Bu paytda ushbu qatag'onlarning bevosita ijrochisi bo'lgan nazorat va jazo tashkilotlarining boshqaruv tizimi va strukturasi bir qator o'zgarishlar amalga oshirilib, Ichki ishlar xalq komissarligida ikkita tashkilot militsiya organlari va davlat xavfsizligi boshqarmalari faoliyat olib bordi. Davlat xavfsizligi organlari qatag'onlarning ijrochisi bo'lganligini ko'rsatib, ayrim paytlarda militsiya xodimlari ham qatag'on jarayonida ishtirok etganligini ta'kidlash o'rinli. Bu davrdagi siyosiy repressiyalarga shunday shiddatli tus berildiki, hatto bu jarayonlarning ijrochisi bo'lgan ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan xodimlar ham turli ko'rinishdagi qatag'onlar qurboniga aylandi.

9. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bo'lgani singari, ichki ishlar idoralari faoliyatida ham o'zgarishlar amalga oshirildi. Militsiya organlari ham harbiylashgan tizimga o'tkazilib,

xodimlarning ish hajmi va soati oshirildi, barcha turdagi ta'tillar bekor qilindi. Urush boshlanishi bilan militsiya xodimlarining bir qismi umumiy safarbarlik asosida jang maydonlariga jo'nab ketdi. Ichki ishlar organlari xodimlari nizomda belgilangan vazifalarni bajarish barobarida, katta hajmdagi qo'shimcha vazifalarni ham bajardi.

10. Ikkinchi jahon urushi yillarida turli hududlarda qarovsiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan komissiyalar bilan hamkorlikda qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarni topish, ularni ota-onasi bilan aloqa o'rnatish va ularga etkazib berish, etim yoki ota-onasini yo'qotganlarni tegishli muassasa, tashkilot va tarbiya-mehnat koloniyalariga yuborish kabi ishlarni tashkil etishda ichki ishlar idoralari huzurida faoliyat ko'rsatgan bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining o'rni katta bo'ldi. Bunday tadbirlar natijasida ko'plab bolalar ota-onasining bag'riga qaytarildi, qarovsiz qolgan bolalar yoshi, imkoniyati va ma'naviy-ahloqiy holatidan kelib chiqib tegishli joylarga taqsimlandi. Ichki ishlar xodimlarining bir qismi front ortida katta hajmdagi vazifalarni bajargan bo'lsa, ko'plab militsiya xodimlari bevosita fashistlarga qarshi bo'lgan janglarda faol ishtirok etishdi va turli darajadagi orden hamda medallar bilan taqdirlandi.

Qisqartmalar ro'yxati

1. TASSR – Turkiston Avtonom Sovet Sovet Sotsialistik Respublikasi.
2. XKS – Xalq Komissarlari Soveti.
3. MIK – Markaziy Ijroiya Komiteti.
4. IIXK – Ichki ishlar xalq komissarligi.
5. BXSР – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi.
6. XXSR – Xorazm Xalq Sovet Respublikasi.
7. O‘zbekiston SSR – O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi.
8. BMIK – Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti.
9. GUM – Militsiya Bosh boshqarmasi (Glavnoe Upravlenie militsiya).
10. VCHK – Butunrossiya Favqulotda komissiyasi (Vserossiyskaya CHrezvichaynaya komissiya).
11. GPU – Davlat Siyosiy boshqarmasi (Gosudarstvennaya Politicheskoe Upravlenie)
12. FK – Favqulotda Komissiya.
13. O‘zR MDA – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.
14. O‘zR PDA – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivi.
15. O‘zR IIVA – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi arxivi.
16. Farg‘ona VDA – Farg‘ona viloyati davlat arxivi.
17. Namangan VDA – Namangan viloyati davlat arxivi.
18. Andijon VDA – Andijon viloyati davlat arxivi.
19. Samarqand VDA – Samarqand viloyati davlat arxivi.
20. Buxoro VDA - Buxoro viloyati davlat arxivi.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Агзамходжаев А., Уразаев З.Ш. Развитие Советской государственности в Узбекистане. - Москва: 1960. -125 с.
2. Алимова Д. “Коммунистча ижтимоий буюртма” ва эрк учун интилиш тарихи. / Ўзбекистонда совет даврида амалга оширилган сиёсий кампаниялар ва уларнинг фожиаи оқибатлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. - Тошкент, 2017. - Б.126-138.
3. Бобоев М., Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарқанд: Суғдиён, 1998. - 431 б.
4. Блинова В.В. Деятельность детских приемников-распределителей в годы Великой отечественной войны: историко-правовой аспект. // История государства и права. 2016, № 15. - С.52-56.
5. Брылева Е.А. Развитие исправительных учреждений для несовершеннолетних: история и современность. // История государства и права. 2015, № 8. - С.19-23.
6. Война и общество 1941-1945. Книга 2. Отв. редактор академик Г.Н. Севостьянов. - Москва: Наука, 2004. - 360 с.
7. Глушаченко С.Б., Шатилов С.П. Борьба органов милиции с преступлениями, посягавшими на ослабление боеспособности Красной Армии, в годы Великой Отечественной Войны. // История государства и права. 2008, № 12. - С.30-34.
8. Гусак В.А. К вопросу о классификации функций советской милиции в военный период (1941-1945гг.) . // История государства и права. 2010, № 24. - С.2-5.
9. Гутман М.Ю. Правовой механизм укрепления дисциплины в органах милиции в годы Великой Отечественной Войны 1941-1945 гг. // История государства и права. 2009, № 10. - С.28-32.
10. Джалилов Т.А. Верные отчизне. - Ташкент: Узбекистан, 1968. -158 с.

11. Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917 – 1924 йилларда). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007. – 158 бет.
12. Жалилов Т.А., Ҳалимов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - 40 б.
13. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Тошкент: Адолат, 2007. - 584 б.
14. Исмоилов Х. Совет милицияси – қонунчилик ва қонун тартиботининг посбони. Тошкент: Ёш гвардия, 1982. - 19 б.
15. Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.) - Тошкент: Тафаккур, 2011. - 287 с.
16. Кара-Мурза С. Советская цивилизация. От начала до Великой победы. - Москва: Алгоритм; Эксмо, 2005. - С.510.
17. Каримов Н. “Катта қирғиннинг” келиб чиқиш сабаблари ва омиллари. - Тошкент: Фан, 2013. -126 б.
18. Каримов Н. 1937-1938 йиллардаги “Катта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. - Тошкент, 2015. - 160 б.
19. Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. - Самарканд: Издание Юридического Издательства СНК. 1927. - 20 с.
20. Лубянка: Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1991. Справочник. Под. ред. акад. А.Н.Яковлева: авторы - сост.: А.И. Кокурин, Н.В.Петров. Москва: МФД, 2003. - 768 с.
21. МВД России. Энциклопедия. Науч. ред., В.Ф.Некрасов. - Москва: Объединенная редакция МВД России, Издательский дом «ОЛМА ПРЕСС», 2002. - 684 с.
22. Петров Н.В., Скоркин К.В. Кто руководил НКВД 1934–1941. Справочник. - Москва, 1999. - 98 с.

23. Петров Н. Янсен М. Сталинский питомец – Николай Ежов. - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОСПЭН); Фонд Первого Президента России Б.Н.Ельцина, 2008. - С.447.

24. Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар ахволи (1929–1959 йиллар). - Тошкент: Sharq, 2012. - 368 б.

25. Рудман М.Н. Категория эффективного менеджмента в оценке роли И.В.Сталина в Великой отечественной войне. // История государства и права. 2015, № 14. - С.49-54.

26. Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987. - 336 с.

27. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка, 1929-1955 гг. Документы и материалы. Т.1. \ Сост: Шамсутдинов Р., Расулов Б. Под ред. Алимовой Д. - Тошкент: Шарк, 2006. - 656 с.

28. Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ. Рахимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 255 б.

29. Шамбаров В. Оккультные корни Октябрьской революции. - Москва: Алгоритм; Эксмо, 2006. - 448 с.

30. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев. - Тошкент: Шарк, 2000. - 688 б.

31. Ўзбекистон тарихи. II жилд (XIX аср II ярми – 1991 йил август). Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Тошкент: Маънавият, 2015. - 486 б.

32. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

Диссертация ва авторефератлар

1. Абидов Ю. Деятельность Компартии Узбекистана по повышению роли административных органов и общественных организаций в коммунистическом воспитании трудящихся (1959-1965 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Тошкент, 1977. - 32 с.
2. Грикуть А. Роль и место органов НКВД СССР в осуществлении уголовно-правовой политики Советского государства в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. - Москва, 1999. - 28 с.
3. Джакишев А. Деятельность милиции Кыргызстана по охране общественного порядка и борьбе с преступностью (50-е годы). Автореф. дисс... канд. ист. наук. -Бишкек, 1998. - 26 с.
4. Джалилов Т. Милиция Узбекистана в системе органов советского социалистического государства и её деятельность перехода к социализму. Дисс. ... док. юрид. наук. - Ташкент, 1971. - 635 с.
5. Ерметов А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918 – 1924 й.). Тарих фанлари номзоди...дисс.автореферати. –Тошкент, 2006. – 30 бет.
6. Имомёрбеков А. История формирования и развития органов милиции на Памире (1917-1945 гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Душанбе, 2015. - 24 с.
7. Михайлик М. Милиция Черниговщины (1919-1940 гг.): историко-правовые исследования. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. - Киев, 2013. - 24 с.
8. Мухамедов А. Создание и деятельность Советской милиции в Туркменской ССР (1917-1936гг.). Дисс. ... канд. юрид. наук. - Ашхабад - Ташкент, 1972. - 176 с.
9. Раджабов К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924гг). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. - Тошкент, 2005. - 36 с.

10. Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1959 йй.). Тарих фанлари доктори...дисс. автореферати - Тошкент, 2017. 61-б

11. Таумуратов Н. История милиции Каракалпакистана в период восстановления национальной государственности (1917-1936гг.). Дисс. ... канд. ист. наук.- Нукус, 1999. - 175 с.

Хорижий адабиётлар

1. Alexandr G. Park. Bolshevism in Turkestan 1917-1927/ Columbia University. Press. -New York, 1957. - 446 p.

2. Caroe Olaf. Soviet Empire. The Turks of Central Asia and Stalinism. - London Macmillan and CoLtd. New York st Martins Press, 1954. - 192 p.

3. Geoffrey Wheeler. The modern history of Soviet Central Asia.-London. Weidenfeld and Nicolson, 1964. - 272 p.

4. Pipes Richard. The formation of the Soviet Union: Communism and Nationalism, 1917-1923/ Cambridge, Mass. Harvard University Press. 1997. - 392 p.

5. Kline G. Capital Punishment for Crimes against state and Public property in the Soviet Union / – Washington, D.C., 1987. - 23 p.

6. Malia M. The Soviet Tragedy:A History of Socialism in Russia. –The Free Press, 1995. - 592 p.

7. Marco Buttino. La rivoluzione capovolta. - Napoli, 2003. - 392 p.

8. R.Butler. Stalins Secret Police: A History of the ChEKA, OGPU, NKVD, SMERSH and KGB: 1917-1991 (Military Classics): - London, 2015. - 192 p.

9. A.Khalid. Making Uzbekistan. Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. - London, 2015. - 415 p.

Интернет материаллари

VIII.1. [http:// www.academia.edu](http://www.academia.edu).

VIII.2. [http:// www.goodreads.com](http://www.goodreads.com).

VIII.3. [http:// www.unrisd.edu](http://www.unrisd.edu).

VIII.4. [http:// www.abebooks.co.uk](http://www.abebooks.co.uk).

VIII.5. [http:// www.trove.nla.gov.au](http://www.trove.nla.gov.au).

VIII.6. [http:// archive.security.gov.ge/indexeng.htm](http://archive.security.gov.ge/indexeng.htm)

GLOSSARIY

VKP(b) (Vsesoyuznaya Kommunisticheskaya Partiya (bolshevikov) – 1898 yilda V.I.Lenin tomonidan tashkil etilgan RSDRP 1917 yildan RSDRP (b) ga, 1918 yildan RKP (b) ga, 1925 yildan esa bu partiyaning nomi VKP (b) ga o‘zgartirilgan. 1952 yildan 1991 yilgacha esa partiya KPSS (Kommunisticheskaya Partiya Sovetskogo Soyuza) deb yuritilgan.

Gegemoniya (yunon. hegemonia – hukmronlik, ustunlik) – jamiyat va davlat boshqaruvida, shuningdek, xalqaro munosabatlarda biron bir siyosiy kuch yoki ijtimoiy guruhning ustunligi va rahbarligini anglatuvchi siyosiy tushuncha.

Genotsid – biror milliy, etnik yoki diniy guruhni batamom qirib tashlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat. Bunga faqat qirib tashlashning o‘zi emas, u yoki bu guruhning qirilib ketishiga, jismoniy va aqliy tubanlashishiga oli boruvchi sharoit yaratilishi ham kiradi.

Davlat tuzilishi shakli – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida davlat yoki ittifoqni tashkil etuvchi davlatlarni hududiy tashkil qilish usuli. Davlat tuzilishi shaklining ikki xil farqlanadi: federatsiya va unitar davlat. Ko‘p millatli tarkibga ega bo‘lgan mamlakatlarga nisbatan ba‘zan “milliy-davlatchilik tuzilishi shakli” terminidan ham foydalaniladi.

Davlat chegarasi – davlat mustaqilligining zaruriy belgilaridan biri bo‘lib, har qanday davlat o‘z hududiy chegarasiga egadir. Davlat hududining boshqa davlat hududi bilan tutash chizig‘i davlat chegarasi deb e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi beshta mustaqil davlat Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston davlatlari bilan chegaradoshdir.

Davlatimiz hududi chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. Jumladan, Afg‘oniston bilan chegara-137 km, Qozog‘iston bilan-2203 km, Qirg‘iziston bilan 1099 km, Tojikiston bilan-1161 km, Turkmaniston bilan-1621 km dan iborat.

Konstitutsiyamizning 3-moddasida O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo‘linmasdir deb qayd etilgan.

O‘zbekiston davlat chegarasini qo‘riqlash vazifasini Respublika chegara qo‘shinlari amalga oshiradi.

Deportatsiya – muayyan shaxslar, guruhlar, xalqlarni mamlakat yoki biron mintaqa chegarasidan tashqariga badarg‘a, surgun qilish, majburan chiqarib yuborish.

Diktatura (lot. diktatura – cheksiz hokimiyat) – hokimiyatni nodemokratik usullar bilan amalga oshirish. Avtoritar siyosiy rejim. Sovet davrida I.V.Stalin (1924-1953) diktatorlik boshqaruv tartibini o‘rnatgan edi.

Erga egalik – er egalarining tegishli huquq va majburiyatlarini shart qiluvchi yuridik asoslarga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan er maydonini haqiqiy egallash; xo‘jalik muomalasi va bozor mexanizmi bilan birgalikda ishlab chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida erni tasarruf qilish shakli.

Maxsus ko‘chkindi (ko‘chirib yuborilgan shaxs – badarg‘a qilingan shaxs) – o‘z yashash joyidan aksari mamlakatning uzoq rayonlariga ko‘chirib yuborilgan shaxs. SSSRda qatag‘onga uchragan aholining alohida toifasi.

Milliy masala – ko‘p millatli davlatlarda o‘zaro ta‘sir ko‘rsatuvchi millatlar va etnik guruhlar orasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishning umumiy va xususiy usullari haqidagi masala.

NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) – SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida 1917-1946 yillarda faoliyat ko‘rsatib, davlat havfsizligi, ichki tartib-osoyshtalikni ta‘minlash vazifasini bajarish barobarida, faoliyati davomida uning vazifa va vakolatlari bir necha marta o‘zgartirilgan.

Nozir (arab. – nazoratchi) – 1) O‘rta Osiyo xonliklarida saroy ta‘minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor; 2) XX asr boshlarida Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida (1920-1924 y.y.) savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo‘yicha xalq nozirlari tayinlangan bo‘lib, ular o‘sha soha bo‘yicha ishning borishiga javobgar hisoblanganlar.

OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) – SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida 1923-1934 yillarda faoliyat ko‘rsatgan davlat havfsizligini

qo‘riqlash idorasi. Keyin NKVD tarkibiga kiritilib, Davlat havfsizligi Bosh boshqarmasi deb o‘zgartirilgan.

RADIKAL (lot. radix – ildiz) – tub, qat’iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdori.

Regress (lot. regressus – orqaga ketish) – rivojlanishning yuqori darajadan quyi darajaga o‘tish davri, tanazzuli. Progressning aksi.

Sanatsiya (lot. sanatio – davolash, sog‘lomlashtirish) – korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, uning barbod bo‘lishi oldini olish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish.

Suverenitet – davlatga o‘z tashqi va ichki siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirish imkonini ta‘minlaydigan hokimiyat holati. Suverenitet – davlatning tashqi siyosat sohasida mustaqilligini, ichki ishlarda qarorlari ustunligi va so‘zsiz ijro etilishi shartligini nazarda tutadi.

YUNIDO – BMTning sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatini rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lgan BMT ning ixtisoslashgan muassasasi. 1946 yilda tashkil etilgan. 1995 yilda 166 ta davlat a‘zo bo‘lgan. O‘zbekiston ushbu tashkilotga 1994 yil aprelda a‘zo bo‘lib kirgan.

YUNKTAD – BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi. BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo tashkiloti bo‘lmagan organi. 1964 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 168 ta davlat unga a‘zodir. Asosiy vazifalari: xalqaro savdoni, davlatlar o‘rtasida teng huquqli o‘zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi bo‘yicha har xil tavsiyalar ishlab chiqish. YUNKTAD qarorlari rezolyusiyalar, bayonotlar shaklida bo‘lib, tavsiya xususiyatiga egadir. Uning rahbarligida ko‘p tomonlama bitimlar va konvensiyalar ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi YUNKTAD ga 1992 yilda a‘zo bo‘lgan.

O‘zbekiston SSR - 1924-1925 yillarda Moskva ko‘rsatmasi bilan o‘tkazilgan ma‘muriy-hududiy davlat chegaralanishi oqibatida, 1925 yil 13

fevralda Buxoroda Umumo‘zbek sovetlarining I qurultoyida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etiladi. 1927, 1937 va 1978 yillarda qabul qilingan O‘zSSR Konstitutsiyalarida O‘zbekistonning davlat mustaqilligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqlari yozib qo‘yilgan bo‘lsada, O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti to‘liq “Markaz” va Kompartiya nazoratiga olindi.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3-4
I. Mavzu. O'zbekiston SSRda Ichki ishlar organlarining qayta tashkil etilishi va ularning sovet davlat boshqaruvini mustahkamlashdagi o'rni	5-58
1.1-ma'ruza. O'zbekiston hududida sovet hokimiyatining mustahkamlanishi va ichki ishlar organlari tashkil etilishining nazariy-huquqiy asoslari	5-20
1.2-ma'ruza. O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining tashkil etilishi, strukturasi, vazifa va vakolatlari.....	21-40
1.3-ma'ruza. XX asr 20-30- yillarida respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlarining faoliyati.....	41-58
II. Mavzu. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ichki ishlar organlarining roli (1936-1945 yillar).....	59-87
2.1-ma'ruza. O'zbekistonda o'tkazilgan siyosiy qatag'onlik yillarida ichki ishlar organlarining faoliyatidagi xususiyatlar (1936-1938- yillar).....	59-70
2.2-ma'ruza. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston ichki ishlar idoralarining faoliyati (1941-1945 yillar)	71-87
Xulosa.....	88-91
Qisqartmalar ro'yxati.....	92
Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati.....	93-98
Glossariy.....	99-102